



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2021, № 2

DJURAYEV Risbay
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina
boshlangan.

O'z MAA'dan 2007 yil 3-yanvar-
da № 0101-tartib raqami bilan
qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan
maqolalardan iqtibos keltiril-
ganda «Uzluksiz ta'lim»
jurnalidan olinganligi ko'rsa-
tilishi lozim.

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV
Uzoqboy BEGIMQULOV
Alisher UMAROV
Nargiza RAXMANQULOVA
Xolboy IBRAGIMOV
Shavkat QURBONOV
Roxatoy SAFAROVA
Islom ZOKIROV
Dono G'ANIYEVA
Lobar QARAXANOVA
Dusmurod DJURAYEV

Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,
Furqat ko'chasi,
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **F.U.Oodirova**
Ta'lim klasteri tizimlari o'zaro manfaatli uzluksiz hamkorlikning innovatsion mexanizmi sifatida
- 7 **G.A.Berdaliyeva**
Uzluksiz ta'lim jarayonida bolalarni mustaqil fikrlashga yo'naltirish
- 11 **X.N.Qo'ng'irov, A.F.Sayfullayev**
Uzluksiz ta'lim vositasida ekologik muammolarni hal etish texnologiyasi
- 15 **O'E.Xo'janazarov**
Ekologiya darslarida tog' oldi yaylov o'simliklari qoplamining o'rganilishi
- 19 **Sh.N.Ibodova**
Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchi-yoshlarni jismoniy faollik va sog'lom turmush tarziga o'rgatish
- 23 **B.Shermuhammadov**
Uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarda sog'lom dunyoqarashni shakllantirishning dolzarb masalalari
- 28 **D.M.Maxmudova**
Kreativ faoliyat jarayoni-mustaqil o'quv-bilish faoliyatining eng yuqori darajasi
- 33 **M.B.Shodmonova**
Uzluksiz ta'lim jarayonida «Bumerang» texnologiyasidan foydalanish tajribasidan
- 38 **N.E.Ergasheva, Z.O.Jabbarova**
Uzluksiz ta'lim tizimi samaradorligini oshirishda o'qituvchi mahorati
- 42 **N.Mamatqulova**
Uzluksiz ta'lim bosqichlarida kasb-hunarga yo'naltirishda o'qituvchi psixologiyasi
- 45 **Sh.Boychayeva**
Uzluksiz ta'lim muassasalari orasidagi uzviylik va uzluksizlik
- 48 **Sh.Mamarajabov, J.Xalmuratova**
Uzluksiz ta'lim jarayonida darsni tahlil qilish texnikasi va ularni amaliyotda qo'llash
- 52 **M.U.Tuychiyeva**
Uzluksiz ta'limda o'quv materialini ustidagi samarali faoliyatni tashkil etish jihatlat
- 57 **H.H.Djxamuloeva**
Сущность модели формирования инициативности у обучающихся

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MEDIATA'LIM: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

- 61 **F.M.Lutfilloyeva**
Yapon ierogliflarni mnemotexnika asosida kompyuter imitatsion modellaridan foydalanish
- 66 **A.A.Puzilov**
Talabalarda lingvistik kompetentlikni shakllantirishda virtual texnologiyalaridan foydalanish

MA'NAVIY TARBIYA

- 70 **U.Mahkamov, D.Ismoilova**
Tarbiya – yuksak ma'naviyat belgisi
- 74 **N.U.Nishonova**
Uzluksiz ta'lim tizimida yoshlar tarbiyasining ba'zi masalalari
- 78 **M.E.Xalilova**
Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa va raqsning uzviyligini rivojlantirish masalalari

KASBGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK XIZMAT

- 83 **T.X.Avliyayulov**
Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunarga qiziqishining o'ziga xos xususiyatlari
- 88 **A.Q.Xoliqov**
Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bitiruvchi yoshlarni hayotga ijtimoiy moslashuvini amalga oshirishda jamoat tashkilotlarining o'zaro hamkorligi
- 92 **III.H.Бекмуратова**
Узлуksиз таълим тизимида касбий иждокорликни ва мотивацион қобилиятларни ривожлантириш
- 96 **L.R.Zaripov**
Texnologiya fanida kasbga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarini loyihalash
- 100 **Sh.Qo'qonboyeva, N.Sh.Turdiyev**
Bo'lajak fizika o'qituvchilari kasbiy kompetentligini shakllantirishda kontekst masalalardan foydalanish
- 104 **X.M.Radjabov**
Bo'lajak kimyo o'ituvchisi axborot-metodik kompetentligini rivojlantirishda AKTning roli
- 108 **H.Abdullaeva**
Коррекция речевых ошибок как дидактический приём активизации самостоятельной работы

**TA'LIM KLASTERI TIZIMLARARO O'ZARO MANFAATLI UZLUKSIZ
HAMKORLIKNING INNOVATSION MEXANIZMI SIFATIDA**

F.U.QODIROVA,
Chirchiq DPI, p.f.d (DSc)

Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim klasteri orqali talabalar nogiron bolalar bilan yakka ishlashning nazariy va metodika soslari ifodalangan.

Kalit so'zlar: *model, klaster, kompetensiya, monitoring, inklyuziv ta'lim, korreksion ta'lim.*

This article presents the theoretical and methodological basis for students to work with children with disabilities through an inclusive education cluster.

Key words: *model, cluster, competence, monitoring, inclusive education, correctional education*

Uzluksiz ta'limni sifatli kadrlar bilan ta'minlashda bo'lajak mutaxassislarining nazariy bilimi, amaliy ko'nikmalari, sohaga oid hamda tayanch kompetensiyalarini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish dolzarb sanalmoqda. Bo'lajak pedagoglarni tayyorlash sifati bilan bog'liq bo'lgan asosiy mezon bu ish beruvchilar talablarining qondirilishidir. Ya'ni kelajak o'qituvchisini kelajak ta'limiga tayyorlashda tizimlar o'rtasida ijtimoiy buyurtmaning maqsadli shakllantirilishi muhimdir.

Ta'lim muassasalari va buyurtmachilarning o'zaro munosabatlari quyidagi pedagogik jarayon komponentlarini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar, usullar, modellar va vositalarni o'z ichiga oladi: muassasada o'quvchilar kontingentini shakllantirish, o'qitish va tarbiyalash, bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash, tizimli tahlil qilish-logistika. Pedagogik jarayonning sifatiga quyidagi omillar ta'sir qiladi: ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, pedagogik, texnologik, tashkiliy.

Fan va ishlab chiqarishning bugungi rivojlanish davrida qaysi soha bo'lmasin unga zarur mutaxassisni tayyorlash sifati deganda, kasbiy va ijtimoiy funksiyalarni qulay va oson bajaradigan mutaxassisni etishtirish tushuniladi. Nafaqat kasbiy sifatlar, balki shaxsiy sifatlarning mutaxassisda mujassamlashuvi ham alohida sifat ko'rsatkichi hisoblanadi. Ish beruvchi kasbiy tasnifda belgilab berilgan talablarni kadrlar tayyorlash tizimiga taqdim etadi. Ushbu talablar oliy ta'lim malaka talablari orqali talabalarda kasbga doir kompetensiyalar shaklida tarkib topadi. Mazkur zanjirli munosabat ta'lim klasterining asosiy g'oyasini tashkil etadi.

Ta'lim klasteri asosida o'quv muassasalari va buyurtmachilarga xizmat ko'rsatadigan korxonalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning tashkiliy va texnologik modeli shakllantiriladi. Inklyuziv ta'limda klasterli bog'liqlik kadrlar



tayyorlash tizimi va imkoniyati cheklangan bolalar jalb etilgan muassasalar o'rtasidagi munosabatlarda nomoyon bo'ladi.

Chirchiq davlat pedagogika institutining ilmiy tadqiqot mavzusi doirasida Defektologiya kafedrasida mazkur muammo bo'yicha tajriba-sinov ishlari olib borilmoqda. Ta'lim klasteri orqali bo'lajak defektologlarni kasbiy amaliyotga samarali tayyorlash masalasi tizimli echim topmoqda. Inklyuziv va korrekson ta'lim o'quv amaliy laboratoriyasining ishga tushirilishi talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun to'sqinlik qilayotgan omillarni bartaraf etish imkonini berdi. Bu omillar asosan, imkoniyati cheklangan bolalar bilan muloqoga kirishishga qo'rqishda, nazariy bilimlarni oddiy yod olib, so'ngra tez muddatda esdan chiqarishda, didiktik yondashuvlarni bolalar imkoniyatlariga mos tanlash uchun muayyan obektning yo'qligi bois, ko'rgazmali qurol va tarqatmalarni bashoratlagan holda tayyorlash kabilarda sezilmoqda. Laboratoriyada talabalar uchun nogiron bolalar bilna ishlash imkoniyati yaratildi.

O'quv-amaliy laboratoriya faoliyati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Maktabgacha yoshdagi nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash.
2. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tahsil olayotgan, biroq o'zlashtirishlarida muammolari bo'lgan bolalar bilan motivatsion mashg'ulotlar olib borish.
3. Nutqiy muammolarga ega kattalar bilan ishlash.
4. Harakat tizimida engil darajadagi muammolar bo'lgan bolalar bilan ritmik mashqlar olib borish.

Inklyuziv va korrekson ta'lim laboratoriyasida har juma kuni aholining ma'lum qatlamlari uchun ta'limga jalb etilmagan bolalarni maktabga tayyorlash bepul xizmati yo'lga qo'yilgan. Bu xizmatga asosan institutda tashkil etilgan "Bir safda" ko'ngilli talabalar jalb etilgan bo'lib, ular bolalar bilan mentor nazoratida mashg'ulotlar olib boradilar.

Inklyuziv ta'lim klasterining bloklari:

1. Nazariy blok. Bu blokni kafedraning professor-o'qituvchilari va magistrilarining hamkorlikda tayyorlayotgan ilmiy tadqiqot ishlarigatashkil etadi.
2. Funktsional blok. Bu blok o'quv-amaliy laboratoriya faoliyati mazmuni hamda tashkiliy komponentlaridan tashkil topadi.
3. Monitoring va logistika bloki. Bu blokda fakultet dekani va belgilangan mas'ul faoliyatidan tashkil topgan bo'lib, klasterli tizim faolyati samaradorligini tahlil qiladi.
4. Reklama bloki. Bu blok integral faoliyatga asoslanadi. Chunki har bir blok



o'zining faoliyatini amalda namoyon etish imkoniyatiga ega. Masalan, 1-blokda magistrlar o'zining maqolalari hamda ommaviy axborot vositalaridagi chiqishlar orqali olib borayotgan ishlarini keng jamoatchilikka etkazishi mumkin. O'quv-amaliy laboratoriya esa, tashrif buyurgan ota-onalar va boshqa insonlarga bukletlar, e'lonlar orqali o'z ish faoliyatini yoyishi mumkin. Monitoring va logistika bloki davriy xisobotlar asosida institutning boshqa fakultetlariga va respublikaning boshqa OTMLariga ish natijalarini yoyish imkoniyatiga egadir.

Ta'lim klasteri orqali talabalar nogiron bolalar bilan yakka ishlashning nazariy va metodik asoslarini o'zaro muvofiqlikda o'zlashtiradilar. O'quv-amaliy laboratoriyada inklyuziv ta'lim muhitida har bir bola bilan yakka tartibda ishlashga qaratilgan korreksion yondashuvlar ham tashkil etiladi. Mazkur bolalarni o'qitish o'ziga xos kechadi. "Yakka tartib" mohiyati shuki, darsda bir o'quvchi va bir o'qituvchi faoliyat yuritib, darsga qo'yiladigan talablar bolaning imkoniyatidan kelib chiqqan dasturlar asosida olib boriladi. Qanchalik dars yakka tartibda tashkil etilmasin, bu jarayon boladan muloqot va mehnat talab qiladi. Oilada bunday bolalarga raxm qilish, ularni avaylash munosabati shakllangan bo'ladi. SHu sababli bunday bolalar doim yaqinlarining qo'llab-quvvatlashlariga o'rganib qoladi. Bunday bolalarni muloqotga, mehnat qilish, mehnat natijasida moddiy va ma'naviy manfaat ko'rishga o'rgatish bo'lajak pedagoglardan tizimli faoliyat va mashaqqatli mehnatni talab qiladi. Amaliy dars jarayonida kerakli natijaga erishish uchun talabalar o'qitishning faol usullarini qo'llashlari kerak bo'ladi. Masalan, hozirgi kunda talabalardan AKT dan foydalanish, manbalar bilan ishlash, dars uchun kerakli didaktik vositalarni tayyorlash tajribalarini egallashlari talab etilmoqda.

Ta'lim klasteri har bir talabalar ongida quyidagi g'oyalar, vazifalarning mohiyatini singdirishga sharoit yaratdi:

- uzluksiz ta'limda pedagogning innovatsion faoliyati muhimdir;
- kelajak o'qituvchisi imijini bugundan yaratish lozim;
- hozirgi kun o'quvchisini zerikarli dars bilan ta'limga qiziqtirib bo'lmaydi;
- interfaol usullarni o'quv-amaliy laboratoriya jarayonida qo'llanilishi talabalarni innovatsion faoliyatga samarali tayyorlash omilidir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maxsus ta'lim talabalarining kasbiy faoliyatga tayyor bo'lishi yoki shu yo'nalishda faoliyat olib borishi:

- nogiron o'quvchilarning ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishida zarur ko'nikma va malakalarini rivojlantira oladigan, ularni kelajakka yo'naltira oladigan;
- o'quvchilarni jamiyatga foydasi tegadigan, o'z extijojarini o'zgaga mute



bo'lmisdan qondira oladigan mustaqil shaxs sifatida tayyorlay oladigan;

– ta'limni o'quvchilarning yoshi va ruxiy xususiyatlari, cheklangan imkoniyatlariga mos va xos usullar yordamida takomillashtira oladigan;

– nogiron bolalarni jamiyatda yuz berishi mumkin bo'lgan ekstremal vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga, o'zgalarga doim murosali bo'lishga, barkamol shaxs, komil inson etib shakllanishida o'z mavqei va ma'suliyatini xis qiladigan zamonaviy, yangiliklarga moyil va moslashuvchan mutaxassis sifatida tayyorlashga sharoit yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirova F.U. “Raqqamli pedagogika”-istiqbol bugundan boshlanadi: imkoniyatlar, stereotiplar, kelgusi rejalar”. <https://lib.cspi.uz/maqolalar/2064-raamli-pedagogika-istibol-bugundan-boshlanadi-imkonijatlal-sterotiplar-kelgusi-rezhalar.html>.

2. F.U. Kodirova, SZ kizi Matupaeva, FR Teshaboeva Methodical cluster-an innovative mechanism to increase the efficiency of general secondary and inclusive education. //http://www.idpublications.org/wp-content/uploads/2020/08/.

3. F.U. Kodirova . Modern Approaches to Preparing Disabled Children for Social Life in Uzbekistan.//http://ijpsat.es/index.php/ijpsat/article/view/.



UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIDA BOLALARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA YO'NALTIRISH

G.A.BERDALIYEVA,

Sirdaryo VXTXQTMOHM dots.v.b. (PhD)

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni mustaqil fikrlashga yo'naltirishda qo'llaniladigan og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlarning barchasida u yoki bu darajada ishtirok etuvchi metodlarning barchasi mazmunini belgilovchi didaktik ashyo savollar hisoblanadi. Mazkur maqola bevosita uzluksiz ta'lim jarayonida bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda savollar jamlanmasidan foydalanish masalalariga bag'ishlanadi.

Tayanch so'zlar: uzluksiz ta'lim, maktabgacha yoshdagi bolalar, ta'lim-tarbiya, savollar, mustaqil fikrlash, innovatsion usullar, murakkab savollar, nutq o'stirish.

Во всех устных, наглядных и практических методах, используемых для направления детей к самостоятельному мышлению в дошкольном образовании, используются вопросы дидактического материала, которые в той или иной степени определяют содержание всех задействованных методов. В данной статье основное внимание уделяется использованию набора вопросов при обучении детей самостоятельному мышлению в процессе непрерывного обучения.

Ключевые слова: непрерывное образование, дошкольники, образование, вопросы, самостоятельное мышление, инновационные методы, комплексные вопросы, развитие речи.

In all oral, visual and practical methods used to guide children to independent thinking in preschool education, questions of didactic material are used, which, to one degree or another, determine the content of all methods involved. This article focuses on the use of a set of questions in teaching children to think independently in lifelong learning.

Key words: continuing education, preschoolers, education, questions, independent thinking, innovative methods, complex issues, speech development.

Jahonda maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasi, ularning fikrlash jarayonini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Janubiy Koreya, Fransiya, Yaponiya, Germaniya kabi taraqqiy etgan davlatlar tajribasida maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning jismoniy rivojlanishi bilan bir qatorda, tafakkur erkinligi, mustaqil fikrlashni shakllantirishga jiddiy yondashadilar. Bu, o'z navbatida, maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama shakllanishida muhim ahamiyat kasb etuvchi mustaqil fikrlash jarayonini rivojlantirishga xizmat qiladigan innovatsion usullarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish; bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash kabi jahon miqyosidagi ilg'or tajribalarni omallashtirish zaruratini vujudga keltirmoqda.

Savollar bolalarni mustaqil fikrlashga yo'naltiruvchi evristik, taqqoslash-qiyoqlash, tadqiqot, induktiv, deduktiv metodlarning ham asosiy vositasi



hisoblanadi. Murabbiy-pedagogning har qanday savoli, u ritorik bo'ladimi yoki bolalardan bevosita javob talab qiladimi, tarbiyalanuvchining aqliy faolligini oshiradi. Savollar ritorik tarzda qo'llanilganda ularning ko'magida o'rganilayotgan ob'ektning muhim jihatlariga urg'u berish taqozo etiladi. Ritorik savollar mana shu muhimni yaxshiroq ko'rishga va xayolan avval o'rganilganlari bilan yangi o'zlashtirilayotgan bilimlar orasidagi aloqani tiklashga imkon beradi va shu tarzda keyingi ma'lumotlarni diqqat bilan chuqurroq egallashga e'tibor qaratiladi.

Mashg'ulotlar davomida tarbiyachi tomonidan tarbiyalanuvchilar ishtirokini talab qiladigan savollar o'rta tashlanmasa, ularning mavzuga ijodiy yondashishlariga erishib bo'lmaydi. Agar tarbiyachi ritorik savollar bilan birga javob talab qiladigan savollarni qo'llasa, ritorik savol, bolalarning aqlini zo'riqtirib, e'tiborini kuchaytira borib, ularni nisbatan kuchliroq aqliy faoliyat – mustaqil fikrlash asosida umumlashmalar qilishga, xulosalar chiqarishga tayyorlaydi. Javob talab qilinadigan savollar esa bolada zaruriy dalillarni aniqlab, isbotlab berish bilan birga o'z mulohazalarini mustaqil ravishda bayon etish ko'nikmasini tarbiyalab boradi.

Tarbiyalanuvchilar ularning oldiga mustaqil ravishda mulohaza yuritish va baholash talab qilinadigan savollar qo'yilganda faollashadi. Masalaning bunday echimiga izchil va uncha murakkab bo'lmagan muhokamalar bilan erishiladi. Demak, asosiy masala muhokamasida bolalarga ma'lum talablar qo'yadigan har qanday qo'shimcha savol ham ularning aqliy faoliyatini tezlashtiradi. Tarbiyalanuvchilarni u yoki bu dalillarni to'ldirishga yoki tuzatishga yo'naltiradigan savollar, albatta, ularning mustaqil fikrlashini ta'minlamaydi. Bu masala bola o'zlashtirayotgan yangi bilimlarning o'ziga xos jihatlarini ochishga yo'naltirilgan, aqliy zo'riqlash talab qilinadigan qo'shimcha savollar berish orqali hal etiladi.

Bolalar, odatda, biror hodisani xotirlashga qaratilgan savollarga engil va erkin javob beradilar, chunki bu xotiraning hisobidan bajariladi. Bolalarda esa xotira juda kuchli. Lekin ularning oldiga nisbatan murakkab, mustaqil munosabat talab qilinadigan savollar qo'yilganda esa ma'lum qiyinchilik his qilinadi. Bu qiyinchilik masalani hal etishning dastlabki bosqichida kuzatiladi. Keyinchalik, tarbiyachining ko'magida bunday vaziyatlarni o'zlaricha hal etadigan bo'lishadi. Demak, murakkab o'quv topshiriqlarini qo'yish bolani muvozanatdan chiqaradi. Tafakkuri va xotirasini faol ishlashga undaydi. Savollar bilan bolani murakkab vaziyatga solib qo'yishdan u yoki bu yangilikni kashf etish yoxud topish nazarda tutilganda foydalaniladi. Tarbiyachining savoliga mustaqil ravishda javob izlab topish jarayonida bolalar ma'lum murakkabliklarni boshdan kechirishadi, bir qadar qiynalishadi.

Tarbiyalanuvchilarining mustaqil fikrlashini uyg'otishga intilgan tarbiyachi savollarni mavzuga mos tarzda shakllantiradi. SHuning o'zi bolaning aqliy faoliyati uchun qulay sharoit yaratadi. Tarbiyachi tarbiyalanuvchini kichik yoshidan tayyor



qoliplardan qochishga, materialni shunchaki qayta bayon qilmay, qarashlarini ma'lum tayanch fikr atrofiga umumlashtirishga, undan javob uchun zarurini ajratib olishga, fikrini qolipdagi siyqa iboralar orqali emas, o'z so'zlari bilan bayon qilishga o'rgatib boradi. Bunday faoliyat bolalardan ma'lum hodisaning sabablarini tushuntirish, fikrlarini qat'iy asoslarga qurish, voqea-hodisalarni xolis baholash, kuzatganlarini umumlashtirishni talab qiladi. Bunday vaziyatlarda qo'shimcha savollar juda qo'l keladi.

Qo'shimcha savollarning kuchi shundaki, ular avval o'rganilgan bilimlarga tayanadi, bolalarning aqliy faoliyatini ma'lum darajada engillashtiradi. Bu o'rinda avval o'zlashtirganlarni takrorlash emas, balki o'rganilgan bilimdan yangi yo'nalishda foydalanish talab qilinadi. Bu bolalarni yangilik qidirishga, noma'lumni aniqlashga yo'naltiradi. O'zining bilganlaridan unumli foydalana bilish va umumlashmalar talab qiluvchi savollarga javob berish tarbiyalanuvchilarni aqlini ishlatishga majbur qiladi.

Bolaning bilmaganini bilishga, yangi ma'lumot olishga qaratilgan savollari uning dunyoqarashini kengaytiradi, bilimlarini boyitadi. Bunday savollar, ko'pincha, o'z ortidan faol harakatlarni etkab keladi. Yangi axborot olgan bola faol amaliy ishga o'tadi, javobda ko'rsatilganlarga o'zicha murojaat qiladi. Bolalarni bir-biriga o'xshamagan savollar tuzishga, o'z fikrlarini savol shaklida to'g'ri shakllantirishga yo'naltirish ham ularni mustaqil fikrlashga yo'naltirishning bir ko'rinishidir. Bolalarning savollari o'quv materialidagi asosiy g'oyalar, yangi bilimlar va muammolar qay darajada chuqur o'zlashtirilganligini ham ko'rsatadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida rasmlar asosida o'ziga xos, yo'naltiruvchi savol va topshiriqlar tuzish ham bolalarga materialni ko'z bilan ko'rish orqali chuqurroq o'zlashtirish imkonini beradi. Bunday topshiriqlar hamisha muvaffaqiyatli bajariladi, muvaffaqiyat esa o'z navbatida keyingi bilimlarni egallash omili bo'ladi.

Tarbiyachi savollarining o'rganilgan shakllardan boshqacha, o'zgargan holda qo'yilishi ham tafakkur mustaqilligining shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi. Bunday vaziyatlarda bolaning tafakkuri mustaqil tarzda ishlay boshlaydi. Negaki, uning oldiga javob berishni talab qiladigan vazifa qo'yilgan. O'z navbatida, bu usul fikrlarni o'z so'zlari bilan ifodalashni ham talab qiladi. Bu holat nafaqat ta'limiy, balki tarbiyaviy ahamiyat ham kasb etadi. Asosiy savollarga berilgan javoblar hamisha ham etarli darajada to'liq va o'zlashtirilayotgan hodisaning barcha jihatlarini aniq, tizimli, umumlashgan tarzda qamrab olmasligi mumkin. Shunda qo'shimcha savollar kerak bo'ladi. Ular eslashga qaratilgan, o'ylashga undaydigan savollar bo'lib, ma'lum maqsad uchun xizmat qiladi va shuning uchun aniq qo'yiladi. Eslashga qaratilgan savollar bolaning javobini ma'lum izchillikda, o'rganilgan materialni to'liq va aniq ifodalash maqsadida bo'lishini ta'minlaydi. Bunday qo'shimcha savollarning



qo'yilishi har qanday holatda aqliy faollikni oshiradi. Bu faollik bolalarning qo'yilgan savolga javob berishga intilishida ko'rinadi. Qo'shimcha savollar tarbiyalanuvchilarni materialning unutilib qoldirilgan jihatlarini tiklashga yoki xatoliklarni to'g'rilashga yo'naltirilganda ahamiyat kasb etadi. Ammo bu savollarning bola tafakkuri mustaqilligini ta'minlashdagi roli cheklangan bo'ladi.

O'qituvchi-tarbiyachi bolalarga yordam berar ekan, ular ta'lim jarayonining har bir bosqichida mustaqil ishlash tajribasini o'rganib borishlari lozimligini nazardan qochirmagani ma'qul. Agar bu talab nomiga bajarilsa, bola o'zi hal etish tajribasiga ega bo'lmagan holda qiyin muammo bilan uzoq vaqt yolg'iz qolsa, uning qobiliyati va tafakkurining mustaqilligi o'sishiga putur etadi. SHuningdek, o'qituvchi-tarbiyachining qiyinchilikni tamomila bartaraf qiladigan yordami ham tarbiyalanuvchining tafakkur mustaqilligi rivojiga halaqit berishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim muassasalari nutq o'stirish va badiiy adabiyot bilan tanishtirish mashg'ulotlarida tarbiyalanuvchilarni mustaqil mulohaza yuritishga yo'naltirishda: og'zaki, ko'rgazmali, amaliy metodlar bilan birga evristik, tadqiqot, taqqoslash-qiyoslash, induktiv, deduktiv metodlardan; ularning zahirida aks etgan: savollar berish, namoyish etish, ko'rgazmali, tajriba, amaliy, aqliy harakatlar, masalani o'rganish, topshiriq berish, yo'l-yo'riq ko'rsatish, xulosa chiqarish singari bir qator usullardan o'rni bilan foydalanish, bu jarayonda samaradorlikka erishish garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хусанбоева Қ. Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омили. – Т.: Алишер Навоий номидаги Миллий кутубхона нашриёти, 2009. – 368 б
2. Суюнов Ҳ. Адабиёт дарсларида ўқувчиларни савол-топшириқлар устида ишлашга ўргатиш усуллари. Пед. фан. номзоди ... дисс. автореф. – Т., 2005. –24 б.
3. Матчанов С. Умумтаълим тизимида адабиётдан мустақил ишларни ташкил этиш. Пед. фан. доктори ... дисс. автореф. –Т., 1998. –38 б.
4. Маҳкамова М.Р. Бўлажак тарбиячиларнинг педагогик мулоқот маданиятини шакллантириш. Пед. фан. номз....дисс. автореф.–Т.: 2002.–22
5. Миндлина Т. Я. Дошкольное воспитание во Франции. –Москва: Педагогика, 1984. –64 с.



UZLUKSIZ TA'LIM VOSITASIDA EKOLOGIK MUAMMOLARNI HAL ETISH TEXNOLOGIYASI

X.N.QO'NG'IROV,

Navoiy DPI b.f.n, katta o'qituvchisi

A.F.SAYFULLAYEV,

Navoiy DPI o'qituvchisi

Maqolada global ekologik muammolar va ularning insoniyatga salbiy ta'siri, ulardan himoyalashga oid g'oyalar bayon etilgan. Maqola o'qituvchilarga metodik tavsiya sifatida taqdim etilmoqda.

Tayanch so'z va iboralar: inson, atrof-muhit, ekologiya, ozon qatlami, parnik effekti, demografik muammolar, uzluksiz ta'lim.

In article global environmental problems their emergence and negative influences to mankind are considered, ideas of protection against negative consequences menacing to mankind are also given. Article is intended as the methodical recommendation for teachers.

Key words: person, environment, relation, global, ecology, universal, civilization, all-planetary, ozone, greenhouse effect, demographic, continuous and successive.

В статье рассматриваются глобальные экологические проблемы, их появление и отрицательное влияние на человечество, изложены идеи защиты от негативных последствий, угрожающих человечеству. Статья предназначена для учителей в качестве методической рекомендации.

Ключевые слова: человек, окружающая среда, отношение, глобальный, экология, общемировой, цивилизация, общепланетарный, озон, парниковый эффект, демографический, непрерывное образование.

XXI asr global ekologik muammolar asri hisoblanadi. Global ekologik muammolar butun insoniyatning hayotini xavf ostida qoldirmoqda. Shu sababdan ekologik muammolarni bilish, ularning salbiy oqibatlaridan himoyalash bashariyat uchun dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi. Bu muammoni uzluksiz ta'lim-tarbiya jarayonida ijobiy hal etish uchun uzluksiz ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotganlar quyidagilarni yaxshi bilishlari zarur.

Hozirgi vaqtda butun insoniyatni tashvishlantirib turgan umumbashariy global ekologik muammolar tarkibida quyidagilarni qayd etish mumkin:

- insoniyatning xaddan ortiq ko'payib ketishi – demografik muammo;
- er yuzidagi ko'pgina mamlakatlar aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlashda taqchillikning kuzatilayotganligi;
- insoniyatni xomashyo va zahiralalar bilan ta'minlash muammosi;
- jamiyat va atrof-muhit o'rtasidagi munosabatlarda vujudga kelgan ekologik muammolar;
- dunyo okeani zahiralalaridan va kosmik fazodan foydalanish borasidagi muammolar;



turli xil xavfli hodisalarning sodir bo'lishi va ulardan himoyalaniish;
iqlim o'zgarishlari;
suv va erning ifloslanishi;
energiya qahatchiligi;
chiqindilarning ko'payishi.

Bu umumbashariy muammolarni faqat uzluksiz ta'lim vositasida hal etish mumkin.

Biz tadqiqot jarayonida maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilari, maktab, litsey va kollej o'quvchilariga ekologik ta'lim berish muammosini hal etishga harakat qildik. Quyida qayd etilgan mashg'ulot bo'yicha dars ta'lim texnologiyasi va texnologik xaritasini namuna sifatida taqdim etamiz.

Yuqori sinf o'qituvchilari darsga tayyorgarlik ko'rishda darsning ta'lim texnologiyasi hamda texnologik xaritasini ishlab chiqishlari zarur.

Fikrimizni davom ettirib, IX sinfda integratsiyalashgan "XXI asrning global ekologik muammolari va O'zbekistonning kelajagi" mavzusi bo'yicha dars ta'lim texnologiyasi va texnologik xaritasini keltiramiz (1-2-shakllar):

1-shakl

Darsning ta'lim texnologiyasi

Talabalar soni: 30 nafar	Vaqt: 45 daqiqa
Mavzu rejası	1. Global ekologik muammolar tushunchasi, ularning mazmuni, belgilari va turlari. 2. Ozon qatlamining emirilishi va parnik effekti – global ekologik muammo sifatida. 3. O'zbekiston Respublikasining global ekologik muammolar echimiga qo'shayotgan hissasi.
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyatining natijalari
Global ekologik muammolar tushunchasi, ularning mazmuni, belgilari va turlarini yoritib beradi	Global ekologik muammolar tushunchasi, ularning mazmuni, mohiyati, belgilari va turlarini sanab beradi.
Ozon qatlamining emirilishi, parnik effekti global ekologik muammo ekanligini izohlab beradi	Ozon qatlamining emirilishi, parnik effekti global ekologik muammo ekanligini tahlil qilib beradi.
O'zbekiston Respublikasining global ekologik muammolar echimiga qo'shayotgan hissasi haqida to'liq ma'lumot beradi	O'zbekiston Respublikasining global ekologik muammolar echimiga qo'shayotgan hissasi aytib bera oladi.
O'qitish usullari	Ma'ruza, Sinkveyn, Aqliy hujum, SVOT- tahlil.
O'quv mashg'ulotining shakli	Sinkveyn, SVOT -tahlil texnikasidan foydalanilgan informatsion ko'rgazmali ma'ruza darsi, savol-javob.
O'qitish vositalari	Ma'ruza matnlari tadqiqot uchun varaqalar, marker kabilar.
O'qitish shakllari	Frontal, jamoaviy va kichik guruhlarda ishlash.
O'qitish shartlari	Kerakli jihozlar bilan ta'minlangan sinf xonasi.
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, "5" balli reyting tizimi asosida baholash.



2-shakl

Darsning texnologik xaritasi

Bosqichlar	O'qituvchi	Talaba
I bosqich. O'quv mashg'ulotga kirish (5 daqiqa)	1.1. O'quv mashg'ulotini o'tkazish uchun o'quvchilarning tayyorgar -ligini nazoratdan o'tkazadi. Davomatni aniqlaydi.	Darsga tayyorgarlik ko'radi.
	1.2. O'tilgan mavzu bo'yicha o'quvchilar bilimining nazo-ratini o'tkazadi.	Uyga berilgan vazifani taqdim qiladi.
	1.3. O'quvchilarning javoblarini umumlashtirib bilimini baholaydi.	Tinglaydi, savol beradi.
II bosqich. Asosiy (35 daqiqa)	2.1. Y ang'i mavzuni e'lon qiladi. Y ang'i mavzu rejasiga izoh beradi. Har bir o'quvchiga mavzu bo'yicha "Aqliy hujum" usuli orqali ma'lum tushunchalarni aytishni taklif qiladi. Barcha aytilganlarni doskaga yozadi, ushbu ish dars oxirida tugatilishini aytadi.	Tinglaydi, yozib oladi, savol beradi.
	2.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni slaydlar ko'rsatish va ularni sharhlash orqali tushuntirib beradi (1 -ilova). O'quvchilarni faollashtirish maqsadida ularga savollar beradi: 1. Global muammo deganda nimani tushunasiz? 2. Global ekologik muammolar deganda nimani tushunasiz? 3. Ularning qanday turlarini bilasiz? 4. Global ekologik muammolar inson faoliyatiga qanday ta'sir etadi. 5. Ekologik muammolardan himo yalanish mumkinmi?	Tinglaydi, yozib oladi, muhokama qiladi, aniqlashtiradi, savollar beradi.
	2.3. Mavzuning birinchi, ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi savollarini slaydlar yordamida yoritib beradi (1 -ilova), xulosalar qiladi, asosiy jihatlariga e'tiborni qaratadi, ma'lumotlarni daftar -ga yozib qo'yishni aytadi.	Tinglaydi, yozib oladi, fikrlaydi, mulohaza yuritadi, savollar beradi.
	2.4. Vazifa beradi: ekologik muammolar; oziq-ovqat, demo -grafik muammolar, energiya, fan -texnika rivoji, xalqaro hamkorlik z arurati kabi atamalar haqida o'ylang va juftlikda muhokama qiling.	O'qiydi, tahlil qiladi, xulosa chiqaradi.
	2.5. Javoblar tinglab bo'lingach, slaydlar yordamida o'quv mashg'ulotining o'rganilmagan savollari yoritiladi.	Tinglaydi, yozadi.
	2.6. Bajirilgan ishni tahlil qiladi. Vujudga kelgan savollar va qarama -qarshiliklarni ajrata-di, fikrlar va fikrlar kurashini rag'batlantiradi. SHu tariqa savollar umumlashtiriladi.	Tinglaydi, savollarga javob beradi, so'raydi, mulohaza yuritadi.
	2.7. Mavzu bo'yicha doskaga yozilgan tayanch iboralar ro'yxatiga qaytishni taklif	Har bir tayanch tushuncha va iboralariga diqqatini jalb qiladi.



Mamlakatimiz ekologik muammolarni umuminsoniyat kuchi bilan hal qilish zaruriyatini his etgan holda mavjud xalqaro shartnomalarga qo'shilmoqda. Jumladan, mustaqillik yillarida O'zbekiston quyidagi xalqaro shartnomaga qo'shildi:

1. Muhitning o'zgarishi haqidagi konvensiya (20.06.93).
2. Co'llanishga qarshi kurash bo'yicha konvensiya (31.05.95).
3. Biologik xilma-xillik haqidagi konvensiya (06.05.95).
4. Jahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish haqidagi konvensiya (22.12.95).
5. Yo'qolish xavfi ostida bo'lgan yovvoyi fauna va flora turlari bilan xalqaro savdo qilish haqidagi konvensiya (01.07.97);
6. Ko'chib yuruvchi yovvoyi hayvonlarni saqlash bo'yicha konvensiya (01.05.98);
7. Ozon qatlamini buzuvchi moddalar haqida Monreal protokoliga London qo'shimchasi (01.05.98) va boshq.

Yuqorida keltirilgan zamonaviy texnologiyalar asosida dars o'tish hamda o'quvchilarga ekologik muammolar to'g'risida uzluksiz ta'lim berish orqali ularda barqaror ekologik madaniyat rivojlanadi. Bu esa o'quvchilarda ekologik muammolarni bartaraf etishga qaratilgan barqaror motivatsiyani tarkib toptirishga xizmat qiladi. Shu asosda ularning tabiat, atrof-muhitga bo'lgan munosabatlari ijobiy tomonga yo'naltiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. И.А.Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т.: “Ўзбекистон”, 2010. – 173 б.
2. Ўзбекистон Республикасининг Атроф муҳитни муҳофаза қилиш Миллий ҳаракат режаси. - Т.: “Адолат”, 1998. - 81 б.
3. Тўхтаев А., Хамидов А. Экология асослари ва табиатни муҳофаза қилиш. - Тошкент: Ўқитувчи, 1994. -159 б.



Ekologiya darslarida tog' oldi yaylov o'simliklari qoplaminig o'rganilishi

O' .E.XO'JANAZAROV,
TDPU, b.f.n., dotsent,

Maqola ekologiya darslarida Qashqadaryo havzasi tog' va tog' oldi hududlarida tarqalgan noyob o'simlik turlarining ekologik holati, ekologik-morfologik ko'rsatkichlari, chorva mollarining rejasiz boqilishi va dorivor o'simliklarni vegetatsion jarayonni e'tiborga olmasdan yig'ib olish holatlarini, shuningdek turlarning ekologik amplitudasi ancha torayib ketishi haqidagi ma'lumotlarni talabalarda bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish masalalariga qaratiladi.

Tayanch so'zlar: yaylov, flora, fitomeliiorant, mezofit, kserofit, dominant, cho'llanish, suksessiya, ekologik amplituda.

Статья дает студентам знания и навыки по экологическому состоянию, эколого-морфологическим показателям редких видов растений в горных и предгорных районах Кашкадарьи, внеплановому выпасу скота и заготовке лекарственных растений без учета вегетативного процесса, а также а также экологическая амплитуда видов, проблемы развития.

Ключевые слова: пастбище, флора, фитомелиiorант, мезофит, ксерофит, доминанта, опустынивание, сукцессия, экологическая амплитуда.

The article gives students knowledge and skills on the ecological state, ecological and morphological indicators of rare plant species in the mountainous and foothill regions of Kashkadarya, unscheduled cattle grazing and harvesting medicinal plants without taking into account the vegetative process, as well as the ecological range of species, development problems.

Key words: pasture, flora, phytomeliiorant, mesophyte, xerophyte, dominant, desertification, succession, ecological amplitude.

Ta'lim jarayonida talabalarga yaylov o'simliklari haqida ma'lumot orasida Qashqadaryo havzalari atrofidagi yaylov o'simliklari, ularning tarqalishi va rivojlanish masalalariga e'tibor qaratiladi. hunki aynan shu geografik joylarda yaylov o'simliklarining chorvachilikni rivojlanishidagi ahamiyati juda katta ekanligini haqida ma'lumotlar berib boriladi.

Talabalarga bu borada yurtimizda XX asrning 50-yillarida yaylovlarni yaxshilash bo'yicha faol tadqiqotlar qimmatbaho em-xashak o'simliklarini ekish hisobiga olib borilganligi, tadqiqot natijalari Markaziy Osiyo va Janubiy Qozog'istonning turli tabiiy mintaqalarida olib borilgan va bu izlanishlarda bir necha olimlarning ishlari misol sifatida ko'rsatilishi maqsadga muvofiq. Bu tadqiqotlarda yuqori hosilli agrofitotsenozlarni yaratishning ilmiy asoslari



yaratilgan va amalda qo'llanilgan. Bu holatda asosiy e'tibor fitomeliorantlarning biologik xususiyatlari va tuproq omillariga qaratilgan.

Ekologiyadan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda tadqiqotlar natijasida olib borilgan ilmiy izlanishlar davomida o'simliklarni tarqalishi ekologo-morfologik uslubda tahlil qilinishi, bunda, asosan ekomorflar (yashash muhitiga ko'ra hayot shakli) ning turli ekotoplar (makon) ga moslanishi qayd etiladi. SHuningdek, asosiy etakchi omil (ko'rsatkich) – namlik bo'lib, uning xarakteri esa: balandlik bosqichlari, er yuzasining tuzilishi (relefi), ekspozitsiya va tog' yon bag'irlari, tuproq turi va uning mexanik tarkibi kabilarga bog'liq ekanligini aniq natijalar bilan tushuntiriladi. Quyida bir necha o'simliklarni to'plash, ekologik jihatdan to'dalashda, asosan turning namlikka munosabati hisobga olinadi. Ammo ayrim evritop (har xil sharoyitga moslashgan turlar) o'simliklar bundan mustasno. O'rganilgan hudud florasi tahlili natijasida uning tarkibida dominant ekologo-morfologik guruhlar kserofit va mezofitlar ekanligi aniqlandi. Ulardan bug'doyiq – *Agropyron trichophorum*, shuvoq turlari – *Artemisia turanica*, *A. tenuisecta*, yantoq turlari – *Alhagi pseudalhagi*, *A. canescens*, oqquray – *Psoralea druppacea*, kakra – *Sentaura squarossa* va boshqalar keng tarqalgan.

Tog'oldi hududlarida mezofitlar - o'rtacha namlik va o'rtacha haroratga ko'proq moslashgan o'simlik turlari tarqalgan bo'lib, ularning ko'pchiligini efemer va efemeriodlar tashkil qiladi. Ular, asosan adirlarda keng tarqalib, bahorda asosiy em-xashak bazasi bo'lib hisoblanadi. Bulardan keng tarqalganlari: *Carex pachistilis*, *Poa bulbosa*, *Vulpia meros*, *Bromus oxydon*, *Taeniatum crinitum*, *Cryptospora falcate*, *Stigosella scorpioides*, *Romeria refracta* va boshqalar. Bu ekologik guruhning ayrimlari soy, daryo, ariqlar sohillarida keng tarqalgan bo'lib, bahor yoz, kuz fasllarida ham vegetatsiyasi davom etadi. *Trifolium repens*, *Equisetum arvense*, *E. ramosissimum*, *Poa pratensis* va boshqalar. Bularning ko'pchiligi boreal florasiga xos bo'lib hisoblanadi, ular respublikamizning barcha hududlarida keng tarqalib uncha keng maydonni egallamaydi.

Gigromezofitlar nam joylarda ko'proq uchrab, ulardan qamish - *Phragmites australis*, qorabosh - *Carex stenophulloides*, salom alaykum - *Cyperus rotundus* va boshqalar aholi punktlari yaqinida tarqalgan. Xududning pastki adir hududlarida sho'rxok va sho'rtob tuproqlarda galofit vakillari ham o'sadi. Seta - *Salsola scleranta*, sog'on - *Girgensohnia oppositiflora*, quyonjun - *Halocharis hispida* va boshqalar adir yaylovlaridagi sho'rlangan tuproqli jamoalar tarkibida uchraydi. Parazit (tekinxo'r) turlar adirda juda kam uchrab, ulardan zarpechak - *Cuscuta approximata* va shumgiyoh - *Orobancha aegyptiaca* turlari poliz ekinlari, bog'zor va ekinzorlar orasida uchraydi.



Ilmiy izlanishlar natijasida *Astragalus terrae-rubrae* Butkov, *A. butkovii* Popov, *Cicer incanum* Korotkova, *Cousinia allolepis* Tscherneva et Vved., *Cousinia campyloraphis* Tscherneva, *Cousinia praestans* Tscherneva et Vved., *Tanacetopsis botschantzevii* (Kovalevsk.) Kovalevsk., *Jurinea gracilis* Iljin, *Jurinea asperifolia* Iljin, *Oxytropis tyttantha* Gontsch., *Koelpinia leiocarpa* Popov, *Allium majus* Vved., *Iris svetlanae* (Vved.) F. O. Khass., *Hedysarum bucharicum* B. Fedtsch kabi noyob turlarning Qashqadaryo havzasining yuqori qismi, jumladan Toshqurgʻon atrofida kam uchrashligi aniqlandi. Shuningdek, *Mentha arvensis*, *Ziziphora clinopodioides*, *Melissa officinalis*, *Rubus caesius*, *Trichodesma incanum* va *Bunium persicum* turlaridagi vitamin S miqdori ham aniqlandi.

Chorva mollarining rejasiz boqilishi va dorivor oʻsimliklarni vegetatsion jarayonni eʼtiborga olmasdan yigʻib olish holatlari bu turlarning ekologik amplitudasi ancha torayib ketishiga olib keladi. Ayniqsa, Zarafshon togʻ tizmasi va Kitob geologik qoʻriqxonasi chegarasida monotip endemik zarafshon turkumiga xos boʻlgan *Komarovia* Korovin (*K. anisosperma* Korovin) topilib, antropogen omillarning taʼsir jarayoni oshganligi kuzatildi. Agarda tegishli muhofaza choralari koʻrilmasa, “Qizil kitob” dagi oʻsimlik turlari sonining yanada oshishiga olib keladi.

Dunyoning rivojlangan davlatlari olimlari, jumladan, amerikalik olimlar H. Donella, L. Dennis, J. Randers va V. Villiam (1972) kabilar yaylovlardagi oʻsimlik jamoalaridagi oʻzgarishlar, suksessiya hodisalarini oʻrganishgan. Angliyalik olimlar S. Villiam va M. Rogerlar (1998) ekologik dinamikani adir mintaqasida tahlil qilishgan. M. Villiam va V. Konovalov (2003) kabi amerikalik olimlar Oʻrta Osiyodagi harorat va namlik holatlarini oʻrganib, oʻsimliklarning vegetatsion jarayoni boʻyicha ilmiy tahlillar berishgan.

Uzoq muddatli revegetatsion suksessiya jarayonida ishtirok etadigan yaylovlar uchun hosildorlikni oshirish masalasi va ekiladigan oʻsimliklar ruyxati xorij olimlari tomonidan ham oʻrganilib kelinmoqda. Jumladan, J. Lankaster va boshqalar (2014) Albertya adirlari oʻsimliklarining urugʻlarini mintaqalar boʻyicha ekish masalasi ham karta orqali oʻrganilgan. SHuningdek, Albertyada uzoq muddatli chorva mollarini boqish natijasida paydo boʻladigan ekologik muammolar bir qator olimlar H. Davves (2012), P. Desserd (2011), J. Lankaster (2012), J. Vusare (2015) kabi olimlar tomonidan oʻrganilgan. Ular yaylov oʻsimliklarini ekologik tiklash yoʻllarini oʻrganib, togʻ oldi yaylovlari revegetatsion suksessiya jarayoniga katta eʼtibor qaratishgan.

Respublikamizda iqlim omillarining keskin oʻzgarishi va choʻllanish jarayoni davom etayotgan bir paytda togʻ oldi yaylovlari oʻsimliklari arealini saqlab qolish va tarixan tashkil topgan tabiiy muvozanatni buzmasdan rekultivatsiya jarayonlarini



olib borish davr talabidir. YUqorida sanab o'tilgan adabiyot ma'lumotlari va olingan natijlar o'rganilayotgan hududning hozirgi holatini baholashda yordam beradi. Holbuki, Qashqadaryo havzasi tog' oldi hududlaridagi floraning o'ziga xosligi va boyligi, em-xashakbopligi, foydaliligi, shifobaxshiligi, kamyobliligi, estetikligi va iqtisodiy tomonlama ahamiyatligi muhimdir.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, ekologiya darslarida talabalarning yaylov o'simliklarini o'rganish va ko'nikma hosil qilishida nafaqat Qashqadaryo havzalari atrofidagi o'simlik qoplami, balki ular misolida janubiy viloyatlar suv havzalari o'simliklarini, tarqalishi, rivojlanishi va qishloq xo'jaligidagi ahamiyati haqidagi bilim va ko'nikmalariga ega bo'lish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бурьгин В.А., Маркова Л. Е. Зимне вегетирующие растения Узбекистана. –Ташкент: Фан, 1975- С. 48-58.

2. Шамсутдинов З.Ш., Зотов А.А., Натиров А.К., Каминов Ю.Б. и др. Формирование полукустарничково-травянистых пастбищных агрофитоценозов на сильно сбитых природных кормовых угодьях в полупустынной зоне российского Прикаспия // Кормопроизводство. 2015. № 11. С. 10-16.

3. Шамсутдинов З.Ш. Биотехнология и опыт экологического восстановления биоразнообразия и кормовой производительности нарушенных пастбищных экосистем в аридных областях центральноазиатского региона // Степи Северной Евразии Материалы VII Международного симпозиума. 2015. С. 111-115.



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA O'QUVCHI-YOSHLARNI JISMONIY FAOLLIK VA SOG'LOM TURMUSH TARZIGA O'RGATISH

SH.N.IBODOVA,

*Abu ali Ibn Sino nomidagi jamoat
salomatligi texnikumi kasbiy fan o'qituvchisi*

Uzluksiz ta'lim-tarbiyani tashkil etish hozirgi kunning dolzarb talabi hisoblanadi. Ta'lim berish jarayonida o'quvchi-yoshlarning har tomonlama barkamol bo'lishi uchun, nafaqat o'quv predmet lari, balki soplom turmush tarzini tag'ri tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan materiallarni integrativ tashkil etish maqsadga muvofiq. Mazkur maqola bevosita o'quvchi-yoshlarning molom turmush tarziga yo'naltirish, sog'liq uchun zarayali illatlarfoz kechishga yo'naltirish masalalariga bag'ishlangan.

Tayanch so'z va iboralar: jismoniy tarbiya va sport, jismoniy mashqlar, sog'lom turmush tarzi, turmush madaniyati, ichkilik va chekishning salomatlikka zarari, salomatlik sirlari, o'quvchilar, yoshlar, talim muassasalari.

Организация непрерывного образования - насущная потребность сегодняшнего дня. Чтобы обеспечить полноценное развитие студентов в учебном процессе, желательно интегрировать не только предметы, но и материалы, связанные с правильной организацией здорового образа жизни. Данная статья непосредственно посвящена вопросам направления студентов к здоровому образу жизни, чтобы избавиться от вредного воздействия на здоровье.

Ключевые слова: физическая культура и спорт, упражнения, здоровый образ жизни, образ жизни, вред алкоголя и курения для здоровья, секреты здоровья, студенты, молодежь, образовательные учреждения.

The organization of continuing education is an urgent need today. To ensure the full development of students in the educational process, it is desirable to integrate not only subjects, but also materials related to the correct organization of a healthy lifestyle. This article is directly devoted to the issues of guiding students to a healthy lifestyle in order to get rid of the harmful effects on health.

Key words: physical culture and sports, exercise, healthy lifestyle, lifestyle, harm of alcohol and smoking to health, health secrets, students, youth, educational institutions.

Yoshlar muntazam ravishda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish asnosida, o'zlarida chaqqonlik, epchillik, abjirlik, tezlik, kuchlilik, egiluvchanlik, muvozanatni saqlay olish, chidamlilik kabi sifatlarni shakllantirib boradilar. Muntazam jismoniy mashqlar bilan shug'ullanmaydigan kishilar tez kasallikka chalinadilar.

Kam harakatlanish, harakat faoliyatini chegaralash organizmni etarli toza havo bilan ta'minlamasligiga, kislorod tanqisligiga olib keladi, jismoniy chiniqishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.



Ko'pgina kasalliklarning oldini olishda jismoniy mashqlar yoki oddiy jismoniy faollik muhim rol o'ynaydi. Yaponiya olimlari har bir kishi kuniga kamida 10 ming qadam yurishini jismoniy faollik mezonini hisoblaydilar.

Amerikalik kardiolog N.P. Uayt va rossiyalik akademik A. Myasnikov fikriga ko'ra, sog'lom odam bir kunda 10 km. piyoda yurishi lozim. Albatta, kishi birdaniga 10 km. piyoda yura olishi qiyin. Bunga kishi o'zini asta-sekin tayyorlashi lozim. Ilk mashg'ulotlarda nafas olish 2-3 qadamda, chiqarish esa 5-6 qadamda bo'lishi lozim. YUrish va yugurishda eng muhimi kishi gavdasini to'g'ri tutishidir. Bunday qilish ko'krak qafasi va o'pka faoliyatini yaxshilab, organizmning kislorod bilan etarlicha ta'minlanishiga olib keladi. Gavdani to'g'ri tutishni o'rganish uchun muskullar ishini yaxshilashga doir maxsus mashqlarni bajarib turish lozim.

Mutaxassislarning kuzatishlari shuni ko'rsatadiki, yurishni mashq qilish arterial bosimni pasaytiradi, bosh og'rig'i va aylanishining oldini oladi. Bosh suyagi ichidagi arterial bosimning oshishi kasalligini yurish bilan davolash qadimdan ma'lum. Piyoda yurish orqali muskullar, tananing barcha qismlariga tarqalib ketgan mayda tomirlar kengayadi. Qonning qayta taqsimlanishi oqibatida fiziologik surilish jarayoni yaxshilanib, bu esa qon bosimini normallashtiradi[1].

Yoshlarda sog'lom turmush tarzining shakllanishiga salbiy ta'sir qiluvchi omillardan biri kashandalikdir. Hozirgi vaqtda bu yoshlarning sigaretaga ruju qo'yayotganligida namoyon bo'lmoqda. Maxsus o'tkazilgan tekshirishlar ko'rsatadiki, chekish oqibatida qon tomirlari torayib, kislorod bilan ta'minlash qiyinlashadi, yurak zo'riqadi. Kundalik normal vazifalarni bajarganda chekish oqibatida yurak 15 ming marta ko'p zo'riqib ishlaydi. Kashandalarda 13 barobar yurak ishemiya kasalliklari ko'proq uchraydi. Har 100 ta yurak infarktidan 88 tasi kashandalarga to'g'ri keladi. Har kuni 20 dona sigareta chekadigan kishida bu kasallik 12 marta ko'p uchraydi. Miokard infarkt kasalligiga duchor bo'lganlarning har 10 tasidan 8 tasi kashandalardir[2].

Bu esa nerv hujayralari, yurak, jigar, tomirlarning kasallikka chalinishiga asosiy sabab bo'ladi. Oqibatda kishini tez qarishiga olib keladi. Har kim, har kuni 1-2 soat piyoda yurish, sayr qilish, yugurish, lijada yurish, basseynida cho'milish uchun vaqt ajrata oladi. Faqat buni kundalik turmushning ajralmas qismiga aylashtirish, organizmni shunga odatlashtirishdan erinmaslik kerak. Muntazam jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish nafaqat sog'lom turmush tarzini ta'minlaydi, balki kishi hayotiga tartib intizom, yurish turishida qat'iy rejim o'rnatishga ham asos bo'ladi. Faqat bu emas, kishidagi yalqovlik, ishyoqmaslik kabi salbiy xarakter xislatlarini engishga yordam beradi, o'z-o'ziga ishonchni mustahkamlab, mehnat unumdorligini oshiradi.

Yoshlarda sog'lom turmush tarzini tarbiyalashda shaxsiy va ijtimoiy gigiena ham muhimdir. Ta'kidlash lozimki, jismoniy mashqlarni muntazam amalga oshirishda sanitariya-gigiena sharoiti ham muhim hisoblanadi. Jismoniy



mashqlarni bajarishda quyidagi gigiena shartlariga rioya qilish lozim:

- a) har kungi jismoniy mashqlar toza havoda yoki shamollatilgan xonada bo'lishi;
- b) muskullarning torayishi, cho'zilishi, bo'shashi mashqlarini o'zgartirib turish;
- v) mashqlarning organizmga mos miqdori, oralig'i, tezligi, maromi va ritmiga

rioya qilish;

- g) 6-8 harakatni birdaniga 10-30 soniyalik to'xtalishdan keyin bajarish;
- d) jismoniy mashqlarni yuvinish yoki suvda cho'milish bilan yakunlash[3].

Sog'lom turmush tarzini ta'minlashda kishining kundalik yurish-turishi, xulq-atvori, rejimi muhim hisoblanadi. O'z navbatida bularning qaror topishida jismoniy tarbiya va sport muhim o'rin egallaydi. Ammo muntazam jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish odatini shakllantirishda yuqorida keltirilgan shart-sharoitlar bilan birga havo, suv, ovqatlanish, uyqu, shaxsiy gigiena ham muhim ahamiyatga ega. Bular jismoniy mashqlarni amalga oshirishning ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlarini belgilaydi.

Gigiena sohasida faoliyat ko'rsatayotgan olimlarning ta'kidlashlaricha organizmning sog'lom, faol o'z funksiyasini bajarishida havoning tozaligi katta ahamiyatga ega.

To'g'ri ovqatlanish organizmning me'yoriy faoliyat ko'rsatishining asosidir. Tirik organizmda doimo organik moddalar sarflanishi sodir bo'ladi. Aqliy mehnat yoki muskul harakatlari paytida organizmdagi organik moddalarning parchalanishi tezlashib, parchalangan mahsulotlar o'pka, teri, buyrak, ichaklar orqali tarqaladi.

Yo'qotilgan energiya yoki moddalarni to'ldirishning asosiy manbai iste'mol qilinadigan ovqat bo'lib, ular turli yog', oqsil, uglevod, mineral tuz, vitamin va suvga serob bo'lishi lozim. Sog'lom kishining ovqatlanishi organizmning faoliyati uchun sharoit yaratadi, uning funksiyalarini tiklaydi.

Bunda eng muhimi ovqatlanish rejimi yoki gigienasiga rioya qilishdir. Ovqatlanish tartibli, ritmik va kaloriyali bo'lishi lozim. Kuniga 4 mahal – ertalab ishga ketish oldidan, tushda, kun og'anda va uyqudan 2 soat oldin kechki ovqatlanish lozim.

Kishining mehnat faoliyati va bajaradigan mehnatining xarakteriga qarab, ovqatning to'yimlili-gi-kaloriyasi har xil bo'lishi aniqlangan. Sportchilar musobaqalar va mashqlar paytida ovqatida 4500-5000 kaloriya bo'lishi talab qilinadi. Kishi har qanday mazali, yoqimli ovqatdan o'zini tiyishi lozim. Chunki ko'p ovqat iste'mol qilish foyda emas, zarar keltiradi. Kishi tanasi og'irligining oshishiga, semirish va turli kasalliklarning kelib chiqishiga olib keladi.

Uyqu–inson salomatligini asrovchi muhim vositadir. Shuning uchun uyqu normal va doimiy bo'lishi lozim. Uyqu paytida inson kuchi 3 karra tez tiklanadi. Katta kishi har kuni 7-8 soat uzluksiz uxlashi etarli hisoblanadi. Inson organizmidagi sutkalik kechadigan jarayonlar ko'rsatadiki, uyqu normal bo'lishi uchun kechki ovqatlanish ham me'yorida bo'lishi, ovqatlanish uyqudan 2 soat oldin bo'lishi



lozim. Kechki ovqat engil, tez hazm bo'ladigan bo'lishi muhim. Kechki uyqudan oldin toza havoda qisqa sayr qilish ham foydalidir.

Havo issiq vaqtlarda derazani ochiq qo'yib, qishda esa, xonani yaxshi shamollatib yotish tavsiya qilinadi. Yotadigan to'shak alohida, uncha yumshoq emas, ko'rpa engil bo'lishi lozim. Yotganda boshni ko'rpa bilan yopmay o'ng yonbosh yoki chalqancha yotish kerak.

Turish oldidan bir necha marta chuqur nafas olish, yotgan joyda qo'l, oyoqlar, nafas yo'llari uchun bir necha engil mashq qilish foydalidir.

Shaxsiy gigienaga rioya qilish salomatlikni muhofaza qilishning eng muhim vositalaridan biridir. Hayotiy jarayonlarning me'yoriy kechishi uchun badan, teri, og'iz bo'shlig'i gigienalariga rioya qilish juda muhimdir. Terini ifloslik, ter va turli yopishgan narsalardan tozalash turli teri kasalliklariga chalinmaslik garovidir.

Badanni toza tutish uchun uni tez-tez yaxshilab yuvish lozim. Bunda qo'lning tozaligiga alohida e'tibor berish zarur. Butun badanni toza tutishda bug'ga to'yingan hammomdan foydalaniladi. Har kun uxlashdan oldin uy haroratidagi suvda oyoqni yuvib yotishga odatlanish lozim.

Organizmining umumiy gigienik holati uchun bosh, sochlarga ham qarash, har 4-5 kunda issiq suv, sovun, shampun bilan yuvish kerak.

Muntazam ravishda og'iz bo'shlig'i tozaligiga rioya qilish tishlarning saqlanishiga asos bo'ladi. Buning uchun ovqatlangandan so'ng og'izni issiq suv bilan chayish, ertalab va uyqu oldidan tishlarni cho'tka bilan tozalash tavsiya qilinadi.

Kishi organizmining umumiy gigienik holatini ta'minlashda kiyim va oyoq kiyimi ham muhim o'rin tutadi. Chunki kiyim kishi badanini ifloslanish va mexanik ta'sirdan asrab, turli yil fasllarida me'yoriy issiqlik balansini ta'minlaydi. Kiyim engil, qulay, issiqlik va havo o'tkazuvchi, erkin bo'lishi lozim.

Oyoqni qisuvchi kiyimlardan saqlanmoq kerak. Chunki ular panjalarni qisib, deformatsiyaga sabab bo'ladi, qon aylanishini qiyinlashtiradi.

Yuqorida keltirilgan gigiena masalalari yoshlarni jismoniy chiniqtirishga yordam berish bilan birga, ularada normal, sog'lom hayot tarzining shakllanishi uchun ham muhim zamin hozirlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мамажанов Н., Ҳамроқулов Х. Жисмоний фаоллик мезони ёки ўн минг қадам. / Соғлом авлод журналі, 2006 йил, 1 –сони, 23-бет.
2. Алижон Аминов. Ўзингизни балолаарга гирифтор қилманг, / Соғлом авлод журналі, 2006 йил, 7 –сони, 21-22 бетлар.
3. Вайкбаум Я.С. Жисмоний тарбия гиgienаси. -Т.: Ўқитувчи, 1998, 97-бет.



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA YOSHLARDA SOG'LOM DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

B. SHERMUHAMMADOV,
Pedagogika fanlari doktori

Maqola umumiy o'rta ta'lim muassasalarining yuqori sinflarida hamda oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida tahsil olayotgan yoshlarda sog'lom dunyoqarashni shakllantirishning dolzarb masalalariga bag'ishlangan. Muallif ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish bo'yicha o'z taklif va mulohazalarini berib o'tgan.

Kalit so'zlar. *Dunyoqarash, ma'naviyat, ma'rifat, e'tiqod, ijtimoiy faollik, ong, qalb, pedagogik texnologiyalar, tizim, jarayon, loyihalash.*

Данная статья посвящена актуальным вопросам формирования здорового мировоззрения учащейся молодёжи старших классов средних образовательных заведений, а также среднеспециальных и высших учебных заведений. В статье автор излагает свои мнения по этому вопросу и даёт предложения по организации процесса воспитания.

Ключевые слова. *Мировоззрение, духовность, просвещение, убеждение, социальная активность, сознание, душа, педагогические технологии, система, процесс, проектирование.*

This article is devoted to the actual problems of the formation of a healthy worldview of pupils in senior classes of secondary educational schools, as well as secondary specialized and higher educational institutions. In the article, the author expresses his views on this issue and gives suggestions for organizing the process of bringing up and education.

Key words. *Worldview, spirituality, enlightenment, persuasion, social activity, consciousness, soul, pedagogical technologies, system, process, design.*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning pirovard natijasi uzluksiz ta'lim tizimida yosh avlodni yuksak ma'naviyatli insonlar etib tarbiyalashdan iborat. Yurtimizning taraqqiyoti ko'p jihatdan yoshlarning salohiyatiga, ularning bilimi, aql-idroki, ijtimoiy faolligi va eng muhimi sog'lom dunyoqarashiga bog'liq. Har qanday jamiyat yangilanish jarayonida yoshlarning kuchiga tayanadi. Shu jihatdan yangilanib borayotgan jamiyatimiz hayotini yoshlarning faol ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 25 dekabr kuni "Yoshlar forumi" doirasida so'zlagan nutqida «Qanchalik qiyin bo'lmasin, biz yoshlar tarbiyasi bo'yicha o'zimizga xos va ta'sirchan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak. Jonajon aziz farzandlarimizni buzg'unchi va zararli g'oyalar, jinoyatchilik, giyohvandlik, loqaydlik, ma'naviy qashshoqlik, iste'molchilik kayfiyatidan asrashimiz zarur» deb ta'kidlab o'tdi[1].



Yuqorida qayd etilgan bugungi kun uchun juda dolzarb bo'lgan vazifani amalga oshirish hamda yangi jamiyat tamoyillarini rivojlantirish yoshlarda sog'lom dunyoqarashni shakllantirish bilan bog'liqdir. Bugungi kunda ta'lim-tarbiya sohasidagi jarayondan ko'zlangan maqsad yoshlarni barkamol, zamonaviy va milliy ruhda tarbiyalashning izchil tizimini yaratishdan iborat etib belgilangan.

Qayd etish zarurki, globallashuv jarayoni, tashqi mafkuraviy tahdidlar, internet tizimidagi ayrim axborotlar yoshlarning qarashlariga salbiy ta'sir etmoqda. Zero, bugun uzluksiz ta'lim tizimida sog'lom dunyoqarashni shakllanishiga xizmat qiluvchi tabaqalashtirilgan pedagogik-psixologik dasturlarni yaratish, o'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalarga ilg'or g'oyalarni singdirish, shu asosda ma'naviy ta'lim-tarbiyani talab darajasiga ko'tarish, pedagog kadrlar bilimlarini chuqurlashtirib borish, bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlari ko'lamini kengaytirish va sifatini yanada oshirish taqozo qilinmoqda.

Ijtimoiy munosabatlar jarayonida yoshlarda mas'uliyat va javobgarlikni his etish, jamoaga bo'ysunish, mustaqillik, ishda tashabbus ko'rsatish, ijodkorlik, turli xil vaziyatlarda o'zini tuta bilish, safdoshlarining fikri bilan hisoblashish, o'zaro yordam va hamkorlik kabi ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan ishlarda uzilishlar ko'zga tashlanmoqda.

Qayd etish zarurki, globallashuv jarayoni, tashqi mafkuraviy tahdidlar, internet tizimidagi ayrim axborotlar yoshlarning qarashlariga salbiy ta'sir etmoqda. Dolzarb masalalarning mohiyatini anglash, chuqur o'rganish va faol ishtirok etish o'miga ayrim yoshlarda beparvolik va mas'uliyatsizlik kayfiyati hukm surmoqda.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, yangi jamiyat barpo etish jarayonida yoshlarda sog'lom dunyoqarashni shakllantirishning ahamiyati juda zarurdir. Yoshlarda sog'lom dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan ilm olish, hunar egallash, bunyodkorlik ishlariga xayrixohlik kabi sifatlarni tarkib toptirish jarayonida yoshlarning o'z salohiyatini yuzaga chiqarishiga imkoniyat yaratish; yoshlarning hamkorlikda harakat qilishga o'rgatish; yetakchi yoshlarning kuchi va salohiyatidan samarali foydalanish; yoshlarni diniy ekstremizm va terrorchilik, giyohvandlik, mahalliychilik, boqibeg'amlik kabi illatlardan saqlash; yosh oilalarga yordam ko'rsatish; vatanparvarlik tuyg'usini har bir yoshning ongiga singdirish; ma'naviy poklik, kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat, ezgu qadriyatlarga sadoqatni shakllantirish; yoshlarni tariximiz, buyuk shaxslarning hayot yo'li, bugungi kun qahramonlari, ilg'or zamondoshlarimiz timsolida tarbiyalash dolzarb vazifa sifatida saqlanib qolmoqda.



Mazkur jarayonda bir qator pedagogik vazifalarni ijobiy hal etish maqsadga muvofiq:

- Yoshlarning qiziqishlari, ehtiyojlari, bilim va dunyoqarashlari darajasi, shuningdek, ijtimoiy faolliklarini inobatga olgan holda ish rejalari va dasturlarini qayta ko'rib chiqish va tuzish;

- ta'sirchan faoliyat shakli, metod hamda ilg'or innovatsion vositalardan foydalangan holda ijtimoiy faol yoshlar qatlamini tarkib toptirish;

- yoshlar orasida ijobiy muhitni yaratib, ularda mustaqil va erkin fikrlash, bahs-munozara yuritish ko'nikmalarini qaror toptirish;

- yoshlarga hayotiy misollar orqali bunyodkor va buzg'unchi g'oyalar mohiyatini tushuntirish;

- yoshlarga mustaqillik eng ulug' ne'mat ekanligi, uni asrab avaylash zarurligi haqidagi nazariy bilimlarni berish asosida ularning ijtimoiy faolliklarini vujudga keltirish va rivojlantirish.

Sog'lom dunyoqarashni shakllantirishda jamiyat ijtimoiy hayotida faol qatnashishga yo'llaydigan, rag'batlantiruvchi, yoshlarning ijtimoiy-ma'naviy, ayni vaqtda moddiy ehtiyojlarini yaxlit tarzda huquqiy shaxslar e'tiboriga taqdim etuvchi tizimni shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarda sog'lom dunyoqarashni shakllantirishga doir ta'lim-tarbiyani tashkil etish davrida yoshlar faoliyatini mazmunan tahlil etish, ularda o'z faoliyatlariga nisbatan tanqidiy yondashuvni qaror toptirish, shuningdek, o'z xatti-harakatlarini real baholash talab etiladi. Ushbu faoliyatni doimiy va muntazam ravishda amalga oshirish yoshlarda sog'lom dunyoqarashning tub mohiyatini egallash bilan birga ongli intizom, jamiyat talablariga aniq va to'g'ri javob berish ko'nikmalarining hosil bo'lishiga olib keladi. Yoshlar faoliyatini to'g'ri baholash, uning ijobiy va salbiy qirralarini ko'ra olish, yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarga barham berish imkoniyatini yaratadi.

O'z o'rnida sog'lom dunyoqarashni o'stirish milliy o'zlikni anglash, mustaqillik mohiyatini o'zlashtirish, mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish bilan o'z-o'zini anglash ehtiyojini vujudga keltirishi lozim. Ehtiyoj yoshlar faoliyatida o'z in'ikosini topib, ularning ijtimoiy hayotida muayyan mazmun kasb etadi. Bu jarayonda yoshlarda sog'lom dunyoqarash, vatanparvarlik, fidoiylik, madaniyatlilik, baynalminallik va insonparvarlik kabi fazilatlar shakllanadi.

Sog'lom dunyoqarashni shakllantirishda nafaqat tarbiyaviy jarayon balki ta'lim jarayoniga doir yangi o'qitish texnologiyalaridan ham foydalanish zarur.



Muammoli ma'ruzalar o'qish asosida mashg'ulotlarni tashkil etishga katta e'tibor qaratish ta'lim jarayonida yoshlarning bilimga bo'lgan ishtiyoqlarini oshirish, mustaqil ravishda qo'yilgan masalalarga ijodiy yondashish, qiyin masalalar yechimini maqsadga muvofiq topish, mantiqiy fikrlashga o'rgatish sog'lom dunyoqarashini shakllantirishda eng muhim omillar hisoblanadi.

Sog'lom dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan ta'lim-tarbiyaviy dasturlarni tuzishda uning mazmuni quyidagi talablar asosida tanlanishi kerak.

- Yoshlarning mustaqil fikrlash faoliyatini mashg'ulotdan-mashg'ulotga rivojlantirib borish;

- mantiqiy fikr yuritishga odatlantirish muammolarini yechishda mavjud malakalarga tayanishga o'rgatish;

- egallangan mavjud va yangi hosil bo'lgan bilimlarini uyg'unlashtira olish ko'nikmasini tarkib toptirish;

- ta'lim-tarbiyaning turli metod va shakllaridan foydalanishga imkon yaratish, ilg'or g'oyalarni ifodalay olish.

Hayotiy aniq dalillar, nazariy masalalarni misollar bilan tushuntirish, ta'limning turli vositalaridan foydalanish yoshlarning nafaqat berilgan bilimlarni chuqur o'zlashtirishlari, balki sog'lom dunyoqarashlarini ham shakllantirishga olib keladi. Bundan tashqari ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar sezish, idrok etish, anglash va ta'sir etishga yo'naltiriladi.

Yoshlarda sog'lom dunyoqarashni shakllantirishning muhim jihatlaridan yana biri ularning qarash va e'tiqodlarini shakllantirishdan iboratdir. Talaba-yoshlar bilan o'tkazilgan tajriba shuni ko'rsatadiki, ta'limda qarashlar, e'tiqod va ideallarsiz yoshlar faqatgina fan asoslarini o'zlashtiradilar, ularning tarbiyaviy jihatlari unutiladi.

Demak sog'lom dunyoqarashni shakllantirish avvalo yoshlarning voqea va hodisalarga qiziqishlaridan tortib, guruhdagi faoliyatlari, o'quv va jamoat ishlaridagi ishtiroki, hattoki talabalar turar joyidagi qoidalarga amal qilishlarigacha bo'lgan zarur hayotiy vazifalar aniq belgilab olinadi. Yoshlar uchun ta'lim muassasalarida barcha turdagi munosabat va muloqotlarni shunday tashkil etish zarurki, ular o'quv muassasasini tamomlagach bu ko'nikma va malakalardan barcha sohalarida foydalana olsinlar. Shu sababli yoshlarning shaxsiy e'tiqodlari, qarash va ideallarini aniq g'oyaviy yo'nalish asosida shakllantirish zarur.

Insonda sog'lom dunyoqarashni shakllanganlik darajasi uning ijtimoiy hayotda o'z o'rnini belgilay olishi, yashab turgan jamiyat talablariga javob bera olishi bilan belgilanadi. Agar shaxsning e'tiqodi, g'oyalari va qarashlari jamiyat



talabiga javob bermasa, bunda uning tafakkurini ilg'or g'oyalar bilan boyitishga ehtiyoj tug'iladi. Ma'lumki, shaxsning atrof-muhit, hayotiy shart-sharoitlar bilan o'zaro munosabati va aloqasi inson tafakkuri shakllanishiga ta'sir etadi.

Yoshlarda sog'lom dunyoqarashni shakllantirish me'yorini aniqlash ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ta'lim jarayonida egallangan bilimlar sog'lom dunyoqarashni shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Chunki yoshlarning jamiyat hayotidagi faol ishtiroki egallangan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish imkonini beradi. Yoshlar ta'lim-tarbiya jarayonida egallagan nazariy bilim va qarashlarini o'zlarining shaxsiy malakalari bilan uyg'unlashtirib, vujudga kelgan e'tiqodlarini jamiyat olg'a surayotgan axloqiy me'yorlarga bevosita taqqoslaydi.

Xulosa tarzida ta'kidlash joizki, yoshlarda sog'lom dunyoqarashni tarkib toptirish uzluksiz ta'lim tizimining umumiy o'rta ta'lim muassasalarining yuqori sinflarida hamda oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida tahsil olayotgan talabalar orasida tashkil etish muhimdir. Yoshlik inson hayotidagi eng yorqin, jo'shqin va g'oyat mas'uliyatli davr hisoblanadi. Ijtimoiy hayotda bo'layotgan barcha voqea va hodisalar yoshlarni shu jamiyatning fuqarosi ekanligini his etishga undaydi. Shu tarzda ularda sog'lom dunyoqarash tarkib topadi, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi his-tuyg'ular mustahkamlanadi, milliy va umuminsoniy axloq me'yorlariga muvofiq xulqiy malaka va odatlar shakllanadi. Yoshlarning barcha intilishlari ma'lum maqsadlarga qaratilgan bo'ladi. Ularning aksariyati Vatan, xalq, jamiyat, insoniyatga xizmat qilishni o'z hayotining maqsadi deb biladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston yoshlari forumida so'zlagan nutqi". 2020 yil 26 dekabr, №273-son.

2. R.G.Safarova., R.X.Djuraev O'quvchi yoshlarni "ommaviy madaniyat" xurujlaridan himoya qilishning nazariy-metodologik asoslari. –T., "Tafakkur qanoti", 2017. -200 b.

3. Pedagogika. A.Munavvarovning umumiy tahriri ostida. –T., "O'qituvchi", 1996. -200 b.

4. S.Otamurodov. Globallashuv va milliy-ma'naviy xavfsizlik. –T., "O'zbekiston", 2015. -456 b.



KREATIV FAOLIYAT JARAYONI-MUSTAQIL O'QUV-BILISH FAOLIYATINING ENG YUQORI DARAJASI

D.M.MAXMUDOVA,

ChDPI dotsent v.b., p.f.f.d.(PhD)

Maqolada o'quvchi-talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etishda kreativ potentsial, kreativ tafakkur, kreativ jarayonning ahamiyati ilmiy asoslangan. Kreativ faoliyatning muhim jihatlar: bir fan va fanlar doirasida egallangan bilim va ko'nikmalarni yangi faoliyat tajribasiga mustaqil tatbiq etish; kutilmagan vaziyatdagi yangi muammoni ko'ra bilish; ob'ekt tuzilishini ko'ra bilish; muammoni hal etishda muqobillikni hisobga olish; yangi muammolarning yechimini izlab topishni ijodiy faoliyatning avvaldan ma'lum bo'gan usullari bilan uyg'unlashtirish; muammolarni hal etishda butunlay yangicha yondashuvni qaror toptirishhaqida fikrlar bayon etilgan..

Kalit so'zlar: kreativlik, kreativ potentsial, kreativ tafakkur, kreativ faoliyat.

В статье научно обосновано значение творческого потенциала, творческого мышления, творческого процесса в организации самостоятельной деятельности студентов. Важные аспекты творческой деятельности: самостоятельное применение знаний и навыков, полученных по одному предмету и дисциплинам, к опыту новой деятельности; уметь увидеть новую проблему в неожиданной ситуации; уметь видеть структуру объекта; рассматривать альтернативы в решении проблем; совмещение поиска решений новых проблем с известными ранее методами творческой деятельности; излагаются идеи для принятия решения о совершенно новом подходе к решению проблем.

Ключевые слова. Креативность, креативный потенциал, креативное мышление, креативной деятельность.

The article scientifically substantiates the value of creative potential, creative thinking, creative process in the organization of students' independent activity. Important aspects of creative activity: independent application of knowledge and skills acquired in one subject and discipline to the experience of new activity; be able to see a new problem in an unexpected situation; be able to see the structure of an object; consider alternatives in problem solving; combining the search for solutions to new problems with previously known methods of creative activity; outlines ideas for deciding on a completely new approach to problem solving.

Key words. Creativity, creative potential, creative thinking, creative activity.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida ro'y berayotgan ulkan o'zgarishlar iqtidorli o'quvchilar va talabalarga bo'lgan munosabatni ham tubdan o'zgartirdi. Iqtidorli yoshlar O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotini hamda uni jahon ham jamiyatida munosib o'rinqallashini ta'minlovchi omil va millati mizziyati hisoblanadi. Respublikamizning jahon rivojlangan mamalakatlari



darajasida taraqqiy etishis hujamiyat a'zolarining, ayniqsa yoshlarning erkin fikrlay olish darajasi, mustaqil ijodiy faoliyatlari natijalari bilan belgilanadi.

Uzluksiz ta'lim, xususan oliy ta'lim muassasalari jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichida talabani muayyan bilimlar ko'lamini bilan qurollantiribgina qolmay, balki jamiyatdagi o'zgarishlarni mustaqil o'rganib olishga intilish, o'z ustida ishlash ehtiyojini tarbiyalashi zarur.

Hozirgi yoshlarga ta'lim berishning eng to'g'ri yo'li maktabdan tortib to oliy o'quv yurti va undan keyingi bosqichlarda ularning shaxsiy qiziqishlarini inobatga olgan holda ijodiy faoliyatini, iqtidorini tarbiyalashdir. Bu esa o'quvchi-talabalarda kreativ faoliyatni shakillantirish va rivojlantirishni taqozo etadi.

Kreativlik shaxsning an'anaviy fikrlashdan farqli ravishda ma'lum hatti-harakat, faoliyat yoki jarayonni samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati sanaladi.

Shaxsning kreativlik potentsiali uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ potentsial negizida har bir ta'lim oluvchining shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi.

Kreativ potentsial bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, an'anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda fikrlashning tezkorligi va egiluvchanligida, yangi g'oyalarni yaratish, qobiliyati, shuningdek, shaxs xarakteriga xos jihatlar – bir qolipda fikrlamaslikda, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilishda, zakovatli bo'lishda aks etadi.

Odatda, talabaning kreativlik layoqatiga ega bo'lishi muayyan muammolarni hal qilishga intilishi, kichik ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishi va bu jarayonda qiziqish doirasi bir xil bo'lgan tengdoshlar bilan o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishi muhim ahamiyatga ega.

M.Csikszentmihalyi (1996) kreativ insonlar ikki toifaga bo'linadi, degan fikrni olg'a suradi, ya'ni "katta K" – bular faoliyat olib borayotgan sohaning yetakchilardan bo'lib, doimo o'zgarishlar sodir etishga intiladi, "kichik K" – bular o'z kreativlik ko'nikmalaridan faqat kundalik hayotda foyda keltirishi uchun foydalanadi[1]. Ko'pchilik talabalar o'zlarini kreativ emasmi, deb biladi; kreativlik ular yetisha olmaydigan orzuday va faqatgina iqtidorli insonlar kreativ bo'lishi mumkin, degan fikrga ega. Ular kreativlik bu faqat "katta K" toifasiga kiruvchi



insonlar yoki san'at sohasida tahsil olayotgan yoki o'quv-bilish faoliyatini tashkil etayotgan talabalarda bo'lishiga ishonadi. Talabalar, qachonki, kreativ bo'lish uchun "katta K" toifasiga kiruvchi shaxs bo'lish shart emasligini tushunsalar, kreativlik ular uchun ega bo'lish mumkin bo'lgan ko'nikmaga aylanadi. Bunday fikr natijasida talabalar o'zlarini kamroq "ezilgan" sezib, yangidan yangi g'oyalalar bilan o'zlarini namoyon etishlari mumkin va mashg'ulotlar jarayonida interfaol vazifalarni bajarishda faol qatnashishga bo'lgan qiziqishlari ortib, ko'rsatkichlari ham yuqoriga ko'tariladi. Ular o'zlariga baland baho berishni boshlaydi va kreativlik sohasida bundan ham yuqori ko'rsatkichlarga erishishga intiladi. Talabalar kreativ tafakkur imkoniyatlaridan qancha ko'p foydalansalar, shuncha ko'p faol bo'ladi.

Kreativ mashg'ulotlar talabalarga hayajon va qiziqishni singdiradi, ya'ni, talabalarda qiziqish ortgani sari, ular yanada ko'proq harakat qiladi. S.Dweck (Duek)ning (2006) fikriga ko'ra, talabalar harakat va faollik katta o'zgarishlarga olib kelmasligiga ishonish odatiga egadir; ular ma'lum bir potentsialga egaliklarini biladi, ammo bu hech narsani o'zgartirmasligiga ishonadi; shuning uchun ham ularni hamisha yutuqlari uchun emas, balki muvaffaqiyatsizliklari uchun baholash xavfli sanaladi[2]. Aksincha, o'zlari haqida yuqori bahoga ega bo'lgan talabalar o'zlarida ko'nikma va iqtidorning rivojlanishiga ishonadi. Bunday talabalar odatda murakkab ishlarda faol qatnashadi va o'zlarini namoyon eta oladi ham. Bordi-yu, xato qilsalar, undan xulosa chiqarib, o'sishda davom etadi. Bunday fikrlash odatiga ega talabalar kirishimliroq va kreativlik ko'nikmasidan foydalanishga moyil bo'ladi.

Kreativlik o'quv-bilish yoki afzal ko'rish sifatida tahlil etilishi ham mumkin: ba'zi talabalar tanqidiy, tahliliy yoki baholovchi fikrlashni, boshqalar esa faktlarga asoslangan bilimlarga ega bo'lishni afzal ko'radilar, yana boshqalari esa tabiatan kreativ va tanqidiy fikrlashga moyil bo'ladi. Shunga asoslangan holda o'qituvchilar har bir talabaning qiziqishi, qobiliyati va moyilligi va qolaversa ularning o'quv-bilish uslubidan kelib chiqib mashg'ulotlarni rejalashtirsalar maqsadga muvofiq hisoblanadi (Starko A.J., 2005) [3]. O'qituvchi talabalarga yakka tartibda yoki guruhlarda ishlash orqali kreativ, tanqidiy fikrlashni talab qiluvchi vazifalarni berishi mumkin. Bunda talabalar har ikki fikrlash tarzidan birini tanlash imkoniyatiga ega.

Kreativ tafakkurga ega talabalar:

- Boshqa talabalarning xayollariga kelmagan g'oyalarni ilgari suradi.
- O'zlarini namoyon etishning o'ziga xos uslubini tanlaydi.
- Ba'zan mavzuga aloqasi bo'lmagan yoki "qitmir" savollarni beradi.



- Echimi ochiq qolgan vazifalardan zavqlanadi.
- Dalillardan ko‘ra g‘oyalarni muhokama qilishni afzal ko‘radi.
- Muammo yechimini topishda noan‘anaviy yondashuvni tanlaydi.

Shunday qilib, kreativ tafakkur insoniyatga xos tafakkurning turlaridan biri bo‘lib, uning yordamida voqea, hodisalarning mohiyati o‘zgacha, o‘ziga xos ko‘rinish va mazmunda talqin etiladi. Kreativ tafakkurga ega bo‘lish orqali shaxs turli murakkab vaziyatlarda muammoni oson hal qilish, undan chiqa bilishni uddalaydi. Qolaversa, kreativ tafakkur ijtimoiy sub‘ekt tomonidan mavjud bilimlarni nihoyatda oson, hech bir qiyinchiliklarsiz o‘zlashtira olish imkonini beradi.

Kreativ faoliyat talabalarni har tomonlama uyg‘un rivojlantirishning muhim omili sifatida ularning axloqiy, aqliy va jismoniy jihatdan taraqqiy etishiga xizmat qiladi. Aynan ijodiy faoliyatga samarali tayyorlangan talabalar iqtidorlikning quyidagi mezonlariga javob beradi: aqliy rivojlanishning jadalligi: bilishga qiziqish, kuzatuvchanlik, nutq, ongllilik, nostandart fikrlash; qiziqish, intellekt, emotsiyalarning erta ixtisoslashuvi: matematika, musiqa, tasviriy faoliyat, injenering, chet tillarni o‘rganish; bilish faolligi, tashabbuskorlik, tashkilotchilik qobiliyati, qat‘iylilik, qo‘yilgan maqsadga erishishga intilish; amaliy faoliyatga tayyorlik va qobiliyatlilik.

Kreativ jarayon o‘zida ikkita muhim belgini aks ettiradi. Ulardan biri – intuitsiya (zehn, fahm-farosat), ikkinchisi – intuitiv fikrlash jarayonida qo‘lga kiritirilgan natijani rasmiylashtirishdir. Faqat uning samarasi anglangan, intuitiv va mantiqiy fikrlash birligi sifatida analitik fikrlash vositasida ishlab chiqilganlik bilan tavsiflanadi. Ijodiy jarayon turli darajada insonning ijtimoiy tashabbuskorligining barcha ko‘rinishlari, asosan, uning kasbiy faoliyati bilan bog‘liq shakllarida mutlaq o‘z aksini topadi.

Kreativ faoliyat – bu sub‘ekt faoliyatining o‘z mehnatiga (ishdan qoniqish, uni bajarish jarayonida yangilikka intilish, muammo yechimini topishda ijodiy motivatsiya) munosabati va masalani ijodiy hal etish (avval o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni hamda faoliyat usullarini yangi holatga mustaqil ko‘chirish, muammoli, ma‘lum ob‘ektni yangi funktsiyasini ko‘ra bilish) jarayonidir.

Kreativ faoliyat o‘zida quyidagi muhim jihatlarni aks ettiradi: bir fan va fanlar doirasida egallangan bilim va ko‘nikmalarni yangi faoliyat tajribasiga mustaqil tatbiq etish; kutilmagan vaziyatdagi yangi muammoni ko‘ra bilish; ob‘ekt tuzilishini ko‘ra bilish; muammoni hal etishda muqobillikni hisobga olish; yangi muammolarning yechimini izlab topishni ijodiy faoliyatning avvaldan ma‘lum



bo'lgan usullari bilan uyg'unlashtirish; muammolarni hal etishda butunlay yangicha yondashuvni qaror toptirish.

Kreativ faoliyat jarayoni bu mustaqil o'quv-bilish faoliyatining eng yuqori darajada namoyon bo'lishi bo'lib, u o'zgaruvchan tavsifga ega bilim, ko'nikma va muayyan ijodiy faoliyat tajribasi hamda bilishning ijobiy motivlari sharoitida yuzaga kelishi hamda shu asosda talabalarning ijodiy faoliyat tajribalarini egallashini ko'rsatdi. Bu esa, birinchi kurs talabalarida ijodiy bilish faolligini rivojlantirishni taqozo etadi.

Talabalarning kreativ faolligi o'zida yangi bilimlarni o'zlashtirishga barqaror motivlar va bilish jarayoniga ijobiy emotsional yo'nalganlikning qaror topganligi, o'quv vazifalarini hal etishda odatiy o'quv harakati usullarini bartaraf etishga intilish, muammo yechimini topishning nostandart metod va usullarini izlash, o'quv-bilish faoliyatidagi qat'iylik, ijodiy bilish faoliyatining natijaviyligi bilan tavsiflanuvchi shaxs xususiyatini o'zida aks ettiradi.

Kreativlikning rivojlanishi shaxsda ijodkorlik sifatlarining tarkib topganligiga ham bevosita aloqadordir. Bu jarayonda shaxsning motivatsion yo'nalganligi, individual farqlari, ijtimoiy-madaniy muhit kreativlikning manbasi bo'lib xizmat qiladi. Shaxsning intellektual iqtidorlilik, yangini kashf etishga yo'nalganlik, muammolarni his etish, o'zining bilimlaridan qoniqmaslik, muammolarni yechimini topishga qobiliyatlilik sifatleri ham sub'ektda kreativlikni rivojlantirishga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Csikszentmihalyi M. (2014). The systems model of creativity. – Dordrecht, Netherlands: Springer. – 882 p.
2. Dweck C. (2006). Mindset: The new psychology of success. New York, NY: Random House. – 492 p.
3. Starko A.J. Creativity in the Classroom: Schools of Curious Delight [Text] / A.J. Starko. – London: Lawrence Erlbaum Associates, 2005. – Third Edition. – 499 pp. – ISBN 0-8058-4791-X
4. Махмудова Д.М. Муаммоли математик масалалар ёрдамида талабалар креатив компетентлигини ривожлантириш // Хоразм Маъмун академи-яси Ахборотномаси. 2020. – №2(47). 229-232 б.



UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIDA "BUMERANG" TEKNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH TAJRIBASIDAN

M.B.SHODMONOVA,

Alisher Navoiy nomidagi TDO'TAU katta o'qituvchisi, (PhD)

Ushbu maqolada ta'limning zamonaviy texnologiyalaridan "Bumerang" asosida adabiyot darslarini tashkil etish, buning uchun avvalo, mashg'ulotni tashkil etadigan o'qituvchiga malaka oshirish ta'limi jarayonida tushunchalar hosil qilib, uni maktab o'quvchisining ruhiy holatiga tushirish hamda ta'lim oluvchi his-tuyg'ulariga oshno qilish masalalari yoritilgan. Shuningdek, adabiyot o'qitishning bosh maqsadi – o'zgalari tuyg'ularini anglaydigan, mustaqil fikrlaydigan komil insonni shakllantirish vazifasini o'z oldiga qo'ygan.

Tayanch so'zlar: texnologiya, bumerang, matn bilan ishlash, mustaqil o'qish, kichik guruhlarda ishlash, Boburnoma, xarita, beshinchi iqlim, tabiiy sharoit, ijtimoiy-siyosiy sabab, qal'a, mahalla.

В статье рассмотрены вопросы организации уроков литературы с помощью современной образовательной технологий «Бумеранг», где цель учителя в процессе повышения квалификации довести понятия, осознавать нравственное состояние. Также раскрыты примеры ознакомления с ощущениями учащихся. Основная цель преподавания литературы состоит в понимании чужих чувств, а также в формировании независимо мыслящего совершенного человека.

Ключевые слова: технология, бумеранг, работа с текстом, независимое чтение, работа в малых группах, Бабурина, карта, пятый климат, естественные условия, социально-политическая причина, крепость, махалля.

In this article it is possible to get introduced with the issues of organizing the literature classes for the teachers and this is based on Boomerang latest technologies, for this firstly it's necessary to make conclusions about the process of gaining experience, infusing this into the mental being of the student, and making him aware of the feelings of education. Moreover, the main target of teaching literature is to teach and bring up the harmonious generations with the abilities to realize feelings of other people, thinking independently.

Key words: technology, boomerang, to work with the text, free training, to work in small groups, Baburnama a map, the fifth climate, natural condition, social-political reason, shield, public.

Respublikamizda kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirishning huquqiy-me'yoriy asoslari, moddiy-texnika bazasi, yangi ta'lim talablari xorijiy tajribalar asosida yaratildi. O'n bir yillik o'rta ta'limning joriy etilishi o'qituvchilar malakasini oshirish tizimida ishlarni yangicha tashkil etishni talab qilmoqda. «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha



Harakatlar strategiyasi»da «uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ...yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ...umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish[1]» yo'nalishi ustuvor vazifa etib belgilangan. Natijada ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga xizmat qiladigan texnologiyalarni takomillashtirish va malaka oshirish jarayonida qo'llash imkoniyatlari kengayadi.

«Bumerang» metodidan dars va darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, ta'lim oluvchilar tomonidan o'rganilgan materialni yodda saqlab qolish, so'zlab berish, fikrini erkin holda bayon eta olish, qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'lish hamda o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarni baholay olish, darslik va matn bilan ishlashda, shuningdek oliy ta'lim muassalarida amaliy mashg'ulotlar, seminar yoki laboratoriya mashg'ulotlari hamda suhbat-munozara shaklidagi darslarda foydalanish mumkin. Bu usuldan malaka oshirish kursi tinglovchilarini sohaga oid me'yoriy hujjatlar bilan tanishtirish, ularga qaror, farmon, farmoyishlar mohiyatini o'rgatishda foydalanish to'la samara keltiradi.

Mashg'ulotda tinglovchi mustaqil o'qishi, o'rganishi va o'zlashtirib olishi uchun mo'ljallangan tarqatma materiallar (qisqa matn, suratlar, ma'lumotlar)dan foydalanish kerak bo'ladi.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- ta'lim oluvchilar kichik guruhlariga ajratiladi;
- ular darsning maqsadi va tartibi bilan tanishtiriladi;
- guruhlariga mustaqil o'rganish uchun mavzu matnlari tarqatiladi;
- berilgan matnlar guruhlar tomonidan o'rganiladi;
- har bir guruh a'zolaridan tashkil topgan yangi guruh qaytadan shakllantiriladi;
- yangi guruh a'zolarining har biri guruh ichida navbati bilan o'rgangan matnlari asosida axborot almashadi, ya'ni bir-birlariga so'zlab beradilar va matnini o'zlashtirib olishlariga erishadilar;
- berilgan ma'lumotlarni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun guruh ichida ichki nazorat o'tkaziladi, ya'ni guruh a'zolari bir-birlari bilan savol-javob qiladilar;
- savollarga berilgan javoblar asosida guruhlarning to'plagan umumiy ballari aniqlanadi;
- har bir guruh a'zosi tomonidan guruh uchun berilgan matnning mazmunini hayotga bog'lagan holda bittadan savol tuziladi;
- guruhlar tomonidan tayyorlangan savollar orqali savol-javob tashkil etiladi;



Masalan, «Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asaridagi[2] Andijon tasvirini «Bumerang» texnologiyasi asosida o'rganish uchun to'rtta kichik guruhlar tashkil qilinib har bir guruhga darslikdagi matndan ma'lum qismlarni mustaqil o'rganish topshiriladi.

1-guruhga: *«Farg'ona viloyati beshinchi iqlimdandur. Ma'muraning kanorasida voqye' bo'lubtur. Sharqi Koshg'ar, g'arbi Samarqand, janubi Badoxshonning sarhadi tog'lar. Muxtasar viloyattur; oshliq va mevasi farovon. Girdo-girdi tog' voqye' bo'lubtur. G'arbi tarafikim, Samarqand va Xo'jand bo'lg'ay, tog' yo'qtur. Ushbu jonibtin o'zga hyech jonibtin qish yog'iy kela olmas. Sayxun daryosikim, Xo'jand suyig'a mashhurur; sharq va shimoli tarafidin kelib, bu viloyatning ichi birla o'tub, g'arb sori oqar»*

2-guruhga: *«Yeti pora qasabasi bor; beshi Sayxun suyining janub tarafida, ikkisi shimol jonibida. Janubiy tarafidag'i qasabalardan biri Andijondurkim, vasatta voqye' bo'lubtur; Farg'ona viloyatining poytaxtidur. Oshlig'i vofir; mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo'lur. Qovun mahalida poliz boshida qovun sotmoq rasm emas. Andijonning noshpotisidin yaxshiroq noshpoti bo'lmas».*

3-guruhga: *«Movarounnahrda Samarqand va Kesh qo'rg'onidin so'ng mundin ulug'roq qo'rg'on yo'qtur. Uch darvozasi bor. Arki janub tarafida voqye' bo'lubtur. To'qqiz tarnov suv kirar. Bu ajabturkim, bir yerdin ham chiqmas. Qal'aning girdogirdi tosh yoki sangrezalik shohroh tushubtur. Qal'aning girdogirdi tamom mahallotdur. Bu mahalla bila qal'ag'a fosila ushbu xandaq yoqosidag'i shohrohtur».*

Qiyin so'zlar lug'ati beriladi.

Ta'lim oluvchilar matnlarni qunt bilan o'qishadi. So'ngra yangi guruhlar tashkil qilinadi. Guruh a'zolari o'zlari o'qigan matnlarni yangi sheriklariga tushuntirib berishadi. Matnlar ishtirokchilar tomonidan o'zlashtirilgach, guruh ichida mustahkamlanadi. So'ngra guruh a'zolari oldingi holatdagi guruhlariga qaytishadi. Yangi mavzu yuzasidan savol-javob o'tkaziladi. Savolga to'liq javob olinsa 3 ball, to'liq bo'lmasa 2 ball, boshqa guruh to'ldirsa 1 ball beriladi. Har bir guruhga 5 tadan savol beriladi. Savollar quyidagicha bo'ladi:

1-guruh:

1. Farg'ona viloyati qayerda joylashgan?
2. U qaysi viloyatlar bilan chegaradosh?
3. Uning qaysi tarafida tog' yo'q?



4. Viloyatdan qaysi daryo oqib o'tgan?

5. Unda nimalar serob?

2-guruh:

1. Farg'onaning nechta shaharchasi bor?

2. Andijon Sayxunning qaysi tarafida joylashgan?

3. Andijon Farg'ona viloyatining qayerida joylashgan?

4. Qovun mahalida qanday odat rasm bo'lgan?

5. Bobur Andijonning qaysi mevasini maqtagan?

3-guruh:

1. Andijon kattaligi jihatdan Movarounnahrda shaharlar orasida nechanchi o'rinda turgan?

2. Shaharga qancha suv kirgan?

3. Qal'aning aylanasi nimalar joylashgan?

4. Mahallalar bilan qal'ani nima ajratib turgan?

5. Qirg'ovul haqida qanday rivoyat tarqalgan?

Yoki har bir guruhga 4 tadan savol quyidagi tartibda berilishi ham mumkin.

Birinchi guruhga beriladigan parcha yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Ushbu parchada nima tasvirlangan?

2. Geografiyadan olgan bilimlaringiz asosida «beshinchi iqlim»ni tushuntiring.

3. Mana, oldingizda xarita. Parchaga tayangan holda xaritadan tasvirlangan joy va uning chegarasini ko'rsatib bera olasizmi?

4. Farg'ona viloyatining geografik o'rni mudofaa nuqtai nazardan qanday afzallikka ega ekan? Tabiiy sharoitiga ko'ra-chi?

Ikkinchi guruh uchun savol va topshiriqlar:

1. Ikkinchi lavhaning birinchi parcha bilan qanday o'xshash va farqli tomonlari borligini tushuntiring.

2. «Yetti pora qasabasi bor» jumlasini qanday tushundingiz? Qasaba bugungi kunda qaysi tushunchaga to'g'ri kelishini o'ylab ko'ring.

3. Andijonning «vasatta voqye' bo'lishi» faqat geografik jihatdanmi yoki uning ijtimoiy-siyosiy sababi ham bormi?

4. Oxirgi uch jumladan andijonliklarning sajiyasiga xos qanday fazilatni angladingiz?

Uchinchi guruh uchun savol va topshiriqlar:

1. Movarounnahrda uch qo'rg'onni kattaligi va mavqeyiga ko'ra ketma-



ket sanab bering. Nega aynan shunday ketma-ketlikni tanladingiz?

2. Ark so‘zini qanday tushunasiz? Uning mamlakat poytaxti uchun ahamiyatini tarixdan olgan bilimlaringiz asosida izohlang.

3. Andijondagi eng ajabtovur holat nima ekanligini tushundingizmi? Buni qanday izohlash mumkinligi to‘g‘risida o‘ylab ko‘ring.

4. Qal‘a bilan mahallalarning joylashish o‘rnini xayolan tasavvur qiling va tasavvuringizda jonlangan lavhani tasvirlab bering.

Diqqat qilinsa, savol va topshiriqlarning deyarli hammasi konseptual xarakterda. Ularga javob berish uchun o‘quvchilar matnni diqqat bilan o‘rganishlari, geografiya, tarix fanlaridan olgan bilimlarini ham tatbiq etishlari kerak bo‘ladi. Chunki «O‘rinli berilgan muayyan muammolik darajasiga ega har qanday savol va topshiriq bolani mustaqil fikrlashga chorlaydi»[3].

Ushbu texnologiyadan, nafaqat, maktab adabiyot darslari, balki boshqa fanlarga ham ijodiy yondashgan holda qo‘llash, o‘ylaymizki, juda ham yaxshi samara beradi. Shuningdek, uzluksiz ta‘limning barcha bosqichlari – kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar, oliy o‘quv yurti talabalari hamda biz qayd etganimiz – malaka oshirish ta‘limi jarayonida qo‘llanilishi ham ta‘lim beruvchi o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishishni to‘liq kafolatlaydi. Buning uchun o‘qituvchi mashg‘ulotga kirishdan avval barcha materiallarni oldindan tayyorlab, beriladigan javoblarning aniq, guruh bilan qilinadigan xulosaning taxminiy variantini ishlab chiqqan bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-Farmoni. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

2. Zahiriddin Muhammad Bobur. «Boburnoma». T. Yangi asr avlodi. 2018-yil B.704. ISBN: 978-9943-27-497-6.

3. Yaminova S. O‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishda ssenariyli o‘qitish usulidan foydalanish. Ped. fan. nom. . diss. – Toshkent: O‘zFA, 1997.



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA O'QITUVCHI MAHORATI

**N.E.ERGASHEVA,
Z.O.JABBAROVA,**

Jizzax XTXQTMO hududiy markazi katta o'qituvchilari

Ushbu maqolada ta'limda ta'lim samaradorligini oshirishda o'qituvchilarning pedagogik mahoratga ega bo'lishi shuningdek pedagogik vazifalarni hal etish to'g'risida fikr yuritilgan.

Tayanch so'z va iboralar: *pedagogik mahorat, pedagogik faoliyat, pedagogik vazifalar; o'qituvchining o'ziga xos xususiyatlari, pedagogik faoliyat samaradorligi, pedagogik qobiliyatlari.*

В данной статье рассматривается вопрос о роли педагогического мастерства педагогов в повышении, эффективности обучения в образовании, а также о типе решения педагогических задач.

Ключевые слова: *педагогическое мастерство, педагогическая деятельность, педагогические задачи, отличительные черты педагога, эффективность педагогической деятельности, педагогические способности.*

This article is about the pedagogical skills of teachers in improving the effectiveness of teaching in education, as well as the solution of pedagogical tasks.

Key words: *pedagogical skills, pedagogical activity, pedagogical tasks, teacher's characteristics, effectiveness of pedagogical activity, pedagogical skills.*

Mamlakatimizda shakllanayotgan milliy ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotida innovatsion yondashuvlar, izlanishlar, tadqiqot muammolariga oid yechimlar, ilmiy-amaliy tavsiyalar yaratildi. Oliy ta'lim tizimi uzluksiz ta'lim tizimiga — maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim, professional ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, maktabdan tashqari ta'lim tizimi uchun mutaxassislar tayyorlab berar ekan, ularning kasbiy tayyorgarligi, ma'naviy-axloqiy qiyofasiga, o'qituvchilarning tarbiyachilik darajasiga alohida talablar qo'yilmoqda.

Uzluksiz ta'lim tizimida ishlaydigan har bir mutaxassis kasbiy pedagogik ma'lumotga ega bo'lish bilan cheklanmasdan, aynan shu yoshdagi o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishga maxsus tayyorgarlik ko'rgan bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Bo'lajak mutaxassislar o'zini o'qituvchi sifatida emas, ixtisoslik sohasida kasbiy kamol topishga ko'proq e'tibor qaratmoqda. Natijada bunday kadrlar pedagogik faoliyat yuritganda ixtisoslik fanidan chuqur bilim berishga harakat qiladi, lekin tarbiya jarayonining o'ziga xos qonuniyatlari, tamoyillari, mazmun-mohiyati, metodlari,



vositalari va shakllarini professional darajada tatbiq etishga qiynaladi. Ular uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarga ustoz-murabbiy bo'la olishi, har tomonlama ibrat-namuna ko'rsatishi davr talabiga aylandi. Shuning uchun ham uzluksiz ta'lim tizimi uchun mutaxassis tayyorlashda bir qancha jihatlariga alohida e'tibor qaratish talab etiladi:

- o'z fanini mukammal darajada bilish va amaliy faoliyatda tatbiq etishi;
- psixologik-pedagogik bilimlar bilan qurollangan bo'lishi, milliy urf-odatlar, an'analar va qadriyatlardan habardor bo'lishi;

- o'zidagi shaxsiy-kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'quvchilarga yetkaza olishi; o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, tarbiyachi hamdir.

O'zgalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun o'zi mukammal tarbiya ko'rgan, ma'naviy dunyosi boy, axloqiy qiyofasi pok, estetik didi yuqori, o'qituvchi-tarbiyachi o'quvchi-tarbiyalanuvchilarga xos namuna bo'la olishi zarur.

Buning uchun quyidagi pedagogik vazifalarni hal etish lozim bo'ladi:

- o'qituvchi - tarbiyachiga kasb faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan shart - sharoitlar yaratish;

- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim mohiyatini belgilovchi o'quv seminarlar, seminar - treninglar tashkil etish;

- pedagogik faoliyatni takomillashtirish borasidagi nazariy bilimlarni amaliy ko'nikma va malakalarga aylantirish;

- uzluksiz ta'lim - tarbiya tizimida o'qituvchining tarbiyachilik faoliyati samaradorligini aniqlash.

O'zbekiston respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida: "Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega", -deb ta'kidlanadi. Haqiqatdan ham tegishli ma'lumotga ega bo'lgan, kasb tayyorgarligi bor, yuksak axloqiy fazilat sohibi bo'lgan sabr-toqatli, mehnatsevar, tinib-tinchimas kishi pedagogik faoliyat bilan shug'ullanadi.

Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq oldida javob beradigan, o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishga maxsus tayyorlangan tarbiya berishga maxsus tayyorlangan odamlarning mehnat faoliyatidir.

O'qituvchi faoliyati inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan.

O'qituvchilikni o'rganayotgan yoshlar avvalo o'qituvchining o'ziga xos xususiyatlarini bilishi kerak.

U quyidagilardan tashkil topadi:



1. O'qituvchi shaxsining xususiyatlari;
2. O'qituvchining ruhiy pedagogik tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar;
3. Maxsus tayyorgarlikning mazmuni va hajmi (amaliy);
4. Ixtisosiga doir metodik tayyorgarlik.

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik mahorat egasi oz mehnat sarflab, katta natijaga erishadi. Pedagogik qobiliyat faoliyat natijasida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Malaka va uddaburonlik mashq, o'qish natijasi hisoblansa, qobiliyatning rivojlanishi uchun esa yana iste'dod, layoqat, zehn va inson asab tizimida anatomik-fiziologik jihatdan uni tashkil qiladigan bosh miya bo'lmog'i zarur. Albatta bu har bir insonda mavjud. Ana shu tabiiy borliqda, zaminda qobiliyat deb ataluvchi ruhiy xususiyat taraqqiy etadi.

Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi uchun o'qituvchida qobiliyatning quyidagi turlari mavjud bo'lmog'i va tarbiyalanmog'i darkor:

Bilish qobiliyati – fanning tegishli sohalariga oid qobiliyati. Bunday qobiliyatga ega o'qituvchi fanni tegishlicha hajmda emas, balki ancha keng va chuqur, mukammal biladi, unga bu fan juda qiziq va u ilmiy tadqiqot ishlarini ham biladi.

Tushuntira olish qobiliyati - o'qituvchining eng muhim qobiliyatidir. U o'quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olish, umuman ta'sir ko'rsata olishdir. Unda o'quvchilar ruhiyatini, qiziqishini, harakatini, kechinmalarini, holatini, nimani bilishini yoki nimani bilmasligini, bilishga da'vat etishi, shoshmasligi kabi ko'nikmalarni vaqtida, joyida xatosiz bajara olishi nazarda tutiladi.

Kuzatuvchanlik qobiliyati - o'quvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati dir. Bunday o'qituvchining o'quvchining psixologiyasidagi ko'z ilg'amas o'zgarishlarni ham tez payqay oladi. Bu haqda V.A. Suxomlinskiy "har bir bola-nodir bir dunyodir", - deganda haq edi.

Nutq qobiliyati - nutq yordamida o'zining ta'lim - tarbiyasi maqsadini o'quvchilarga anglatishda o'z fikr va tuyg'ularini aniq, ravshan, sodda adabiy tilda (sof) ifodali olishi tushiniladi. O'qituvchi o'rgatayotgan materialni o'zlashtirishda asosan qaysi iboralarga, g'oyalarga, eng muhim qoida va yo'nalishlarga o'quvchilar e'tiborini o'z so'zlari bilan rom eta olish nihoyatda muhim. O'qituvchining nutqi aniq, jonli obrazli, ta'sirchan, talaffuzi yorqin, ifodali, his-hayojonli, unda stilistik va fonetik nuqsonlar bo'lmasligi shart.



Tashkilotchilik qobiliyati -birinchidan, o'quvchilar jamoasini uyushtira olish, jipslashtirish, muhim vazifalarini bajarishga ruxlantirish, yo'l- yo'riq ko'rsata yo'riq ko'rsata yo'riq ko'rsata olish, ikkinchidan o'z ishini (darsini, tarbiyaviy ishini) maqsadga muvofiq tashkil etishni nazarda tutish. Eng muhim vaqtdan unumli foydalana olishi juda muhim.

Obro' orttira olish qobiliyati - o'quvchilarga bevosita emosional - irodaviy ta'sir ko'rsatishdir. Obro' uning fanni yaxshi bilishi, tushuntira olishi, rag'batlantira olishi, jazolay olishi (odil), mexribonligi, o'quvchini tushunishi, muomalasi va mehnati bilan shakllanadi. Uning qalbi samimiy, pok, halol bo'lmog'i shart.

To'g'ri muomala qila olish qobiliyati - o'quvchilar qalbiga to'g'ri yo'l topa olishini belgilovchi muomala, munosabatlar yig'indisi deyish mumkin. Undan o'qituvchining muomalasi samarasini o'quvchi shaxsiga hurmati belgilaydi desak to'g'ri bo'ladi.

Oldindan ko'ra bilish qobiliyati-o'z va o'quvchilar harakatining, faoliyatining oqibatini ko'ra bilishni, oldindan ilg'ay olishi, bilishi, ya'ni pedagogik ko'ra bilishi nazarda tutiladi. Masalan, ikki o'quvchi janjallashgan paytda qaysi birining aybdorligini aniqlash va hokazo.

Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati-o'qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari- hajmi, kuchi, kuchuvchanligi, safarbarligi, tezligi kabilarning taraqqiy etishi bilan izohlanadi.

Eng muhimi o'qituvchi doimo pedagogik faoliyatida o'zi bajarayotgan (bayonqilayotgan fikr, so'z, g'oya) ishiga va uni tinglayotgan o'quvchilarning butun hatti-harakatlari, holatlariga o'z diqqatini taqsimlay olishga e'tiborini qaratmog'i shart.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni T.: 2020 yil
2. Ya.Nurumbekova Tarbiyachi kasb faoliyatida innovatsion texnologiyalar. — Guliston: Ziyo, 2012.
3. B.X.Xodjayev Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti darslik T.: «Sano-standart» 2017 yil.

Internet manbalari:

www.ziyouet.uz,

www.pedagog.uz,



UZLUKSIZ TA'LIM BOSQICHLARIDA KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHDA O'QITUVCHI PSIXOLOGIYASI

N. MAMATQULOVA,

Sirdaryo VXTXQTMOHM o'qituvchisi

O'quvchilarning kasb-hunarga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalashda, ularning kasb tanlashida o'qituvchi o'quvchilarning estetik va psixologik ichki kechinmalari, shaxsdagi xulq-atvorining o'zgaruvchanligi, ahloqiy qonuniyatlarining o'ziga xos tomonlari, nozikliklarini anglab, ularni to'g'ri kasb-hunar tanlashga bo'lgan ishtiyoqlarini shakllantirish o'ta muhim vazifalardan biridir. Mazkur maqola uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunarga yunaltirish masalalariga qaratilgan.

Kalit so'zlar: o'quvchilar, hamda maktab jamoalari hamkorligi, kasb-hunar, psixologik xizmat, oila, ta'lim tizimi bosqichlari.

Воспитывая у учащихся интерес к профессии, к выбору профессии, преподаватель понимает эстетический и психологический внутренний опыт, изменчивость личности, особенности моральных законов, их тонкости и понимает их. Одно из важнейших задач - сформировать у них страсть к выбору профессии. Данная статья посвящена профориентации учащихся и студентов при непрерывном образовании.

Ключевые слова: сотрудничество студента и школьного сообщества, карьера, психологическая служба, семья, этапы системы образования.

By fostering students' interest in the profession, in the choice of profession, the teacher understands the aesthetic and psychological inner experience of students, the variability of the personality, the peculiarities of moral laws, their subtleties and understands them. One of the most important tasks is to develop their passion for choosing a profession.

This article focuses on career guidance in continuing education.

Key words: cooperation between student and school community, career, psychological service, family, stages of the education system.

O'quvchilarni kasb tanlash va hunarga yo'llashda o'qituvchining shaxs psixologiyasi, uning istak va intilishlarini bilishi muhimdir.

Psixolog olimlarning ta'kidlashicha, o'quvchilarning mayli, intilishi, qiziqishi, imkoniyati, aqliy va jismoniy qobiliyatlariga qarab u yoki bu kasbga yaroqliligini aniqlab, so'ngra unga yo'nalish berish kerak.

So'nggi yillarda o'qituvchi psixologiyasini kuzatish shuni ko'rsatadiki, maktabni bitirayotgan o'quvchilar ko'p hollarda olgan bilimlari bilan birga o'zlaridagi yuksak axloqiy, professional sifatlarni o'quvchilar, o'qituvchilar hamda maktab jamoalari o'rtasida namoyish qiladilar. Masalan, «Nima uchun siz bu kitobni tanladingsiz?» - degan savolga o'quvchilarning ko'pchiligi «O'qituvchimga o'xshash uchun shu kasbni yoqtirib qoldim» - degan javobni berishadi. Bundan ko'rinish turibdiki, o'quvchilarda aynan shu kasbga qiziqishning tug'ilishi o'qituvchining



faoliyatiga, o'quvchilar psixologiyasidagi taqlidchanlikka bevosita bog'liqdir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, o'qituvchi o'quvchisini faqat ilmi bilangina emas, balki o'zining butun hayoti, qaror topgan muomala tarzi bilan ham tarbiyalaydi.

O'quvchilarning kasb-hunarga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalashda, ularning kasb tanlashida o'qituvchi o'quvchilarning estetik va psixologik ichki kechinmalari, shaxsdagi xulq-atvorining o'zgaruvchanligi, ahloqiy qonuniyatlarining o'ziga xos tomonlari, nozikliklarini anglab, ularni to'g'ri kasb-hunar tanlashga bo'lgan ishtiyoqlarini shakllantirish o'ta muhim vazifalardan biridir.

Yoshlarning kelajakda kasb-hunar tanlashlarida, ularni to'g'ri va ravon yo'lga solishda sinf rahbari hamda boshqa fan o'qituvchilarining ta'siri kattadir. O'qituvchi o'z fani orqali o'quvchilarda ijobiy axloqiy sifatlarini tarkib toptirishga hamda ularning qarashlari, xatti-harakatlaridagi salbiy tomonlarini yo'qotishga harakat qilishi zarur. O'quvchilar pedagoglarning bevosita ta'siri va yordami bilan kasb-hunar tanlashga harakat qiladilar hamda tarbiyalanadilar. Binobarin, o'qituvchi o'quvchilarning psixologiyasini, ichki kechinmalarini yaxshi tushunadigan psixolog bo'lishi kerak.

U o'qituvchilik malakalariga ega bo'lgan holda xar bir o'quvchini faol o'qishga jalb qila olishi ham darkor. Bunda o'qituvchidan quyidagi o'ziga xos psixologik metod va pedagogik malakalar talab qilinadi:

1) axborot berish: o'qituvchi fan materialini didaktik jihatdan puxta ishlab chiqib, o'quv materialiga aylantirgan tarzda bayon qiladi;

2) jalb qila olish: o'qituvchi o'zining pedagogik va artistlik mahoratini ishga solib, o'quvchilar diqqatini butunlay o'ziga qaratadi;

3) rivojlantirish: turli ta'lim metodlari yordamida, psixologik bilimlar asosida o'quvchilarning bilish, mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirishda rivojlantirish metodidan foydalaniladi;

4) kasb-hunarga o'rgatish: o'qituvchi fanni o'rgatish, o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash, ongli mehnat kishisiga xos sifatlarini singdirishda kasb o'rgatish metodini qo'llaydi;

5) qiziqishlarini orttirish: o'qituvchi yuqoridagi barcha fazilatlar asosida ijodkorlik his-tuyg'ularini o'stirishda zarur bo'lgan usullardan foydalanadi.

O'rta maktabda o'quvchilarni kasb-hunarga jalb qilishda yuqoridagi ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish zarur hisoblanib, bunga alohida diqqat-e'tiborimizni qaratmog'imiz lozim. Aks holda kutilgan natijaga erishib bo'lmaydi. Vaholanki, o'qituvchi bolalar psixologiyasini yaxshi bilib, ularning qiziqish va orzulari bilan yaqindan tanish bo'lmog'i kerak.

Bu hol har qanday fan o'qituvchisi uchun juda zarurdir. O'qituvchi o'tayotgan dars mazmunidan o'zi ta'sirlanishi; o'zidagi bu holatni o'quvchilarga ko'chirib, bolalar



qalbini to'qinlantirib, ularda oliyjanob axloqiy sifatlarni o'stirishi lozim. Mana shunday darslardan so'ng o'quvchi fanga va o'qituvchiga nisbatan hurmat bilan qaraydi. Shu tarzda o'qituvchi o'zi bilmagan holda o'quvchilarni kasbga yo'llaydi.

Kasb-hunar tanlashda o'quvchilarga ko'proq «Kasbim - faxrim», «Hunari bor – xor bo'lmas», «Yigit kishiga qirq hunar oz», «Hunar – hunardan unar» kabi mavzularda suhbat darslari o'tkazib borish maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga mehnat qahramonlari, kasb-hunar egalari bilan tez-tez uchrashuvlar, kechalar tashkil etish ham o'quvchilarda kasbga bo'lgan qiziqishni uyg'otishda katta ahamiyatga ega.

Buning uchun o'qituvchi artistlik mahorati va notiqlik san'atidan xabardor bo'lishi shart: pedagoglik kasbini sevish; uning ijtimoiy yimini yaxshi anglash; bolaga o'z faoliyatining ob'ekti va sub'ekti sifatida qaray bilish; pedagogik kuzatuvchanlik va ziyraklik; pedagogik nazokat; pedagogik ijodiy xayol; tashkilotchilik qobiliyati kabilar.

O'qituvchida yuqoridagilardan tashqari kasbiy sifatlar shakllangan bo'lishi muhimdir:

1) pedagogik-psixologik kuzatuvchanlik. Bu sifatga ega bo'lgan o'qituvchi bolalarning individual xarakter hislatlari, nimaga moyilligi, o'qitish jarayonida qanday usullardan foydalanishi mumkinligiga asosiy e'tiborni qaratadi.

2) nutq madaniyatiga ega o'qituvchi o'z fanini aniq va yaxshi biladigan, ravon, samimiy, mantiqli, ishonchli so'zlar orqali asosli singdirishga erishadi;

3) ekspressiv qobiliyatli o'qituvchi: nutqi tiniq, ifodali, xarakterli mimikalarga boy, muomalada yoqimli va muloyim so'zlasha oladigan sifatlari bilan farqlanadi;

4) san'atkorlik mahorati: bunda o'qituvchi o'quvchilarni optimistik ruhda tarbiyalashga erishadi;

5) haqqoniy, talabchan o'qituvchi yoshlarga munosabatda ob'ektiv bo'ladi. Natijada o'qituvchining aytgan so'zlariga o'quvchilar ishonch bilan qaraydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Содействие реформированию системы непрерывного образования Республики Узбекистан. –Т.: Молия, 2000. –С. 80.

2. Педагогика профессионального образования. Учеб.пособие для студентов высших профессиональных учебных заведений. Под.ред. В.А. Сласс-тенина. –М.: Изд. Центр «Академия», 2004, -368 с.

3. Александров Г.Н., Шарипова Ф.В. Проблемы формирования модели личности специалиста. –М.: Знание, 1984. 106 с.



UZLUKSIZ TA'LIM MUASSASALARI ORASIDAGI UZVIYLIK VA UZLUKSIZLIK

SH. BOYCHAYEVA,

Sirdaryo VXTXQTMOHM o'qituvchisi

Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim bosqichlari orasidagi uzluksizlik va uzviylik muammolari haqida fikrlar bayon etilgan.

Tayanch so'z va iboralar: *uzviylik va uzluksizlik, ilk maktabga yo'l, o'qituvchi-pedagog va tarbiyachilarning ota-onalar bilan o'zaro hamkorligi, yagona ta'lim jarayoni.*

This article highlights the connection between pre-school education with school stage. And nurses and teachers are responsible for this process. These all are given in this article.

Key words: *the connection nursery stage with pre-school education, the first step to the school are only the process of study.*

В данной статье ведётся речь о проблемах преемственности и непрерывности между дошкольной и школьной образованиями.

Ключевые слова: *преемственность и непрерывность, первый школьный порог, инициативность, сотрудничество педагогов-родителей и воспитателей, единственный образовательный процесс.*

Respublikamizda amal qilayotgan uzluksiz ta'lim tizimining birinchi – maktabgacha ta'lim bosqichida bolalarni jismoniy, ma'naviy, aqliy, ahloqiy va estetik tarbiyalash vositasida maktab ta'limiga tayyorlash lozimligi “Ta'lim to'g'risida” gi Qonunning 11-moddasida belgilab qo'yilgan.

Davlat va jamiyat tomonidan maktab oldiga qo'yilgan eng muhim vazifalardan biri – buhayotda o'zini munosib o'rini topa oladigan shaxsni shakllantirish, o'zi va o'z yaqinlariga nisbatan mas'uliyatli bo'la olishga qodir insonni o'stirishdir. Biroq qator muammolar mavjudki, ularni xal etmay turib bu ijtimoiy talabni bajarib bo'lmaydi. Bu muammo maktabgacha ta'lim muassasasi va maktab o'rtasida uzviylik va uzluksizlikni etarlicha ta'minlanmaganida ham o'z aksini topadi.

Ilk maktab ostonasi bola uchun hayotdagi o'ziga xos o'zgarishlar davri hisoblanadi. Aynan shu ostonadan bolaning rivojlanishidagi yangi bosqich boshlanadi. Unga oldingi faoliyat shaklidan farq qiluvchi holatlarni o'zlashtirishga, tengdoshlari va kattalarga nisbatan o'ziga munosabatni ishlab chiqishga fiziologik jihatdan qayta moslashishga to'g'ri keladi. Bu jarayon bolaga murakkablik tug'dirmasligi uchun qanday yo'l tutish lozim? Mazkur savolga javobni bolalar bog'chasi bilan maktab o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlash orqali topish mumkin.

O'z ish jarayonida tarbiyachi bolaning maktabda o'kishga tayorgarligi, aqliy faoliyatga bo'lgan qobiliyati, nutqining holati, uning umumiy rivojlanish



xususiyatlari kabilarni nazorat qilib boradi.

Maktabgacha tarbiyalanuvchilar va maktab o'quvchilari faoliyati o'rtasidagi uzviy aloqadorlik muammosi barcha davrlarda ham dolzarb hisoblanib kelgan.

Uzviylik va uzluksizlik tushunchalarining mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, uzviylik – rivojlanish jarayonidagi eski va yangi o'rtasidagi ob'ektiv zaruriy aloqa hisoblanadi. Ta'limning uzluksizligi deganda ta'limning har bir bosqichida tizimning barcha komponentlarini (maqsad, vazifa, mazmun, metod, vosita, ta'lim-tarbiyani tashkil etishning shakli) o'zaro muvofiq kelishi va istiqbolda ta'lim-tarbiya jarayonida shu zaruriy aloqani ta'minlanishi tushuniladi. SHunday qilib, uzviylik – bu faqat yangilikka tayyorgarlikning o'zi emas, balki eskidagi zaruriy va maqsadga muvofiq bo'lganini saqlab qolish va rivojlantirish, ya'ni yangi va eski o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlash sifatida ham qaraladi. Pedagogik atamalar lug'atida uzluksiz ta'limga "o'zaro mantiqiy izchillik asosida bog'langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va bir-birini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta'lim tizimi", deb ta'rif berilgan [3].

Maktabgacha ta'lim muassasasi va maktab o'rtasidagi uzviylik bolaning uzluksiz ta'lim olishining shartlaridan biri sifatida qaraladi va bilimlarni bola tomonidan mustaqil egallanishi, uni qo'llay olishiga tayyorgarlik darajasi bilan belgilanadi.

Bolani maktabga tayyorlashdagi eng etakchi maqsad, maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchida o'quv faoliyatini to'liq egallashi uchun zarur bo'ladigan sifatlarni, ya'ni, bilishga intilishi, tashabbuskorligi, mustaqilligi, erkinligi, o'z-o'zini ijodiy namoyon qila olishi kabilarni shakllantirishdan iborat. Bilim, ko'nikma va malakalar uzluksiz ta'lim tizimida bolani rivojlantirishdagi eng muhim vosita sifatida qaraladi. Uzluksizlik va uzviylik ta'limning samaradorligini ta'minlab beruvchi omil sifatida qaraladi.

Uzviylik tushunchasi har bir yosh davri uchun o'ziga xos va umumiy maqsadlarga ega bo'lgan bolaga ta'lim-tarbiya berishda uzluksiz jarayon sifatida juda keng qamrovga ega. Bu yangi holatiga o'tish davrida mohiyati ayrim elementlarni saqlab qolishga qaratilgan rivojlanishning turli xil darajalari o'rtasidagi aloqadir. Maktab va maktabgacha ta'lim muassasalari o'rtasida uzviylikni amalga oshirishda asos sifatida quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

pedagog-tarbiyachilar va ota-ona hamkorligida bolalarning sog'ligi va jismoniy rivojlanishi holatini muntazam nazorat qilib borish;

bolalar bilish faolligi, motivining rivojlanish darajasini takomillashtirish;

aqliy va ma'naviy qobiliyatlarini muntazam o'stirib va shakllantirib borish;

o'quvchilarda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirib borish;

ta'lim sub'ektlarining kommunikativ qobiliyatlarining rivojlanishi, ya'ni kattalar va tengdoshlari bilan muomala qilish qobiliyatlarini shakllantirish.

Ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan mashg'ulotlar o'tkazish va tashkil etishning eng maqbul shakli o'yin hisoblanadi. O'yin – maktabgacha



yoshdagi bolalarni psixologik va shaxs sifatida rivojlanishlari uchun eng qulay sharoitlarni yaratadigan faoliyat turidir. O'yin jarayonida bola xali o'zi bilmagan narsani qilaolishga intiladi. Faqat rivojlangan o'yin faoliyati doirasidagina bolalarda o'quv faoliyatining boshlang'ich bosqichlari shakllanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda eng ko'p e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jiddiy masalalardan biri bu – bolalar tomonidan madaniy-gigienik malakalardan boshlab murakkab kommunikativ malakalarning egallashga bo'lgan ijtimoiy malakalarni shakllanishidir.

Bog'cha yoshidayoq bolalar mustaqil ravishda xulq-atvor qonun-qoidasini o'zlashtirishni boshlaydilar.

Bog'chada bolada bilim asoslarini shakllantirish bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan ish olib boriladi. Bular qandaydir faoliyat turi bilan kattalar talabi bo'yicha emas, balki o'z xoxishicha, umumiy ishdagi muvaffaqiyatiga ko'ra uchun shug'ullanishadi. Bu ko'nikmalar maktabning boshlang'ich sinfida bolalarni o'quv faoliyatidagi o'zaro ta'sir etish jarayonida faol shakllanishda davom etadi.

Maktabgacha va maktab davridagi ta'limning o'zaro uzviyligini ta'minlash muhim masalalardan hisoblanadi. SHunga muvofiq maktabga va maktab ta'limi o'rtasida uzviylikni ta'minlashning ko'maklashuvchi quyidagi yo'nalishlarini tavsiya etamiz:

pedagog va tarbiyachilarning metodik ishini takomillashtirish;

ota-onalar bilan ishlash tartibini yo'lga qo'yish;

maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilar va maktab o'quvchilari bilan muntazam ravishda ishlash.

Demak, maktabgacha ta'lim muassasalari va maktab ta'limi bir-biriga o'zaro bog'langan bo'g'inlardir. Ularning vazifasi – bolaga uning hayotida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan qiyinliklarni engib o'tish imkonini berishgina emas, balki bularning amaliyotini ta'minlab berish hamdir. SHuningdek, tibbiyot xodimlari va bolalar poliklinikasi, bog'cha va maktabning korreksion-psixologik yordami, oila va bog'cha, oila va maktab, hamkorligi, barcha harakatlarning mobillashuvi bog'cha va maktab pedagoglarining o'zaro hamkorligi, maktabgacha ta'lim muassasasi va maktab o'rtasida uzviylik va uzluksizlikni ta'minlashda juda muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиёти пойдевори. Тошкент: Ўзбекистон-1997 й.
2. Каримов И.А..Юксак маънавият – энгилмас куч. Тошкент “Маънавият”2009 й.
3. Педагогик атамалар лўфати. Тошкент Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан”нашриёти. 2008 й. 1336.
4. Тарбия энциклопедияси. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. Тошкент-2010 й.



UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIDA DARSNI TAHLIL QILISH TEXNIKASI VA ULARNI AMALIYOTDA QO'LLASH

SH. MAMARAJABOV,
TDIU p.f.n, dotsent
J. XALMURATOVA,
TTYeSi

Ushbu maqola uzluksiz ta'lim jarayonida dars tahlilini amalga oshirish va ularga quyiladigan pedagogik talablar masalasiga bag'ishlangan.

Tayanch so'z va iboralar: Dars kuzatuv va tahlili, pedagogik faoliyat, kommunikatsion texnologiyalar, mahorat, ilmiylik, integratsiya.

Данная статья посвящена осуществлению анализа обучения в процессе непрерывного образования и поставленным задачам педагогического требования.

Ключевые слова: Анализ и наблюдение урока, педагогическая деятельность, коммуникативные технологии, мастерство, научность, интеграция.

This article is devoted to the analysis of learning in the process of continuing education and the objectives of the pedagogical requirement.

Key words: analysis and observer of lesson, pedagogical work, communication technologies, skillfully, scientific, integration

Dars kuzatish va tahlil qilish orqali o'quvchilarning umumiy tayyorgarligi, bilim olishdagi faoliyati, o'quv faniga bo'lgan qiziqishi, diqqat bilan ishlashi, matn, xarita, jadval, asboblarni mustaqil ishlay bilishi, o'qituvchiga bo'lgan munosabati aniqlanadi. Shu bilan birga o'qituvchining faoliyati ham tahlil qilinadi. Chunonchi, o'qituvchining o'quv dasturi materiallarini bilish darajasi, yangi mavzuni tushuntirish jarayonida asosiy fikmi ajratib olishi, ilmiylik va soddalik, ko'rgazmalilik tamoyillariga rioya qilishi, dars maqsadini to'g'ri qo'yishi, dars jarayonini to'g'ri rejalashtirishi, darsda hamkorlikka erisha olishi, bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni nazorat etishi, o'quvchilar bilan yakka va jamoada ishlashni tashkil etish, dars mobaynida vaqtdan unumli foydalanishi va pedagogik muomala madaniyatini egallaganlik darajasi kabi jihatlarni inobatga olinadi [1].

Pedagogik faoliyatda amalga oshirilgan ko'p yillik ish tajribalari va kuzatishlar, o'qituvchi hamisha o'z ustida ishlashi, bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirib borishi lozimligini ko'rsatadi [3]. O'qituvchi pedagogik mahoratining kundan-kunga o'sib borishi, o'quv jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llay olishining kuchayishi uning pedagogik faoliyatida amalga oshadi. O'qituvchi faoliyatining qanchalik samarali ekanligini, uning mahoratini kuzatish, o'tayotgan darslarini tahlil qilish orqali bilish mumkin. Dars tahlili – o'quv jarayonini bir butun yaxlit holda yoki muayyan bo'laklarga bo'lib baholash [2].

Dars tahlili – bu tekshiruvchi, o'quv muassasasi rahbari, uslubchining ijodkorligi,



novatorligi bo'lib, u faqat o'qituvchi mehnati natijasini baholabgina qolmay, uni tarbiyalaydi, o'qituvchini bilim va mahoratini kengaytiradi, yangi ish shakli va metodlarni egallashga ko'maklashadi. Shu sabab, o'qituvchi darsiga kirish va tahlil qilishni maqsad qilib qo'ygan pedagog, avvalambor, dars tahliliga kirguncha, dars tahliliga kirish va uni kuzatish vaqtidagi hamda dars tugagandan keyingi harakatlarni aniq belgilab belbilab olishi kerak. Bu harakatlarni to'rt guruhga bo'lish mumkin:

1. Dars tahliliga kirgungacha tayyorgarlik.
2. Dars tahliliga kirish va kuzatish.
3. O'tkazilgan darsni tahlil etish.
4. Darsni tahlil qilayotgan shaxsning etikasi va madaniyati.

Dars tahliliga kirguncha tayyorgarlik quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- dars o'tkazuvchi o'qituvchi faoliyati bilan tanishish; - dars mavzusi va uning mazmuni, dars jadvali, o'qituvchi guruh faoliyati bilan tanishish;
- oxirgi marotaba kimlar, nima maqsadda shu o'qituvchi darsiga kirishganini, ularning tahlili xulosalari bilan tanishish;
- so'ngra darsga kirish haqida fikr bildirish va maqsadni belgilab olish hamda o'qituvchini ogohlantirish;

Dars tahliliga kirish vaqtida

Darsga kech qolmaslik, dars o'tiladigan o'quv xonasiga qo'ng'roq chalinishidan oldin kirib joylashish, sinf xonasi va o'quvchilar jamoasiga moslashish, sinf xonasining jihozlanishi sanitariya holati, o'quvchilarning darsga tayyorligi, tashqi ko'rinishlari, darsning o'quv metodik ishlari hujjatlari bilan tanishish. O'qituvchi darsga kirganda qo'lida sinf jurnali, o'quv dasturi, taqvim-mavzu rejasi, darsning texnologik xaritasi bo'lishi kerak, kuzatuvchilar dars boshlangunga qadar kerakli hujjatlar bilan tanishib olishlari shart.

Dars jarayonini kuzatish vaqtida

O'qituvchining darsga kirib kelishini kuzatish, kerakli yozuvlar, taklif va tavsiyalarni daftarga qayd qilib borish, darsni to'liq kuzatish, dars jarayonida o'quvchilarning o'quv predmeti bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarini aniqlash va amaliyotda qo'llay olishlariga diqqatni qaratish, o'quvchilarning mustaqil faoliyatlarining tashkil etilishi, harakatlarining jadalligi hamda fanlararo integratsiyaning tashkil etilishi, sinfdagi psixologik muhitning va vaziyatni boshqarish tahlil jarayonida nazardan chetda qolmasligi kerak.

Darsdan keyingi tahlil

Bu – faqatgina o'qituvchining yutuqlari, kamchiliklarini toppish va uni qog'ozga tushirish emas, balki o'qituvchining pedagogik mahoratiga ijobiy ta'sir ko'rsatish va yangicha yondashuvni shakllantirishda, uning o'ziga usuli, metodlarini tanlash va qo'llay olishida hamda o'quv tarbiya jarayonini takomillashtirishda muhim vositadir.

O'qituvchining darsi va uning faoliyatiga bir dars tahlili bo'yicha xulosa



chiqarib bo'lmaydi. Uning faoliyatiga biror bir fikr bildirish yoki tanqidiy baho berish uchun uning turli metoddagi bir necha darsini kuzatish kerak. Darsni kuzatuvchilar, avvalo, o'zlari shu kundagi ta'lim tizimi va undagi yangicha yondashuvlar, darslarga qo'yilgan zamonaviy talablar, dars jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishni, didaktik va uslubiy qarashlar, pedagogik texnologiya va interfaol metodlardan xabardor bo'lishlari kerak.

Dars tahlili o'quv mashg'ulotini kuzatish, o'rganish shaklida olib boriladi.

Buning uchun, eng avvalo, darsga kirishdan maqsad nimadan iborat ekanligini aniqlab olish zarur. Dars quyidagi maqsadda kuzatiladi va tahlil qilinadi:

- ta'lim va tarbiya jarayoni sifatini aniqlash;
- o'qituvchining pedagogik mahoratini oshirishga yordam berish;
- ilg'or ish usullari va metodlarini o'rganish va ommalashtirish;
- o'qituvchilarning o'zaro tajriba almashishi;
- o'quvchilarning bilimi va tarbiyalanganlik darajasini aniqlash;
- ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish;
- o'quvchilarning bilish faoliyatini o'rganish;
- dars jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xato va kamchiliklarning oldini olish, o'qituvchiga amaliy va metodik yordam ko'rsatish;
- ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar psixologik xususiyatlarini o'ziga xosligini e'tiborga olish;
- darsda o'quvchilarni faollashtirish va mavzuni o'zlashtirishlarini e'tiborga olinganligi.

Umumiy pedagogik tahlil – darsdagi hamma jihatlarining qisqa va yengil ko'rinishidagi tahlilidir.

Darsni umumiy pedagogik jihatdan tahlil qilganda quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir:

1. O'quv xonasi yoki sinf xonasining dars o'tishga tayyorgarlik holati (dars jihozlari).
2. O'quv xonasi yoki sinf xonasining sanitariya-gigiyena holati.
3. Dars mavzusi va uning ta'limiy, tarbiyaviy maqsadi.
4. O'qituvchining mazkur darsga ilmiy-metodik va pedagogik jihatdan tayyorlanganligi darajasi.
5. O'qituvchining darsni tashkil etish va dars bosqichlaridan to'g'ri foydalanishi.
6. O'qituvchining o'quvchilarga ta'lim – tarbiya berishida pedagogik jihatdan namunali shaxs darajasiga ko'tarila olganligi.
7. O'quvchilar bilimiga qo'yiladigan bahoning adolatli va izohli bo'lishi.
8. O'quvchilarning darsdagi faolligi, intizomi, mustaqil fikr yuritishi hamda mazkur fan asoslarini o'zlashtirib olganlik darajasi.
9. O'quvchilarning darsga munosabati va hurmat bilan qarashi.



10. O'qituvchining darsdagi boshqaruvchilik roli va ish uslubi.
 11. O'qituvchining dars mavzusini ta'lim- tarbiyaga bog'lashi.
 12. Dars jarayonida yoki yangi mavzuni bayon qilishda o'lkashunoslik materiallaridan foydalanishi.
 13. Darsda o'quvchilarning sifat o'zlashtirishi.
 14. O'qituvchining darsdagi ta'limiy va tarbiyaviy maqsadiga to'liq erisha olganligi.
 15. O'qituvchining ilmiy, metodik va umumpedagogik jihatdan yordamga ehtiyoji kabilar.
- Darsni psixologik-pedagogik jihatdan tahlil qilish tizimi:
- I. Darsning aniq maqsad va vazifalarga bog'liq ravishda tuzilishiga psixologik baho berish.
 - a) darsning mavzusi, maqsad va vazifalari:
 - b) darsning tuzilishi va uning psixologik jihatdan maqsadga muvofiqligi.
 - II. Darsning mazmuniga psixologik jihatdan baho berish:
 - a) o'quv materiallarining sifati (tasvirlovchi, tushuntiruvchi, ko'rgazmalilik, aniqlik, mavhumlik va umumlashganlik darajasi);
 - b) o'quvchining bilish faoliyatini rivojlantirish, o'quv axborotini idrok etishi (obrazli, og'zaki mantiqiy xotirani, xayoliy tafakkurni, hayotini). U qanday his-tuyg'ularni uyg'otadi?
 - v) mazkur material o'quvchilar bilish faoliyatining yosh xususiyatlariga, ularning hayotiy tajribasi va bilimlari darajasiga mos kelishi;
 - g) o'qituvchining murakkab o'quv materialini mazkur yoshdagi o'quvchilarning idrok etishi uchun qulay, tushunarli va qiziqarli uyushtirish (bayon qilishning ravshanligi va oddiyligi, yorqin misollar, o'xshatishlar, qiyoslashlarning mavjudligi, ko'rgazmali materiallardan foydalanishi, hayot bilan bog'lashi).
 - d) o'rganilayotgan materialning tarbiyaviy ta'siri (axloqiy, estetik va h.k.).
- O'qituvchi uning tarbiyaviy imkoniyatlarini qay darajada amalga oshiradi? [1]
- O'qituvchining darsini bir necha marta kuzatish va tahlil qilish, uning pedagogik mahorati, ish tizimi, o'quvchilarining o'zlashtirishi, bilim darajasi kabi sohaviy va kasbiy layoqati yuzasidan xulosa chiqarish imkonini beradi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Tashmetova Sh., Xushnazarova M. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – T.: TDPU, 2012.
2. Abdukarimov X., Suvonov O. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O'quv-metodik qo'llanma. - T.: Mumtoz soz, 2010. -75 b.
3. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008.



UZLUKSIZ TA'LIMDA O'QUV MATERIALI USTIDAGI SAMARALI FAOLIYATNI TASHKIL ETUVCHI JIHATLAR

M.U. TUYCHIEVA,

Toshkent davlat texnika universiteti o'qituvchisi, (PhD)

Maqolada cavol va topshiriqlarning berish yo'sini adabiyotga bo'lgan munosabatga ta'sir etish tadqiq etilgan. O'quvchilar qiziqishini hosil qilishdagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Yetakchi metodist olimlarning savol va topshiriqlar bilan ishlashga doir fikrlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: savol va topshiriqlar, badiiy matn, o'quv materiali, o'quv jarayoni, badiiy asar tahlili.

В статье изучено влияние способа постановки вопросов и заданий в литературе. Подчеркивается роль и важность стимулирования интереса учащихся. Изучены взгляды ведущих ученых-методистов на работу с вопросами и заданиями.

Ключевые слова: вопросы и задания, художественный текст, учебный материал, учебный процесс, анализ художественного произведения

In this article the influence of the method of posing questions and tasks in the literature has been studied. The role and importance of stimulating students' interest is emphasized. The views of leading scientists-methodologists on working with questions and tasks have been studied.

Key words: questions and tasks, artistic text, study materials, study process, analysis of work of art.

Taraqqiyot tezlashgan bugungi davrda o'quv materiallari metodik, texnik-texnologik jihatdan muttasil takomillashtirilib borilmoqda. Adabiyot o'qitish jarayonining emotsionalligini oshirish uchun darsda o'quvchining to'liqlanishiga, qiziqishiga imkoniyat yaratuvchi, ularda yorqin, yaqin kechinmalar uyg'otuvchi materiallar berilishi mashg'ulotning saviyasini ko'tarish bilan birga uning o'quvchilar uchun sevimli darsga aylanishiga asos bo'lishi mumkin.

O'quv materiallari o'z mazmun-mohiyati, badiiy jihatiga ko'ra o'quvchilarga o'zbek xalqining tarixiy an'analari, ma'naviy qadriyatlari va madaniyati haqida ma'lumot berish bilan birga ularning badiiy estetik didini o'stirishga, ularda shaxslik sifatlarini shakllantirishga, dunyoqarashining boyishi va kengayishiga xizmat qilishi kerakligini nazarda tutish ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Professional tanlangan o'quv materiali ustida yetarlicha foyiat tashkil etish ham mashg'ulot uchun muhimligi tufayli metodist olimlar bu borada o'z tavsiyalarini ishlab chiqishgan. Xususan, professor S. Matchanov o'quvchining o'quv materiali ustidagi faoliyati quyidagi jarayonni qamrab olishini aytadi:

1. Tayyorgarlik davri. Bu bosqichda o'quvchilar darslik-majmuada berilgan asarlar muallifi, sarlavhasi, epigrafi, janri, bo'limlari bilan tanishadi, uning o'tilgan mavzular bilan aloqasini aniqlaydi.

2. Bilimlarni o'zlashtirish. Bu bosqichda asosiy matnni o'qib o'rganish orqali mavzuni o'zlashtirish yo'lidani boriladi. Matnda ajratib ko'rsatilgan nazariy tushunchalar bayoni va xulosalarga alohida e'tibor beriladi. Ilova qilingan rasm va jadvallarning mavzu aloqasi o'rganiladi. Tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlar izohlanadi.

3. Bilimlarni mustahkamlash. Bu jarayonda o'qib o'rganilgan matn mazmuni hikoya qilinadi. U to'la o'zlashtirilmagan taqdirda qayta o'qiladi. Matn oxiridagi savol va topshiriqlar ustida ishlanadi. Zarurat sezilganda matn yuzasidan reja tuziladi, konspekt yoziladi.

4. Yakuniy bosqich. Matnda ilgari surilgan asosiy fikr, yetakchi g'oya oldingi darslarda yoritilgan masalalar bilan taqqoslanadi. O'rganilgan bilimlar umumlashtiriladi va xulosalanadi [1; 92-b.].

Adabiyotni chuqur o'rganishda darsliklarda adabiy-nazariy tushunchalarning berilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda ularni o'zlashtirishni metodik jihatdan to'g'ri tashkil qilish ham alohida e'tiborga molikdir. Adabiyot o'qitish metodikasi ilmi buning uchun bir necha shartlar bajarilishini nazarda tutadi.

Adabiyot darslarida badiiy asarlarning o'quv tahlili jarayonida muallifning asar qahramonlari shaxsiyatini ochishga qaratilgan leksikasiga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Chunki bu leksika o'quvchilarda badiiy asarda aks etgan axloqiy-estetik jihatlarga signal vazifasini o'taydi. Shunday leksikani nazariy bilimlar yordamida chuqur o'zlashtirish, qahramonlar xarakteriga xos bo'lgan insoniy jihatlarni teran anglab olish ularning ma'naviyatida o'chmas iz qoldiradi. Bunday nazariy bilimlar o'quvchilarda: atamalarni to'g'ri o'zlashtirish va qo'llash, so'zning leksik ma'nosini anglash, uning grammatik ahamiyatini o'rganish hamda uni eslab qolish kabi ko'nikmalarning shakllanishiga olib keladi.

Adabiyot darslarida badiiy matnlarning o'quvchi tomonidan to'liq o'zlashtirilishini ta'minlaydigan muhim omillardan biri ularning mazmun-mohiyati yuzasidan tayyorlanadigan savol va topshiriqlardir.

Professor Q. Yo'ldoshev savol va topshiriqlarga alohida to'xtalib: "Yangilangan adabiy ta'lim "Adabiyot" darsliklarida savol va topshiriqlar keng o'rin tutishini taqozo qiladi. Negaki, darsliklardagi matn bo'yicha tuzilgan savollar badiiy adabiyotning mohiyatini ochishga qanchalik xizmat qilsa, bolalarni matn



jozibasini his etishga nechog'lik yo'naltirsa, badiiy asarni o'rganishdan kuzatilgan maqsad shunchalik to'liq amalga oshgan bo'ladi", deydi [2; 148-b.].

Savol va topshiriqlarga to'xtalgan Q.Xusanboeva ularni: "topshiriq, ijodiy muammoli savol, asar ustida mustaqil, maqsad sari izlanish yo'lidagi faoliyat xarakterini belgilaydigan ochqich", -deb ta'riflaydi [3; 52-b.]. Matnga nisbatan joylashishiga ko'ra savol va topshiriqlarni ikki turga ajratadi: 1. Adabiy matnni o'qishgacha bo'lgan davrda beriladigan topshiriqlar; 2. Adabiy ta'lim bilan tanishib bo'lingandan keyin beriladigan savol va topshiriqlar. R. Niyozmetova savol va topshiriqlarni bajarish usuliga ko'ra uch xil tayyorlashni ko'zda tutadi: 1. Sinfdagi barcha o'quvchilar uchun mo'ljallangan savol va topshiriqlar. 2. Guruhga mo'ljallangan savol va topshiriqlar. 3. Yakka o'quvchiga mo'ljallangan savol va topshiriqlar" [4; 54-b.].

H. M. Suyunov o'quvchilarning darslik va darslik-majmualarda berilgan o'quv materialini to'laroq o'zlashtirishlari uchun beriladigan savol-topshiriqlarni quyi va yuqori sinflarda turlicha bo'lishini ta'kidlab: "quyi sinflarda badiiy syujet, kompozitsiya, konflikt, adabiy qahramon kabi adabiy-nazariy tushunchalar bilan bog'liq asar mazmunini qayta hikoyalashga doir savol-topshiriqlardan foydalanilsa, yuqori sinflarda referat, insho, ma'ruza matni, taqriz kabi mustaqil ish turlarining sarlavhasigacha ko'tarilgan savol-topshiriqlar muhim o'rin tutadi", - deydi [5; 96-b.].

Professor S. Matjonov: "Darsliklarda berilgan savol-topshiriqlar bilimlarni aniqlash, umumlashtirish, chuqurlashtirish va mustahkamlashga, bayon etilgan tushuncha-fikrlarni baholashga, shu tariqa o'quvchilarda ijodiy fikrlash ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi", - deydi va savol va topshiriqlarni quyidagicha tasniflaydi:

1. Matn mazmunini aniqlashga doir savol va topshiriqlar.

2. Matn qismlari o'rtasidagi ma'no jihatdan bog'liqlikni o'rganishga, matnda bayon etilgan masalalarga muallif nuqtai nazarini aniqlashga, tilga olingan misollarni tanqidiy baholashga qaratilgan savol va topshiriqlar.

3. Matnni tashqi jihatdan (yuzaki) o'rganishga doir savol-topshiriqlar" [1; 106-b.].

Savol va topshiriqlarning matn tagzaminidagi ma'noni anglashdagi ahamiyatini nazarda tutib o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatadigan savol va topshiriqlar tuzishga alohida e'tibor berish zarur deb hisoblaydi va buni amalga oshirish uchun:

1) matn mazmunini estetik tarbiyaviy jihatdan o'zlashtirish;



2) matnda yoritilgan masalalarga muallif nuqtai nazarini aniqlash;

3) matnda ifodalangan voqea-hodisalar o'rtasidagi sababiy bog'lanishni o'rganish;

4) bir mavzuga yoki bir yozuvchi ijodidagi asarlar o'rtasidagi aloqadorlikni belgilash;

5) matnda tilga olingan misollarni, g'oyalarni tanqidiy baholash kabi holatlarni diqqat markazida tutish zarur, deb hisoblaydi [1; 145-b.].

Olim savol-topshiriqlarni mazmun mohiyatiga ko'ra to'rt guruhga ajratadi:

1. Asarlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini o'rganish va umumiy mazmunini o'zlashtirishga doir savol va topshiriqlar.

2. O'rganilgan adabiy-nazariy tushunchalarni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar.

3. Adiblarning hayoti va ijodiy faoliyati yuzasidan berilgan ma'lumotlarni o'zlashtirishga doir savol va topshiriqlar.

4. Asar voqealari misolida o'quvchilarning hayotga munosabatini aniqlashga doir savol va topshiriqlar.

O'quvchilarda o'z ishiga ijodiy yondashish, muammoli vaziyatlarga yechim topa olish, mustaqil qarorlar qabul qilish malakalarini rivojlantirishni ko'zda tutadigan kreativlik kompetentsiyasiga muvofiq mustaqil o'qishga, izlanishga undaydigan savol va topshiriqlarni berish lozimdir. Savol va topshiriqlarining xilma-xilligi Davlat ta'lim standartida ta'lim oluvchilarga "...badiiy matnni emotsional tarzda idrok etish va qabul qilishni, obrazli va analitik tafakkur va ijodiy fikrlashni, kitobxonlik madaniyatini, adabiyotning boshqa san'at asarlari bilan yaqin va farqli jihatlar haqidagi tasavvurlarini, ularning og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish" kabi minimum talablarning bajarilishini ta'minlaydi.

Shuningdek, savol va topshiriqlarning shakliga ko'ra turlari ham turlicha bo'lishi o'quvchida qiziqishni so'ndirmaslikka xizmat qiladi. "Agar siz bo'lganingizda: ...", "bir asar qahramon o'rnida ikkinchi bir asar qahramoni bo'lganda", "...asarning janr xususiyatlarini izohlang", "...ning asarlarini sanang", "...asarlaridagi muallifning o'ziga xos xarakter xususiyatlarini ko'rsatish" tarzidagi savol va topshiriqlar muammoli vaziyat yaratadigan, izlanishga undaydigan, nazariy ma'lumotni mustahkamlaydigan, yozuvchi hayoti va ijodining o'ziga xosligini ko'rsatishga doir bir shakl(qolip)dagi savol va topshiriqlarning muntazam berilishi o'quvchida ko'nikma hosil qiladi. Keyinchalik o'zi mustaqil qahramonlarni taqqoslay boradi. Ko'nikma malakaga aylanadi



Umuman, yozuvchi yoki shoirming tarjimai holi, asarlar va ularning mazmun-mohiyati va janrlarini o'rganishga doir tuzilgan savol va topshiriqlar shunday tayyorlanishi kerakki, ularga javob berishda o'quvchi matndan jumlar o'qib berish bilan cheklanmasin. U savolga javobni o'z so'zi bilan ifodalashga "majbur bo'lsin". Matn mazmunini qayta hikoya qilish bilan cheklanmasin. Matndagi hodisalarga o'z munosabatini bildirsin. Maktab o'quvchilarining psixologik xususiyatlarining tadqiqi ularda qiyoslashga moyillik kuchli bo'lishini ko'rsatdi. Shu sababli o'quvchini asar qahramoni bilan yoki ikki asar qahramonlarini solishtirishga doir savol va topshiriqlar tuzishga e'tibor berish lozim bo'ladi.

Savollarga javob berishdan oldin o'quvchi matnga qayta-qayta murojaat qilsin, xayolan muhokama qilsin, fikrlasin. Qahramonning o'miga o'zini qo'yib ko'rsin. Uni o'zi va o'rtoqlari bilan taqqoslasin. Tuzilgan savollar ko'p jihatdan badiiy matndagi jozibani ochishda o'quvchiga yordam bersin. Savol va topshiriqlar zaminida o'quvchini tekshirish, uni baholash maqsadigina emas, balki uni badiiy matnni kashf qilish, asar ustida ishlash, matndan olgan badiiy zavqni, jozibani o'z so'zi bilan ifodalash, asar yuzasidan fikr bildirishga, mustaqil izlanishga o'rgatish ekanligi etibordan chetda qolmasligi lozim. Ana shunda matnlar yuzasidan tuzilgan savol va topshiriqlar adabiyot o'qitishdan qo'yilgan maqsadga xizmat qilgan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Matchanov S. Umum ta'lim tizimida adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etish. Ped. fan. dokt.... diss. – T., 1998. – 306 b.
2. Yo'ldoshev Q. B. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. dokt. ... diss. – T., 1997. – 306 b.
3. Husanboeva Q. P. Adabiy ta'lim jarayonlarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. dokt. ...diss. – T., 2006. – 262 b.
4. Niyozmetova R. X. Uzlaksiz ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini o'rganishning nazariy va metodik asoslari (rus tili guruhlarida misolida). Ped. fan. dokt. ...diss. – T., 2007. – 242 b.
5. Suyunov H. M. Adabiyot darslarida o'quvchilarni savol va topshiriqlar ustida ishlashga o'rgatish usullari (umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5 – 9-sinflari misolida). Ped. fan. nomz....diss. – T., 2005. – 147 b.



СУЩНОСТЬ МОДЕЛИ ФОРМИРОВАНИЯ ИНИЦИАТИВНОСТИ У ОБУЧАЮЩИХСЯ

Н.Н.ДЖАМИЛОВА,

д.п.н, доцент ТГПУ им.Низамий

Мақолада мактабгача катта ёшдаги болалар, мактаб ва касб-хунар таълими ўқувчилари, талабаларда ташаббускорликни намоён бўлишнинг ўзига хос хусусиятлари ва шу билан бирга таълим олувчиларда ташаббускорликни шакллантиришнинг интегратив моделининг моҳияти ёритиб берилган.

Таянч сўзлар: Таълим олувчи, ташаббускорлик, ривожлантириши, шакллантириши, мактабгача таълим ёши, кичик мактаб ёши, ўспиринлик, ўсмирлик.

В статье освещены особенности проявления инициативности у детей дошкольного возраста, учащихся школ и профессиональных колледжей и студентов, а также раскрыта сущность интегративной модели формирования инициативности у обучающихся.

Ключевые слова: Обучаемые, инициативность, развитие, формирование, дошкольное образование, младший школьный возраст, подростковый возраст, юношество, молодость.

The article highlights the features of the manifestation of initiative in preschool children, school and vocational college students and students, and also reveals the essence of the integrative model of the formation of initiative in students.

Key words: Learners, initiative, development, formation, preschool education, primary school age, adolescence, youth, youth.

У детей дошкольного возраста инициативность точно и устойчиво проявляются под влиянием интенсивного развития речи, групповых форм игровой, учебной, общественной, художественно-изобразительной деятельности. Однако в этом возрасте дети осуществляют инициативную деятельность в неполной, подражательной, эпизодичной форме.

Результаты анализа доказали, что формирование инициативности детей младшего школьного возраста играет важное значение. Именно на этом этапе формирования личности ребенка происходит расширение сферы трудовой деятельности вместе с другими людьми, развитие таких качеств, как порядочность, положительная ориентация, старательность, ловкость, ответственность, самостоятельность, дисциплинарность, формирование ориентации на жизненные традиции и систему отношений, проявление поведения в разных жизненных ситуациях.

В юношеском возрасте инициативность связаны с осознанными мотивами. В качестве их основ отражается формирование мировоззрения и бу-



дущих жизненных планов. Формирование нравственных идеалов именно в этом возрасте проявляется особенно ярко. Результаты исследования показали новое проявление самопознания, что считается важной структурной частью формирования инициативности у учащихся общеобразовательных учреждений. Кроме того, выявлено сильное стремление к самовоспитанию, что играет важную роль при формировании инициативности у подростков.

Формирование инициативности у студентов высших образовательных учреждений осуществляется в условиях интенсификации личностной и профессиональной социализации, а также сочетается с устойчивой нравственно-эмоциональной направленностью, формированием точных жизненных целей. В основе готовности к профессиональной деятельности формирование инициативности проявляется на основе социальной активности, саморазвития и самореализации.

Проведенный анализ научной литературы позволил выделить несколько значений понятия «модель», важных для моделирования процесса формирования инициативности у обучаемых.


«Под моделью понимается такая мысленно представляемая или материально реализуемая система, которая, отображая или воспроизводя объект исследования, способна замещать его так, что её изучение даёт нам новую информацию об этом объекте» [1,47].

В исследовании В.Е.Шиянова рассматриваются различные виды модели: позиционная (определяет общую схему деятельности, наглядно представляя будущий объект, обеспечивает установление связей элементов, направления продвижения при решении поставленных задач); 59 содержательная (изменение в содержании будущего объекта по сравнению с настоящим); организационная (показывает изменения в структурном компоненте); управленческая (определяет и фиксирует связи, отношения, которые возникают на основе ведущих идей между субъектами образовательного и профессионального процессов); нормативно-правовая (обеспечивает процессы полномочиями, юридически и нормативно- правовым сопровождением); прогностическая (отражает соотношение ресурсов и целей для оптимального их распределения и конкретизации); содержательная (характеризует содержательный компонент исследуемого объекта, системы, процесса); структурно-содержательная (моделирует построение и основные действия изучаемого явления); концептуальная (основана на научной, теоретической, информационной базе данных и программе действий); рефлексивная (обеспечивает выработку решений в случае возникновения неожиданных и непредвиденных результатов)[7,20].

В.Г.Онушкин и Е.И.Огарев пишут о том, что модель образования – это сфор-



мированные посредством знаковых систем мыслительные аналоги (логические конструкторы), схематично отображающие образовательную практику в целом или её отдельные фрагменты. Они подразделяются на три вида: описательные, дающие представления о задачах, структуре, основных элементах образовательной практики; функциональные, отображающие образование в системе его связей с социальной средой; прогностические, дающие теоретически аргументированную картину будущего состояния образовательной практики..





На основе результатов исследования на основе принципов преемственности и непрерывности была разработана модель формирования инициативности у обучающихся [2,55].

Данная модель включает следующие взаимосвязанные компоненты: принципы (преемственность и непрерывность); подходы (системный, деятельностный, личностно ориентированный, рефлексивный); формы деятельности (учебная деятельность, внеаудиторная деятельность, управленческая деятельность); субъекты деятельности (обучающиеся, педагоги и родители); этапы образования (дошкольное образование, общее среднее образование, среднее специальное, профессиональное образование, высшее образование); виды деятельности (игровая, учебная, спортивная, сотрудничество со сверстниками и взрослыми, учебная, спортивная, самостоятельное чтение, совместная сотрудничество, учебная, спортивная, общественная, художественное, культурное сотрудничество, учебная, спортивная, общественная, художественное, культурное сотрудничество, учебная, спортивная, самостоятельное чтение, общественная работа, культурная); методы и средства (наглядно-иллюстративные, игровые, практические, репродуктивный, эвристический, игровой, творческий, практический, репродуктивный, эвристический, игровой, творческий, практический, ролевые игры, тренинг, учебные проекты, портфолио, обучение в сотрудничестве).

Раскроем более подробно концептуально-целевой блок. Данный блок содержит: цель – создание условий для формирования инициативности обучающихся; принципы – субъектности, направленности на самореализацию, преемственность, непрерывность; методологические подходы – системно-деятельностный, личностно-индивидуальный, рефлексивный.

Данная модель даёт возможность воспитателям, учителям и преподавателям формировать у своих обучаемых инициативных качеств.

Литература:

1. Джураев Р. Х. ва бошқалар. Педагогик атамалар луғати.–Тошкент: Фан. 2008. 1-том. 127.
2. Джамилова Н. Н. Совершенствование педагогических механизмов развития инициативности у обучаемых. – Ташкент: ТГПУ, 2018. – С. 178
3. Оксфордский толковый словарь по психологии / Под. ред. А. Ребера. Oxford, Penguin Non-Classical, 2002
4. Онушкин В.Г. Образование взрослых методический словарь терминологии. – СПб.: РАО ИОВ, 1995. – 232 с.



YAPON IEROGLIFLARINI MNEMOTEXNIKA ASOSIDA KOMPYUTER IMITATSION MODELLARDAN FOYDALANISH

F.M.LUTFILLOYEVA,
SamDCHTI, katta o'qituvchisi

Maqolada yapon tili ierogliflarini o'rgatishda uning morfemik birlik tushunchasiga alohida ahamiyat qaratib, uni talabaga oson etkazish maqsadida mnemotexnika asosida kompyuter imitatsion modellardan foydalanib tushuntirish borasida fikr yuritilgan. Yapon tilini aynan kompyuter imitatsion modellardan foydalanib o'rgatish o'quv jarayonini samaradorligini oshirishga erishish va nazorat jarayonini qamrab olish bilan bir qatorda ularni bosqichma-bosqich tatbiq eta borish zaruriyati ilmiy asoslangan.

Tayanch so'zlar: yapon ierogliflari, o'qilish turlari, morfemik birliklar, mnemotexnika, kompyuter imitatsion model

В статье основное внимание уделяется концепции морфемной единицы в обучении японским иероглифам и объясняется это с использованием компьютерных имитационных моделей, основанных на мнемонике, чтобы облегчить учебный процесс обучения иероглифов в японском языке. Необходимость повышения эффективности учебного процесса с использованием компьютерных имитационных моделей и охвата процесса управления, а также их поэтапной реализации является научно обоснованной.

Ключевые слова: Японские иероглифы, виды чтения, морфемические единицы, мнемоника, компьютерная имитационная модель

This article focuses on the concept of the morpheme unit in teaching Japanese characters and explains this using mnemonic-based computer simulation models to facilitate the teaching process of teaching Japanese characters. The need to improve the efficiency of the educational process using computer simulation models and the coverage of the management process, as well as their phased implementation, is scientifically substantiated.

Key words: Japanese hieroglyphs, types of reading, morphemic units, mnemonics, computer simulation model.

Dunyoning eng rivojlangan davlatlaridan biri sifatida Yaponiyaning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohalaridagi yutuqlarini o'rganish barobarida yapon tili va madaniyatini ham qiyosiy-tipologik, ilmiy-nazariy, diskursiv tahlillar asosida tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, xorijiy tillar qatorida yapon tilini o'rganish va bu tilni o'qitish mazmunini takomillashtirishga alohida ahamiyat bilan qaralmoqda. Yapon tilini mukammal o'rganish va uni amalda qo'llay olish uchun yapon tili yozuv tizimida eng murakkab sanalgan ierogliflarning samarali o'rgatish metodikasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq deb qaraladi. Bu borada



bir qator metodik qo'llanmalar yaratilganligiga qaramasdan, talabalarning o'zga til morfemik birliklarini obrazli tarzda milliy kontekstda shakllantirishda yapon tili ierogliflarini hikoyalar asosida kompyuter imitatsion modellardan foydalanib, o'qitish metodikasi samarali deb hisoblanmoqda.

Chet tillarni, xususan, yapon tilini mnemotexnika asosida kompyuter imitatsion modellar yordamida o'qitish orqali xalqaro standartlarda qo'yilgan vazifalarni ta'minlash yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Chet tillarni o'qitish metodikasi bo'yicha tadqiqotlar va ma'lum ishlanmalar mavjud. Biroq, yapon tilidagi ierogliflarni o'rganishdagi qiyosiy tahlil qilish masalalari, ongning intuitiv va analitik yondashuvini anglash, yapon tilini o'qitish metodikasiga doir ilmiy izlanishlar va yapon tilini xorijliklarga o'rgatish muammosi xususan, talabalarning o'zga til morfemik birliklarini obrazli tarzda milliy kontekstda shakllantirishda yapon tili ierogliflarini mnemotexnika asosida kompyuter imitatsion modellardan foydalanib o'qitish metodikasi tadqiqot ob'ekti sifatida tahlilga tortilishi maqsadga muvofiqdir.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, yapon tilini o'rganishdagi eng katta to'siq bu ierogliflardir. Ayni paytda yapon tili ierolifikasi murakkab ko'p darajali strukturaga ega. Unda leksik birlikning ideografik va fonetik usullari mujassamlashgan. Aynan shu sababli yapon tili ieroglifikasini o'rganish o'quv jarayonida kerakli xurak murakabliklarni vujudga keltiradi. Yapon tili yozuv tizimini o'qitish jarayonida ierogliflarning psixologik xususiyatlari tushunchasiga ega bo'lmaslik, ieroglifika materialini o'zlashtirish samaradorligini kamaytiradi hamda yapon tilini mutlaq til sifatida qabul qilish motivatsiyasini pasaytiradi.

Yapon yozuvining asosida xitoy ierogliflari yotadi. VIII asr oxiri va IX asr boshlarida ieroglifika belgilarning soddalashtirish va sxemalashtirish asosida ikkita fonetik yozuv tizimi xiragana va katakana yaratildi.

Uzoq tarixiy jarayon natijasida asta-sekin ieroglif, xiragana va katakana yozuv turlari orasida funksiyalar taqsimoti yuzaga keldi. Ieroglif bilan so'zning o'zak qismi, xiraganada grammatik struktura va yordamchi so'zlar hamda katakana o'zlashtirilgan so'zlar yozila boshlandi. Natijada, zamonaviy yozuv tizimida "kanjikanamajiribun" (kanji, kana harflari ketma-ket kelgan matn) degan atama paydo bo'ldi.

Xitoy yozuv tizimini o'zlashtirish jarayoni yapon tilining leksiko-grammatik tuzilishiga asosan yaratilgan. Ko'p holatda har bir ieroglifda eng kamida ikkita o'qilishi, "On-%№" o'qilishi (xitoy tilidan olingan) va "kun-HbP" o'qilish turi (asl



yapon soʻzlari) mavjuddir. Xitoy ierogliflari fonetik kelib chiqishi orqali oʻzlashtirilib, “on” oʻqilish usuli yaratilgan. Bundan tashqari har bir “on” oʻqilishi turi bir necha boʻlib, oʻzlashtirilgan ierogliflar har xil davr va hududga tegishli boʻlgan. Asl yapon soʻzlari ieroglif bilan yozila boshlanib, “kun” oʻqilish usuli deb nomlangan.

Yapon tili ierogliflarini boshlangʻich darajada oʻrgatish eng murakkab jarayonlardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari ierogliflarni samarali oʻrgatish va yodda saqlash borasida bir qancha oʻquv qoʻllanmalar mavjud. Biroq dastlab juda oson yod olingan ieroglif soʻz bir oz muddatdan soʻng kundalik hayotda qoʻllanmaganligi sababli unutiladi. Chunki ierogliflarni oʻrganish jarayonida 2 turdagi oʻqilish uslubini bir maromda esda saqlash talab qilinadi.

Chet tillarni oʻrganishda juda koʻp usul va metodlar qoʻllaniladi. Har bir metod oʻziga xos yutuq va kamchiliklarga ega. Bir qancha olimlar mnemotexnika tizimi yordamida chet tillarini rivojlantirish dinamikasiga alohida ahamiyat qaratishgan. Turli holatlarga tayanib mnemotexnik usul asosida soʻzlar, matnlarni eslab qolish boʻyicha tadqiqot ishlari olib borilgan.

Mavhum predmet va faktlarni obrazli tasavvur qilish, eshitish va kinestetik tushunchalar bilan almashtirib, yodlashni soddalashtirish uchun maʼlumotlarni mavjud boʻlgan jumla bilan bogʻlashdir. Bu kabi uygʻunlikni yaratish uchun sunʼiy tasvirlarni yaratish talab qilinadi. Eydetik xotira – bu maʼlumot bilan bogʻliq tasvirlarni yaratish orqali uni esda saqlash mahorati hisoblanadi.

Shu bilan birgalikda hozirgi davrda chet tillarni oʻrganishda axborot texnologiyalarni oʻquv jarayoniga joriy etish va kompyuter imitatsion modellar orqali ushbu jarayonni boshqarish, shubhasiz chet tilini oʻrganishda yuqori darajada samaradorlikni oshrishga olib keladi deb qaralmoqda. Bu borada hozirgi zamonaviy globallashtirish davrida har qanday talaba oʻziga kerakli axborotni qidirib topa olishi mumkin. Buning uchun talabanning qoʻl ostida internet tarmogʻiga ulangan mobil telefon yoki kompyuter uskunasi boʻlishi kifoyadir. Biroq, tajriba shuni koʻrsatib turibdiki, talabalar aynan yapon tili ierogliflarini yodda saqlab qolish va amalda qoʻllash borasida ayrim mavjud qiyinchiliklarga duch kelishmoqda.

Shu maqsadda boshlangʻich darajadagi mavjud ierogliflar toʻplamini aynan oʻqilish turi asosida oddiy, oʻrta va murakkab ierogliflar guruhlariga ajratilib, har bir guruhdagi ieroglifning morfemik birlik tushunchasiga milliy kontekstda yondoshildi. Har bir ieroglifdagi mavjud morfemik birlikga oʻzbek tilidagi eslatma soʻz topilib, ieroglifning semantik va fonetik tushunchasi jamlangan oʻzbek tilidagi gap tuzildi va uning obrazli tasviri kompyuter imitatsion modellar yordamida koʻrsatildi.



Bu jarayonni yaqqol misollarda ko‘rishimiz mumkin. Masalan, **YAm**a – tog‘ ma‘nosini anglatuvchi ieroglif ikki xil YAMA va SAN o‘qilish turiga ega. Birinchi o‘qilish turi ya‘ni YAMA ma‘noli morfemik birlik hisoblanib, o‘zbek tiliga “tog‘” deb tarjima qilinadi. Ikkinchi SAN morfemik birlik ma‘nosiz fonetik tovushdan iborat.

Aynan shu jarayonni talabalarga osonroq tushuntirish uchun kompyuter imitatsion model yordamida obrazli tarzda namoyish etish mumkin. Bu jarayonni batafsil ko‘rsatib o‘tamiz.

Undan keyin tog‘ ieroglifining ikki xil o‘qilishi YAMA va SAN morfemik birliklar yapon harflari bilan namoish qilinib, tushuntiriladi

2-bosqich mnemotexnik hikoya usulida ishlangan obrazli tasvir, yapon tilidagi YAMA morfemik birlik o‘zbek tilidagi YAMAN so‘zi orqali va SAN morfemik birlik SANatoriya so‘zlari bilan uyg‘unlashtirilib, *YAMAN tog‘larida SANatoriyalar ko‘p* jumlası yasaladi. Bu jarayon yordamida ieroglifning morfemik talaffuz qilish tushunchasi milliy kontekstda ma‘noli so‘zlar orqali yoritiladi. Undan so‘ng, KIMdan foydalanib, *YAMAN tog‘larida so‘z birikmasiga mos mnemoobraz ko‘rsatilib, SANatoriyalar ko‘p so‘z birikmasiga mos manzaraga o‘tiladi.* Bu jarayon ikki marta takroran namoyish etiladi. So‘nggi bosqichda tog‘ ieroglifini o‘ziga xos ketma-ket usulda yozilish tartibi obrazli tarzda ko‘rsatilib, yozilish tartibi batafsil tushuntiriladi.

Hozirgi kunda chet tillarini kompyuter texnologiyalari yordamida o‘qitishning turli ko‘rinishdagi vositalari mavjud. YApon tilini aynan kompyuter imitatsion modellardan foydalanib o‘rgatish o‘quv jarayonini samaradorligini oshirishga erishish va nazorat jarayonini qamrab olish bilan bir qatorda ularni bosqichma-bosqich tatbiq eta borishni taqazo etadi.

Yapon tili alfavitining murakkabligi bois, undagi mavjud ierogliflarning mazmun mohiyatini ma‘lum bir ob‘ektga akslantirib, esda qoldirish usullarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biridir. Yapon tilida har bir ieroglif ikki va undan ortiq o‘qilish turiga ega. Bu tilda ierogliflardagi mavjud morfemik birliklarni esda saqlash va amalda qo‘llash murakkab hisoblanadi. Shu sababli mnemotexnik usul yordamida kompyuter imitatsion modellar asosida har bir ieroglifning mantiqiy shakl tizimini yoritib berish va undagi mavjud morfemik birliklarni mnemotexnika usuli orqali o‘zbek tilidagi talaffuzga o‘xshash so‘z bilan uyg‘unlashgan holda ma‘noli gap yasash orqali tushuntirib berish maqsadga muvofiq. Shu bois, yapon tili ierogliflarining morfemik birliklarini fonetik talaffuz nuqtai nazaridan 3 guruhga ajratilib tadqiq etilganligi va mnemotexnika usuli yordamida milliy kontekst shaklida misollar tuzilib, kompyuter imitatsion modellardan foydalanib obrazli tasvirlar shakllantirildi.



Xulosa qilib aytganda, ieroglif soʻzga alohida yondoshilib oʻzbek tilidagi tarjima soʻz, yaponcha harflarda koʻrinishi va oʻzbek tilida mavjud oʻxshash soʻzlarning fonetik talaffuziga moslashtirilib, oʻzbek tili kontekstiga uygʻunlashgan oʻziga xos model yaratildi hamda, toʻgʻri tartibda yozish usuliga ham alohida ahamiyat qaratildi. Hikoya asosida kompyuter imitatsion modellardan foydalanib oʻrgatish jarayoni ierogliflarning samarali oʻrganish va murakkab sanalgan morfemik birliklarning fonetik talaffuzini yodda saqlash qiyinchiligini bartaraf etish, yapon tiliga boʻlgan qiziqish va oʻrganish boʻlgan ishtiyoqini yanada oshirishga imkoniyat yaratilishi asoslandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Япониянинг бош вазири Синдзо Абэ жаноби олийларига //“Халқ сўзи” газетаси. 27. 01.2017.-№20 (6684).
2. Александр С. Кандзи ландия (Обучающие игры и тексты). / С. Александр. - Лисичанск «Исток»: 2013. – 404 с.
3. Стираж У.П. «Иероглифики и развитие эйдетической памяти» Научная статья. 2005г.
4. Зиганов М.А. Мнемотехника. Запоминание на основе визуального мышления. / М.А.Зиганов, М.: Школа рационального чтения, 2000. – 11с.
5. Heisig J. W. Remembering Simplified Hanzi Book 1: How Not to Forget the Meaning and Writing of Chinese Characters / J. Heisig. - Honolulu: 2009. 17 p.



TALABALARDA LINGVISTIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHDA VIRTUAL TEXNOLOGIYA VOSITALARIDAN FOYDALANISH

A.A.PAZILOV,
GulDU o'qituvchisi

Maqolada talabalarda ingliz tilida lingvistik kompetentlikni AKT dan foydalangan holda o'rgatishning o'ziga hos xususiyatlari, zamonaviy ta'lim talablari yoritilgan.

Tayanch so'zlar: Oliy ta'lim muassasasi, axborot kommunikativ texnologiyalari, kommunikativ kompetensiya, lingvistik kompetensiya, bilim, mahorat, sifat ingliz tili, tilni o'qitish.

The article highlights the features of teaching linguistic competence in English to students using ICT, modern educational requirements.

Key words: Higher education institution, information and communication technologies, communicative competence, linguistic competence, knowledge, skills, quality English, language teaching.

Mustaqillik yillarida mutaxassisligi chet til bo'lmagan pedagoglarda xorijiy tillar bo'yicha kasbiy kompetentlikni rivojlantirish uchun zarur moddiy-texnik shart-sharoitlar yaratildi. Natijada, pedagoglarning xorijiy tillar bo'yicha kasbiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi axborot-metodik ta'minotni yaratish hamda undan ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishda foydalanishga erishildi. O'zbekistonni rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida «uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash» va ularning raqobatbardoshligini oshirish ustuvor vazifalardan biri sifatida ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, «mamlakatimizda ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash» yuzasidan aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalari sirasiga kiradi.

Jahon amaliyotida pedagoglarning xorijiy tillar bo'yicha kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashga doir innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borilayotgan bo'lib, jumladan, ingliz tilini o'qitishda virtual texnologiyalar yordamida o'qituvchining lingvistik kompetentligini rivojlantirish;



o'qitishda axborot-kommunikatsiya va ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning mavjud axborotlar makonida to'g'ri yo'nalish olishi, ongli bilish ko'nikmalari va mustaqil rivojlanish qobiliyatlarini shakllantirish; globallashuv sharoitida innovatsiya jarayonining pedagogik-psixologik jihatlarini kompetentli yondashuv asosida pedagoglarda xorijiy til ko'nikmalarining rivojlanish darajasini diagnostika qiluvchi texnologiyalarni takomillashtirish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda qo'shma dasturlar asosida MDH va bir qator Evropa mamlakatlari, xususan, Buyuk Britaniya va Evropa ittifoqi mamlakatlari bilan xorijda o'qish va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun mamlakatimiz OTMLari bilan talabalar almashish to'g'risida ikkita tomonlama shartnomalar imzolangan. Faqat barcha mutaxassislik fanlar bo'yicha yaxshi natijalarga erishayotgan va chet tilini yaxshi biladigan talabalar ushbu dasturlarda o'z imkoniyatlarini sinab ko'rishmoqda.

Yuqorida keltirilgan talablarga to'liq javob berish uchun professional chet tilini biladigan malakaga talablariga ega bo'lishi maqsadga muvofiq.

Pedagogik tadqiqotlarda kompetentlik ta'lim samaradorligi hisoblanib, u o'quvchilarning bilim, ko'nikma malakani egallashidan iborat bo'lib, shaxsning hayotiy va kasbiy vazifalarni hal etishdagi shaxsiy tajribasida namoyon bo'ladi. Avvalgi berilgan ta'riflarning mazmunini tahlil qilish asnosida shuni aytish mumkinki kompetentlik mutaxassisning ishlab chiqarish maqsadlariga erishishning mazmuni, shakllari, usullari va vositalari haqida etarli bilimga ega bo'lgan faoliyat sohasida qaror qabul qilish imkonini beradi. Kompetentlik - ijtimoiy va professional jihatdan muhim vazifalarni hal qilish uchun asosdir. So'nggi o'n yilliklarda chet tilini (fan sifatida) o'qitish metodologiyasida katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. Evropa mamlakatlarida va ba'zi MDH mamlakatlarida (Rossiya, Qozog'iston, Belorussiya) shu jumladan mamlakatimizda ham kompetentlikka asoslangan yondashuvga asoslangan xorijiy tillarni o'rganish dasturlari ishlab chiqilmoqda va amaliyotga keng joriy etilmoqda. Bunday yondashuvlar chet tili o'rganuvchisining kommunikativ kompetentligini shakllantirishga qaratilgan. Ko'rib chiqilayotgan muammoga bag'ishlangan bir qator tadqiqotlarni tahlil qilib, shuni aytish mumkinki, chet tili kommunikativ kompetentligi bo'lajak mutaxassisning kasbiy kompetentligining tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, bo'lajak mutaxassisning turli ijtimoiy vaziyatlarda ikkilamchi til sifatida harakat qilish qobiliyati va madaniyatlararo muloqotni amalga oshirishga tayyorligi sifatida



belgilangan. Chet tilidagi kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar, uning ko'plab tarkibiy xususiyatlarini ko'rsatdi. SHunday qilib, chet tilidagi kommunikativ kompetensiya tarkibiga lingvistik, ijtimoiy-madaniy, sotsiologik, pragmatik, diskursiv va strategik subkompetensiyalar kabi muhim tarkibiy qismlar kiradi. Tadqiqotimizning maqsadi Oliy ta'lim muassasalarining 1-bosqich talabalarining til (lingvistik) kompetentligini shakllantirishdan iborat. Biz uchun «lingvistik kompetensiya» tushunchasi muhim ahamiyatga ega. Lingvistik kompetentlikning asl mohiyati ko'plab ilmiy nashrlarda bayon etilgan.

Bugungi kunda bizning ta'lim standartimizda zamonaviy tillar sohasidagi «lisoniy kompetensiya» atamasi grammatik jihatdan to'g'ri shakllar va sintaktik konstruksiyalarni qurish qobiliyatini, shuningdek mavjud chet til normalariga muvofiq tashkil etilgan nutqdagi semantik segmentlarni tushunish, bunda ular ona tilida so'zlashuvchilar tomonidan alohida holatda ishlatiladi. Lingvistik kompetensiya - kommunikativ kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Grammatik strukturani shakllantirish, mazmunli iboralarni tuzish uchun so'z va grammatik qoidalarni bilmasdan, verbal muloqotni rivojlantirishning imkoni yo'q. Hozirgi davrda yosh mutaxassis (OTM bitiruvchisi) oldiga qo'yilgan zamon talabi (qo'shimcha ravishda) chet tilini o'rganishi bo'lib, Ko'plab talabalarda lingvistik kompetentlikni shakllantirish uchun uzoq yillar talab etiladi. Xorijiy tillarni o'rganish muhitining yo'qligi esa ko'pincha til o'rganish yoki xorijiy til o'rganish madaniyati darajasini oshirishga yordam bermayapti. Shu munosabat bilan bizning ta'lim tizimimiz oldida xorijiy tillarni zamonaviy jamiyat (ishlab chiqarishni axborotlashtirish va kompyuterlashtirish) talablariga muvofiq bilish sohasidagi kompetentlik darajasini oshirish vazifasi turibdi.

Zamonaviy inson dunyoqarashining yangi tarkibiy qismi turli xildagi tizimlarda sodir bo'ladigan axborot jarayonlaridir. Axborot jarayoni har qanday natijani (maqsadni) olish uchun ma'lumot (ma'lumotlar, ma'lumotlar, faktlar, fikrlar, gipotezalar, nazariyalar va boshqalar) bo'yicha amalga oshiriladigan ketma-ket harakatlar (operatsiyalar) majmui sifatida ko'rib chiqiladi. Bizning fikrimizcha, bu jarayonlarni o'rganish barcha mavjud vositalar, jumladan, kompyuter va uning dasturiy ta'minoti yordamida amalga oshiriladi. Shu bilan birga chet tilini o'qitishning asosiy masalasi chet tilini kompyuter va uning dasturiy mahsulotlari yordamida o'rganishdir. Ushbu faoliyat axborot jarayonlarini amalga oshirishning usul va vositalari majmui bo'lgan kompyuter va axborot texnologiyalari asosida



amalga oshiriladi. Axborot jarayonlarining natijasi axborot resursi vazifasini bajaruvchi axborotdir. Boshqa resurslar kabi axborot resursi ham axborotni saqlash va undan foydalanishda malakali yondashishni talab qiladi. Axborot resursi inson aqliy faoliyatining mahsulidir. Lingvistik ta'limi tarkibida boshqa xalqlarning madaniyati va tilini bilishda ijtimoiy tajriba elementlari mavjud. Ta'lim mazmuni va tajriba o'rtasidagi munosabatlar mexanizmini aniqlash V.V. Kraevskiy va A.V. Xutorskoyning ta'kidlashicha, tajribaning rivojlanishi bizga «...zamonaviy pedagogik adabiyotda kompetensiya deb ataladigan murakkab madaniy shunga o'xshash xatti-harakatlar turlarini bajarish qobiliyatini ...» shakllantirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni. // "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyoti poydevori". – T.: O'zbekiston, 1997. – B. 20-28.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. PQ 1875. "Xalq so'zi" 2012 y., 240 (5660) – son
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: G'.G'ulom, 2017. – B. 70-72.
4. Begimqulov U.Sh., Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. ped.fan.dokt. ilmiy dar. uchun diss. -T.: 2007. – 305
5. Rahimov B.X., Bo'lajak o'qituvchida sotsiolingvistik-madaniy munosabatlarning shakllanishi: Ped. fan. nom. ... dis. -Toshkent, 2004. 161



TARBIYA-YUKSAK MA'NAVIYAT BESHIGI

U. MAHKAMOV,

Chirchiq DPI professori, p.f.d.,

D.ISMOILOVA,

Chirchiq DPI o'qituvchisi

Ushbu maqolada uzluksiz ta'lim jarayonida o'quvchi yoshlarni tarbiyalash metodikasi, ular ma'naviyatini rivojlantirishda o'qituvchi, ota-onalar va keng jamoatchilikning o'ziga xos xususiyatlari ilmiy pedagogik jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: *Uzluksiz ta'lim, tarbiya, o'qituvchi, ma'naviyat, o'quvchi-yoshlar, ota-onalar, maktab, oila, sinf rahbari, ilm, metod, axloq.*

В данной статье научно и педагогически обоснована развития духовности и учащихся-молодёжи процессе непрерывного образования и особенности учителей, широкий общественности в воспитательной работы.

Ключевые слова: *непрерывное образование, воспитание, духовность, ученики, родители, школа, семья, классный руководитель, ученик, наука, метод, этика, национальные ценности.*

This article is scientifically and pedagogically based on the methodology of teaching students in the process of lifelong education, the importance of developing their spirituality and the specific characteristics of teachers, parents and the general public in this process.

Key words: *lifelong education, upbringing, spirituality, students, parents, school, family, class teacher, student, science, method, ethics, national values.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 30 sentyabrda "Ustoz va murabbiylar kuni"da so'zlangan nutqida "Xalqimiz hamisha ustozlarni e'zozlab, ularning hurmat-izzatini joyiga qo'yib kelgan. **"Ustoz ota kabi ulug'"** degan hikmatli naql ham bejiz aytilmagan. Endi ana shu so'zlarni qog'o'zda emas, amalda qaror toptiradigan, o'qituvchi-muallimning qadr-qimmatini joyiga qo'yadigan payt keldi" deb ta'kidlash bilan birga ularning mashaqqatli va mas'uliyatli mehnati masalalariga alohida e'tibor qaratdi. Ushbu qo'yilgan masalalar uzluksiz ta'lim jarayonlarini, ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini yuqori darajada bo'lishini talab etadi.

Darxaqiqat, bugungi tez o'zgarayotgan zamonda, barcha o'qituvchilar sinf rahbarlari, ota-onalarning tarbiyaga oid bilim va malakasini muntazam oshirib borish dolzarb muammolardan xisoblanadi. Chunki, yurtboshimiz

ta'kidlaganidek **"Maktab – faqatgina ta'lim beradigan maskan emas, barchamiz uchun yuksak ma'naviyat beshigiga, farzandlarimizni bolalikdan boshlab kasbga o'rgatuvchi dargohga aylanishi zarur."** Demak uzluksiz ta'lim tizimida o'qituvchilarning ilm-fan sohasida faol ishlash, yoshlar tarbiyasiga oid loyihalarda ishtirok etish, ilmiy-metodik dasturlar yaratish kabilar o'quvchi – yoshlarning intellektual va ma'naviy salohiyati, kuch-qudrati va olijanob fazilatlarini ulug' va ezgu maqsadlarni



amalgam oshirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan xam yoshligidanoq bolalarda “Aql va fikr tarbiyasini yaxshilash uchun uning fikrlashi, zakovati, xotirasi va qobiliyatini takomillashtirishga yordam beruvchi mashg’ulotlar o’tkazish, turli ibratli ertak va hikoyalar so’zlab beriladi, zarur bilim va ma’lumotlar berish muhim hisoblanadi. Odatda, bolalar kichik yoshda har bir ko’rgan narsasi haqida so’raydigan, ularni tekshirtirib, sinab ko’radigan, tinimsiz savollar beradigan bo’ladi. Bunday paytda ularning savollariga erinmay, hafsa bilan, tushunarli, sodda qilib javob qaytarish va tarbiyalash zarur.” (4, 61) “Pedagogika fanidan ixohli lug’at” kitobida “Tarbiya –inson shaxsi ma’naviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan sa’i –harakatlar tizimidir” deb ta’kidlanadi. (5, 449)

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish va uning samaradorligini oshirish ko’p jihatdan o’qituvchi va o’quvchilarning o’zaro munosabatlari hamda ijodiy faoliyatining tashkil etilishiga ham bog’liqdir. Bunda o’qituvchilar o’quvchilarga kundalik hayotiy voqealar, jamoadagi tartib-qoida va xulq-atvor masalalarining aniqligi va ta’sirchanligi jarayonini loyihalashtirish, shakl, metod, shart-sharoitlarni oldindan aniqlab qo’yilgan maqsadga muvofiqlashtirish, ularning ruhiy holatlari, muloqot va munosabatlari, ma’naviy shart-sharoitlarning yaratilishi, tarbiyaviy tadbirlarning axloqiy talablarga javob berishida, ularning faolligi ixtiyoriyligi, tashkilotchiligi va ijodkorligiga ahamiyat beriladi.

Tarbiyaviy ishlar mazmunida sog’lom hayot, sog’lom turmush tarzi, sog’lom e’tiqod, barkamollik, milliy qadriyatlarga sadoqat, jamiyatdagi tinchlik, xotirjamlikni saqlashga ongli munosabatda bo’lish, tinch va farovon hayot yaratish, ijtimoiy ma’naviyatni yuksaltirishga intilish kabilar asosiy o’rinni egallaydi.

Tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste’dod, ilm va mashqat. SHu ma’noda o’qituvchilar, sinf rahbarlari tarbiyaviy ishlar jarayonida inson shaxsini oliy qadriyat deb bilish, har bir bola, o’smir va yoshlarning o’ziga xosligini hurmat qilishda milliy urf-odatlar, an’ana va milliy merosga asoslanish va ushbu jarayonda ularning faol ishtirok etishini tashkil qilish va rivojlantirish muhimdir.

Ushbu jarayonda sinf rahbari o’quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini o’rganish, unga tarbiyaviy ta’sir ko’rsatish mahoratiga ega bo’lish, tarbiyaviy ishlar va tadbirlar uchun zarur bo’lgan metodlarni tanlash, ko’zlangan maqsadga erishishda ota – onalar bilan hamkorlik qilish tajribalarni tahlil qilish va ulardan o’z faoliyatida ijodiy foydalanish kabilar tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshiradi.

Shu jihatdan ham uzluksiz ta’lim tizimida:

- Tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi;
- Tarbiyaning hayot va mehnat bilan, yangi O’zbekistonning gullab-yashnashi yo’lida qilinayotgan ishlar bilan bog’lash;
- Shaxsni jamoada, jamoa orqali tarbiyalash;
- tarbiyada bola shaxsini hurmat qilish va unga talabchanlik bo’lish;
- tarbiyaviy ishlarning izchilligi, muntazamliligi hamda birligiga erishish;
- tarbiyada o’quvchi yoshlarning o’zigaxosxususiyatlarini hisobga olish;



– tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda o‘quvchi bilim, ko‘nikma, malakalarni rivojlantirish, ularni har tomonlama ma‘navaiy-axloqiy jihatdan intellektual salohiyatli qilib tarbiyalash;

– tarbiyaviy ta‘sir qo‘rsatishda zarur bo‘lgan metodlarni qo‘llay olish;

– zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalaniladi.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, tarbiyaviy ishlar metodikasi o‘qituvchining pedagogik mahoratiga bog‘liqdir. Metodika (yunoncha-metodika) biror ishni bajarish, amalga oshirish, o‘qitish, tarbiyalash usullari va vositalari majmuasidir.

Tarbiyaviy ishlar metodlari esa o‘quvchilarga ta‘sir ko‘rsatish usullari, vositalarini pedagogik jixatdan maqsadga muvofiq tashkil etish yo‘llaridir.

Metodlar uzluksiz ta‘lim tizimida tarbiya ishlarini to‘g‘ri tashkil etishda muhim vosita bo‘lib, uning samarasi o‘quvchi – yoshlar shaxsining har tomonlama kamol topishida ta‘sir ko‘rsatadi. Tarbiya metodlari vositasida jamiyat tamonidan ta‘lim muassasalari oldiga har tomonlama barkamol, erkin, ijodkor, tashkilotchi, mustaqil fikr egasi bo‘lgan shaxsni tarbiyalash vazifasini amalga oshiradi va ularning rivojlanganlik darajasini takomillashtiradi. Ushbu jarayonda o‘quvchining ijtimoiy ongni shakllantirish va mehnat faoliyatiga tayyorlash, ragbatlantirish metodlari ularning hayot, ahloq, mehnat qilish munosabatlari to‘g‘risida qoida va me‘yorlarini hosil qilish kabilar shaxsning e‘tiqodi va ishonchiga aylanib boradi.

Tarbiyaviy ishlar jarayonida suhbat, tushuntirish, ma‘ruza, bahs, namuna ko‘rsatish, o‘rgatish, qayta tarbiyalash, mashq qilish, sog‘lom muhit yaratish, maqtash, mukofotlash kabilar o‘quvchi hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman yoshlarining tarbiyasi bilan etarlicha shug‘ullanmagan mamlakat turg‘unlikka va oqibatda inqirozga yuz tutadi. Buning oldini olish - uzluksiz ta‘lim tizimida tarbiyaviy ishlarni oqilona amalga oshirishdir.

Farzandlar ota-onalarning oldidagi burchi va vazifalari ularni qobil, insonparvar, kamtarin bo‘lib o‘sishida ilm va hunar o‘rganishi, yurish-turishmadaniyati, uyda, jamoat jaoylarida o‘zini tutish, kiyinish madaniyati, mehmon va mezbон bo‘lish, dam olish qoidalari, bemorlarni yo‘qlash kabi, o‘zbek millatiga xos bo‘lgan milliy qadriyatlarni rivojlantiradi.

Farzandlar oila muhitida ota-onalarning bilimlarini uzluksiz egallash, uni qurshab turgan hayotning barcha tomonlari va jabhalari bo‘yicha o‘z dunyoqarashiga ega bo‘lish, atrofda qilargalarga nisbatan mas‘uliyat hissini kamol toptirish kabilar shaxsning ijodiy qobiliyatlarini, uning g‘ayrat va tashabbuskorligini oshirishga imkon yaratadi. Bu o‘rinda sinf rahbari ota – onalar bilan bolaning zehnni o‘stirish ularda mehnatga chanqoqlik hissini uyg‘otish, hayotda e‘tiborli va baxtiyor bo‘lishiga shart sharoitlar yaratadi. Ta‘lim tizimida o‘quvchini yaxshi xatti-harakatlarga majbur etishgina emas, balki ularda mehnatga ko‘nikma va mehmni kuchaytirish, hayotda o‘ziga loyiq ish topa bilish imkoniyatini yaratish muqaddas burch hisoblanadi. Demak, ota – onalar



o'z farzandlarida yaxshi fazilatlarni o'stirsa, ular kelajakda ma'naviy boy, jismoniy barkamol bo'lishning asosini tashkil etadi. Shunday ekan, o'qituvchining bosh vazifasi bola ruhida adolat va ezigulikni shakllantirish, hayotning rahmsiz zarbalaridan omon saqlash va rivojlantirishga ko'maklashishdan iborat. O'qituvchilar ota – onalar bilan birgalikda **bugungi murakkab globallashuv davrida o'quvchi yoshlarda milliy g'oya va mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, ularni turli zararli g'oya va tahdidlardan asrash, ularni o'z mustaqil fikriga ega, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar** bo'lib etishida tarbiya ishlariga aloxida e'tibor berishlari muxim o'rin tutadi.

Albatta, ushbu jarayonida milliy tarbiya asoslarini o'rganish o'quvchilarda faxr, g'urur va oriyatni shakllantirish, bugungi mustaqil, erkin hayotimizning qadriga etish, vatandoshlarimizga mehribon bo'lish, beva-bechoralarga yordam berish ahil, totuv va qudratli xalq bo'lish, rivojlantirishasosida ularda faollik, barchaga o'rnak va namuna tuyg'ularni rivojlantirish muhim. Chunki, tarbiya xalqimiz hayotidagi milliy va umuminsoniy g'oyalar asosida o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, ular qalbida yuksak axloqiy fazilatlarni, ma'naviy-ma'rifiy bilim doirasini kengaytirishda muhim o'rin tutadi. Shu jihatdan uzluksiz ta'lim tizimida "Milliy tarbiya asoslari", "Tarbiya millat madaniyati", "Kitob bilim manbai", "Bilimli yoshlar – kelajak bunyodkori", kabi tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirish o'quvchilarda dunyoviy, diniy bilimlari rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, har bir inson qanday mutaxasis bo'lishdan qattiq nazar uning hayotdagi yutuqlari, kasbidan e'zoz topganligi, bevosita ustozlari, o'qituvchilarning bergan tarbiyasi, o'g'itlarining ma'no-mazmuni va olijanoblighi bilan belgilanadi. Chunki tarbiya xalqning dardi, armoni, qadimiy va betakror ma'naviyatini ifoda etadi. Ayniqsa, bugungi murakkab zamonda yoshlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlar yo'lida ilhomlantirish, ularni, ma'naviyat va ma'rifatga bo'lgan mexru ixlosini oshirib, va e'tiqodini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикасининг 29 йиллиги байрамида Президент Шавкат Мирзиёевнинг сўзлаган нутқи. Халқ сўзи 2020 йил 1 сентябрь.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 30 сентябрда “Ўқитувчи ва мураббийлар куни” тантанали маросимдаги нутқи.
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 6 июлдаги “Умумий ўрта таълим муассасаларида “Тарбия” фанини босқичма – босқич амалга жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида” 422-сонли Қарори.
4. Алимов У Оилада фарзанд тарбияси. Т.:”Мовароуннахр” 2018
5. Хасанбоев Ж, Тўрақулов Х, Хайдаров М, Хасанбоева О, Усмонов Н Педагогика фанидан изоҳли луғат Т.: “Фан ва технологиялар” 2009.



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA YOSHLAR TARBIYASINING BA'ZI MASALALARI

N.U.NISHONOVA,
p.f.n., TDTU dotsenti

Maqolada hozirgi davrda yoshlar tarbiyasi muammosi yoritilgan. Yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, ularning bo'sh vaqtini samarali tashkil etish, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, ijodiy qobiliyatini rivojlantirish masalalari bayon etilgan.

Tayanch so'zlar: yoshlar tarbiyasi, ta'lim-tarbiya, intellektual salohiyat, ijodiy qobiliyat, bo'sh vaqtni tashkil etish.

В статье рассматривается проблема воспитания молодежи в современное время. Освещены вопросы оснащения молодежи современными знаниями, эффективной организации досуга, развития интеллектуального потенциала, развития творческих способностей.

Ключевые слова: образование молодежи, образование, интеллектуальный потенциал, творческие способности, организация досуга.

The article deals with the problem of educating young people in modern times. The issues of equipping young people with modern knowledge, effective organization of their leisure time, the development of their intellectual potential, the development of creative abilities are described.

Key words: youth education, education, intellectual potential, creative ability, leisure organization.

Hozirgi zamon yoshlar tarbiyasiga katta mas'uliyat yuklamoqda. Chunki yoshlarning bugungi kunda fan va texnika yutuqlaridan bahramand bo'layotganligi, jamiyatda tinchlik va totuvlikning barqarorligi ularni o'z bilimlarini yanada boyitish, butun kuch-qudratini ezgu ishlarga safarbar etishga yo'llamoqda. Lekin hozirgi davrgi OITS ofati, diniy ekstremizm va vahobiylik, dunyo bo'yicha yuz berayotgan ekologik tanazzul, giyohvandlik kabi muammolar, urushlar va mojarolar yoshlar tarbiyasida salbiy oqibatlariga olib kelmoqda. Bunday illatlarning oldini olish uchun istiqlolning dastlabki kunlaridan boshlab mamlakatimizda yoshlarning barcha imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ustida katta ishlar olib borilmoqda. Zero, har bir davlatning taqdiri, albatta, yoshlarning qanday kamol topganiga bog'liq.

Yoshlarning el-yurt takdiri uchun kurashi, ilmiy salohiyati, mehnat faoliyati, keng dunyoqarashining shakllanishida ta'lim-tarbiyaning o'rni katta. Bu haqida gapirganimizda Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan chuqur ma'noli so'zlarining mohiyatini anglashimiz kerak bo'ladi. Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari bugungi kunda har bir talaba bilishi kerak.

Ta'lim muassasalarining barcha tizimlarida yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan



qurollantirish, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, madaniy saviyasini zamon talabi darajasiga ko'tarish, yoshlar iste'dodini yuzaga chiqarish kerak. Buning uchun dastlab, talabalarni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirishda ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarini kiritish, kompyuter texnikasini chuqur egallash, yangi, ilg'or texnologiyalarni qo'llashning samarali metod va shakllarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bu borada har bir o'qituvchining o'z faniga va yoshlarni ta'lim-tarbiyasiga doir axborotlarni chuqur o'rganib, ularni o'z pedagogik faoliyatida qo'llay olishiga erishish zarur. Buning uchun fan asoslarini yoshlarga etkazishda nazariya bilan amaliyotni o'zaro aloqada yangi pedagogik texnologiyalaridan unumli foydalanish malakasini shakllantirib borilishi muhim. Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim tizimida joriy etilishi talaba-yoshlarda kasbiy bilimlarni egallashi va axborot madaniyatining shakllanishi, o'rganilayotgan fanni chuqur o'zlashtirish, ularning mustaqil faoliyatining kengayishi, interfaol metodlarning joriy etilishi asosida ta'lim jarayonini individuallashtirish, gumanitarlashtirish, differensiallashuviga erishish, o'rganilayotgan fan asoslarini kompyuter texnologiyalarini qo'llash asosida talabalarda bilim olishga bo'lgan qiziqish uyg'otish va ularning faolligini oshirishni taqozo etadi. Xullas, istiqbolda ta'lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalarini mustahkamlash, o'quv-tarbiya jarayonini yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or texnologiyalar bilan ta'minlash, ta'lim jarayonini axborotlashtirish, uzluksiz ta'lim tizimini jahon axborot tamog'iga ulanadigan kompyuter axborot tamog'i bilan to'liq qamrab olish asosiy masalalardan hisoblanadi. Bularning barchasi har bir yoshning zamonaviy bilimlarni egallashiga to'liq imkoniyat yaratadi, yoshlar tarbiyasida vatanparvarlik va milliy g'urumi shakllantirish, ularda bilim olish, mehnat qilish, atrof-muhitga munosabatda loqayd bo'lmalik kabi xislatlarni tarkib toptiradi. Chunki hozirgi paytda hayotda o'z Vatani qadrlari yurakdan his qilmasdan, uning ravnaqi uchun mehnat qilmasdan engil-elpi hayot kechirayotgan yoshlar ham uchrab turibdi. Bekorchilik, loqaydlik esa jinoyat qilishga olib keladi. Shunga ko'ra yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish, bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etish katta ahamiyatga ega. Huquqiy madaniyatga ega inson hech qachon jinoyatga qo'lmaydi, uning oqibatini o'ylaydi.

Yoshlarning bo'sh vaqtini samarali tashkil etish esa, ularning kutubxonalarga borishi, teatrlarda, konsertlarda madaniy xordiq chiqarishi, muzeylarga borishi ma'naviy madaniyatining shakllanishida muhim o'rin egallaydi. Bugungi kunda yoshlarimizning ham intellektual, ham ma'naviy-axloqiy shakllanishiga katta to'siq bo'layotgan illat bu – jinoyatchilik, terrorizm, giyohvandlik, tabiiy muhitning ifloslanishi, OITS ofatidir. Agar bu ofatlarga qarshi yoshlarimizning o'zi birlashmasa taraqqiyotning hozirgi ahvolidagi barqarorlik orqaga chekinadi. Giyohvand moddalarni qabul etadiganlar o'rtasida OITSning tarqalishi yanada xavfli muammoga aylanmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, 2000 yilning iyuniga qadar jahon bo'ylab OITS virusi 34 mlndan ortiq odamga yuqgan. Ko'p mamlakatlarda virusning tarqalishiga ukol vositasidagi giyohvandlik sabab bo'lmoqda¹. Giyohvandlik pul topish uchun turli oqimlarning qutqisiga uchib, noto'g'ri



yo'llarga kirib ketishiga olib kelmoqda. Buning oqibatida, ba'zi yoshlar terroristik harakatlar sodir etishning ishtiroqchisi bo'lib qolishiga sabab bo'lmoqda.

Mazkur salbiy illatlarning barchasi bekorchilik, mehnat qilmasdan engil-elpi yo'llar bilan pul topish, boylik orttirish ilinjida yoshlarning qimmatli vaqtlarini, hayotining oltin davrini samarasiz o'tkazishga olib kelmoqda. Ma'lumki, hozirgi davrda jamiyat yangilanayapti. Ana shu o'zgarishlar va yangilanishlar shu jamiyatda yashovchi har bir yoshni yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda uning barcha imkoniyatlarini rivojlantirishni hisobga olgan holda shu jamiyatda yashovchi shaxsni tarbiyalash yo'llarini izlab topishga yo'llaydi. Chunki hozirgi o'zgarayotgan hayotda ba'zi yoshlar yangi sharoitda yashash va ishlashga, qiyin vaziyatlardan chiqib ketishga yo'l topa olmayaptilar, ba'zilarida esa yuqorida aytganimizdek, o'z iste'dodi va imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda sobitlik etishmayapti.

Zero, shaxsning shakllanishi butun umr davomida, barcha jarayonlarda davom etadi. Bu jarayonda jamiyatimizdagi barcha yoshlarni barkamol va sog'lom etib tarbiyalash uchun ularni zamonaviy va milliy ruhda bilim olishga, mustaqil fikr yuritish, mehnat qilishga o'rganitish, ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarish imkoniyatlarini yaratib berish, tarbiyaning ilg'or shakl va metodlaridan foydalanish muhim. Buning uchun:

- * ta'lim muassasalarida turli tanlovlar o'tkazish, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadigan ommaviy axborot materiallari bilan tanishtirib borish, milliy o'zligimiz, ilm-ma'rifat uchun kurashgan davlat arboblari, mutafakkirlarning faoliyatini o'rganish;

- * yoshlarni qiziqtirgan masalalar bo'yicha mutaxassislar – huquqshunoslar, shifokorlar, fan-madaniyat arboblari bilan doimiy ravishda suhbatlar, savol-javob kechalari, ma'ruzalar, munozaralar o'tkazish;

- * diqqatga sazovor joylarga, madaniyat maskanlariga sayohatlar uyushtirish;

- * turli sohalar bo'yicha iqtidorli, ijodkor yoshlarning bellashuv, tanlov, festivallar, ilmiy anjumanlarda ishtirok etishiga erishish;

- * yoshlarni axborot tizimlaridan foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

- * yoshlarni kasb-korni o'rganishga qiziqishini uyg'otish uchun ularni tadbirkorlik, ish-bilarmonlik faoliyatiga keng yo'l ochish;

- * diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, OITSning oldini olish maqsadida sog'lom turmush madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan mutaxassislar bilan jonli muloqotlar o'tkazish;

- * "XXI asr yoshlari – ular qanday bo'lishi kerak!", "Sog'lom turmush tarzi – sog'lom avlod kafolati", "Narkomaniyasiz hayot barpo etish sizning qo'lingizda!", "Terrorizm – undan ogoh bo'ling!" va boshqa mavzularda ko'chma ko'rgazmalar tashkil etish, shiorlar tarqatish;

- * ta'lim muassasalarida "Eng yaxshi uslubiy qo'llanma", "Yosh ixtirochilar", "Navoiyxon talaba", "Noyob qobiliyat sohiblari", "Eng yaxshi sozanda, eng yaxshi xonanda" mavzularida tanlovlar o'tkazish;



* “Universiada”, “Barkamol avlod”, “Umid nihollari”, “Suv parisi” va boshqalarga bag‘ishlangan tadbirlar yoshlarning faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda quyidagi masalalarni hal etishni zarur deb hisoblaymiz:

1. Yoshlarni faol ijtimoiy hayotda ishtirok ettirish va ularning turmush sharoitini yaxshilash borasida mehnat, ijtimoiy ta‘minot, sog‘liqni saqlash, xalq ta‘limi, oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirliklari, Yoshlar ittifoqi”, Respublika ma‘naviyat va ma‘rifat markazi va boshqa davlat va nodavlat tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish.

2. Yoshlarning manfaatlarini yanada to‘liq ta‘minlash, huquqlarini himoya qilishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani takomillashtirish.

3. Yoshlarning siyosiy, axloqiy, huquqiy, estetik va ekologik madaniyatini shakllantirish uchun chuqur va mustahkam bilim berish, tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish maqsadida ta‘limning yangi texnologiyalarini qo‘llash, uni axborotlashtirishni o‘rganish orqali inson qadr-qimmatini yuqori qo‘yuvchi, o‘zaro munosabatlar madaniyatini qaror toptirish. Har qanday muammoni hal etishdan oldin u kelib chiqqan vaziyatni o‘rganish, odamlar bilan hamfikrlilik madaniyatiga ega bo‘lish, har bir yoshning o‘ziga ishonch tuyg‘usini uyg‘otish.

4. Yoshlar tarbiyasiga doir ilmiy tadqiqot ishlarining ko‘lamini kengaytirish, buning uchun yoshlarda mustahkam mafkuraviy e‘tiqodni shakllantirish, jamiyat taraqqiyotiga to‘siq bo‘layotgan diniy aqidaparastlik, ekstremizm, terrorizm kabi illatlarga qarshi targ‘ibot ishlarini kuchaytirish orqali ularning yoshlar o‘rtasida tarqalmasligiga erishish.

5. Hayotimizda saqlanib qolayotgan yomon illatlar: maishiy buzuqlik, loqaydlik, boqimandalik, poraxo‘rlik, zo‘ravonlik, mahalliychilik, qarindosh-urug‘chilik kabi axloqqa zid holatlarga murosasizlikni shakllantirish.

6. Yoshlarning bandlik darajasini qayta ko‘rib chiqish va bu borada axborot-targ‘ibot ishlarini yaxshilash.

Yoshlar tarbiyasiga doir muammoning yo‘nalishlarini o‘rganish va ularga tizimli yondashish bugungi kunda asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Lekin jamiyat, ta‘lim muassasalari, ota-onaning burchi faqat farzandlarni sog‘lom o‘stirish, voyaga etkazish, ularga bilim berish bilangina cheklanmaydi. Ularni eng zamonaviy kasb-hunarga ega etish, eng muhimi, hayot sinovlariga bardosh berib, uning murakkabliklarini engib o‘tib, kelajakda o‘zlariga munosib o‘rin topishlari uchun imkoniyat yaratish kabi o‘ta muhim va dolzarb masala bugungi hayotimizda o‘z echimini topishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ming yillik ma‘ruzasi. Talabalar uchun qisqa bayon .T. 2003.
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoqud axlok .T. «O‘qituvchi».1992 y.
3. N.Nishonova, K.Riskulova. Sog‘lom turmush madaniyati. T.2008 y.



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MUSIQA VA RAQSNING UZVIYLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

M.E.XALILOVA,

Toshkent sh. Uchtepa tumani 197-sonli umumiy o'rta ta'lim maktab musiqa o'qituvchisi

*“Adabiyot, san’at va madaniyat yashasa,
millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi”*

Shavkat Mirziyoyev.

Mazkur maqolada ta'lim tizimida raqs san'atiga e'tibor berish va kelajakda raqsni san'at darajasiga ko'tarish, uni fan sifatida ta'lim tizimiga kiritish haqida fikrlar bildirilgan.

Tayanch so'z va iboralar: musiqa ta'limi, raqs, san'at, xoreografiya, raqs maktablari, uzluksiz ta'lim.

This article discusses the need to pay attention to the art of dance in the education system of Uzbekistan and its inclusion in the education system as a science.

Key words: musical education, dance, art, choreography, dance schools, continuing education.

В данной статье рассматривается необходимость уделяния внимания искусству танца в системе образования и его внедрению в систему образования как науки.

Ключевые слова: музыкальное образование, танец, искусство, хореография, школы танцев, продолжая образование.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa rahbari va xoreograflar faoliyat ko'satishadi. Ular bolalarga qo'shiq aytishni va raqsga tushushni o'rgatishadi. Bola bog'chada 4-yil davomida musiqiy ohanglar ta'sirida ulg'ayadi. Bola bog'chani tugatib maktabga chiqqanidan so'ng, faqat musiqa bilan bog'lanadi. Raqsga esa faqat tadbirlar bo'lgandagina o'ynashadi. Mana shu jarayonda esa raqs san'ati bilan uzviylik yo'qoladi. O'quvchilarning raqsga qiziqqanlari raqs to'garaklariga qatnashib boradilar. Raqs to'garaklari ma'lum darajada bolaga raqs tushushni o'rgatadi, lekin uning asl mohiyatini ochib bermaydi. Agar biz ta'lim tizimida maktablarga raqs san'atini fan sifatida kirit olsak, bog'cha va maktabni uzviy bog'lagan bo'lamiz. Shunda ta'lim tizimida bu soha uzluksiz davom etadi.

Bugungi kunda bunga misol qilib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 2 –sentabrda 536 -son qaroriga muvofiq O'zbekiston davlat konservatoriyasining “O'zbek maqom san'ati fakulteti” hamda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining tegishli ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari negizida Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti tashkil



etilishini aytishimiz mumkin. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 6 aprelda imzolagan “Xalqaro maqom san’ati anjumanini o’tkazish to’g’risida”gi qaroriham musiqamizga bo’lgan juda katta e’tiborni yana bir bor tasdiqlaydi.

Ta’lim tizimida musiqa fani umumiy o’rta ta’lim maktablarida haftasiga 1 soatdan 1 sinfdan 7 sinfgacha va 1 yilda 34 soat dars o’tiladi.

San’at turlari juda ko’p, lekin musiqa va raqs uning bebaho bir ajralmas qismidir. Raqs san’atning har bir turida aks etadi. Bugungi kunda raqsning san’atdagi o’rni yuksak baholanmoqda. Davlatimiz rahbarining 2018 yil 3- fevraldagi tegishli qaroriga asosan Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi uchun alohida bino ajratilib, rekonstruksiya qilinib, yangi bino mustaqilligimizning 28 yilligiga tuxfa etildi. 2020 yil 4 fevralda qabul qilingan “Milliy raqs san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi hamda “Raqs san’ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarorlari milliy raqs san’atimizni yangi bosqichlarga olib chiqishda ko’plab imkoniyatlarni ochib berdi. Xususan, Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi negizida davlat oliy ta’lim muassasi shaklida O’zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimida O’zbekiston davlat xoreografiya akademiyasini tashkil etish, Respublika xoreografiyaga ixtisoslashtirilgan maktabni Akademiya tizimidagi Respublika xoreografiya ixtisoslashtirilgan maktab-internatiga aylantirish, 2021-2022 o’quv yilidan boshlab Buxoro, Qarshi, Namangan va Urganch shaharlarida ixtisoslashtirilgan boshlang’ich raqs san’ati maktab –internatlarining tashkil etilishi aniq maqsadli ta’lim tizimini yaratish borasidagi ulkan qadam bo’ldi. Bundan ko’rinib turibdiki, biz raqsni umumta’lim maktablarining 1- sinfdan tortib, 7-sinfgacha fan sifatida kiritsak, ta’lim tizimida uzviylikni ta’minlagan bo’lamiz.

Ming afsuslar bo’lsinki, bugungi kunda jamiyatimizda musiqa va raqs san’atiga bo’lgan munosabatlar umuman boshqachadir. O’zbek xalqining ma’lum bir qatlamida musiqachilarni qo’shiqchi emas “otarchi”, raqqosalarni “o’yinchi” deb atashadi. Xush bunga sabab nima? Buning asosiy sababi san’at sohasidagi ba’zi bir qo’shtimoq ichidagi “yulduzchalar”ni o’z sohasini mukammal bilmasligi va san’atni shou-biznes olamiga aylantirganligidir. Raqs sohasidagi ayrim raqqosalarimizning noodatiy hatti-harakatlari o’zbek xalqini g’ashiga va g’azabiga uchramoqda. Bundan ko’rinib turibdiki, bu 2 sohadagi juda katta kamchilik va xatoliklari o’zbek xalqining san’atga bo’lgan qiziqishlari va qarashlarini tub ma’noda o’zgartirib yubormoqda. Bu kabi qarashlarni o’zgartirish vaqti kelmadimikan? Shuning uchun biz uzliksiz ta’lim tizimiga raqs san’atini fan sifatida kiritishimiz zarur. Negaki xalqimiz raqs san’ati nima ekanligini hali ham bilishmaydi. Jamiyatimizda raqs degan tushuncha “likkillash” atamasi bilan almashib qolgan. Raqs san’ati musiqaning ajralmas qismidir. Musiqaning yaratilish tarixi bo’lgani kabi, raqsni ham o’z tarixi bor. Biz raqs alifbosini yaratib, uni yosh avlodga tushuntirib yetkazib



bersak, bu sohaga bo'lgan dunyoqarashini o'zgartirsak bo'ladi. Chunki raqsning o'zini olami va dunyosi bor. Biz bu olamni oila, maktab, jamiyat uchburchagi negizi ostida amalga oshirishimiz kerak.

Ta'lim tizimiga raqs san'atini fan sifatida kiritish maqsadga muvofiqdir. Negaki, raqs san'atining ham fan sifatida o'rganiladigan tarixi va o'z alifbosi bor. Bu tarixi asosida o'quvchilar raqsning o'zi nima ekanligini anglab, uning alifbosi orqali raqs elementlarini o'rganishi mumkin. Raqsning asosiy poydevori bu – klassikva milliy raqs hatti-harakatlaridir. Bu hatti-harakatlari orqali o'quvchida raqsning asosiy ustunlari paydo bo'ladi. Bu ustunlarni bilmasdan turib, raqsni ijro qilish mumkin emasdir. O'quvchi raqsning elementlarini tushunib ijro qilsa, unda improvizatsiya ya'ni iqtidori shakllanadi. Maktablar o'rtasida o'tkaziladigankorik tanlovlar va festivallarda o'quvchining iqtidoridan kelib chiqib, oliy o'rinlar va mukofatlar beriladi. Bundan ko'rinish turibdiki, o'quvchilar raqs san'ati haqida bilmasdan turib shuncha natijalarga erishmoqda. Agar biz raqsni fan sifatida kiritsak o'quvchilarimiz butun yevropa bilan bahslashaladi. Shu bilan eng asosiysi o'quvchining sog'ligi mustahkamlanadi. O'quvchi tana muvozanatini mustahkamlaydi, o'pkasini kislorod bilan ta'minlaydi, yassi oyoqlikni oldini oladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa fanining har bir choragida raqs o'yinlari va raqsar haqida ma'lumotlar bor. Boshlang'ich sinflarimizda "Chittigul", "Boychechak", "Oftob chiqdi olamga", "Laylak keldi, yoz bo'ldi", "Jamalagi tillo qizgina" kabi folklor musiqa bilan birgalikda folklor raqsarlari ham bor. 5 sinf musiqa darsligining III-choragida balet san'ati, o'zbek baletlari, o'zbek raqs san'ati, o'zbek raqs maktablari ya'ni Xorazm, Buxoro, Qoraqalpog', Surxondaryo raqs maktablari haqida ma'lumotlar kiritilgan. Chunki raqs harakatlarining asosiy qoidalari bor. Misol qilib: Farg'ona uslubi harakatlari, Buxoro uslubi harakatlari va Xorazm uslubi harakatlarini keltirishimiz mumkin. Bu uslublarning o'z qo'l holati, oyoq holati, salomlari, bosh holati, gavda holati va muqomlari bor. Bularni maktab yoshidagi o'quvchilarimiz bilishi va o'rganib, ijosida farqlay olishi zarurdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 15 fevraldagi "Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi PF-4956-sonli farmoni 4-bandiga asosan "O'zbeknavo" Estrada birlashmasi va "O'zbekraqs" milliy raqs birlashmasi negizida "O'zbekkonsert" davlat muassasasi tashkil etilib, Muassasa tarkibida yangi bo'lim-Raqs va xoreografiya san'ati faoliyatini rivojlantirish va tashkil etish bo'limi faoliyati yo'lga qo'yildi.

Sohani rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratilayotgan bo'lsada, bugungi kunda raqs san'atini qoniqarli deb bo'lmaydi. Buni keyingi paytlarda OAVda milliy raqs san'atiga doir chop etilayotgan tanqidiy maqolalar va telekorsatuvlardagi mulohazalarda, bugungi kunda raqs san'atining nufuzi tushib borayotganligi, sohada yechimini kutayotgan bir qator kamchilik va muammolar ko'zga tashlanayotganligi, shuningdek, hududlarga xos raqs uslublari o'zaro



qorishib, raqs san'atining milliy xususiyatlari yo'qolib borayotganligi keskin tanqid qiliniyotganligidan bilish qiyin emas. Bu kabi muammolarni bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi "O'zbekkonsert" davlat muassasasi tomonidan "Milliy raqs san'atining rivojlanish tarixi, dolzarb muammolari va zamonaviy konsepsiyalari" mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tib, konferensiyada bir qator masalalar muhokama etilgan.

Bizning o'zbek milliy raqslarimiz butun dunyoga mashhur desak bo'ladi. Bunga namuna sifatida AQSHda ilk bor O'zbek raqs dastasini tuzgan Lourel Viktoriya Greyni misol keltirsak ayni muddodir. Doktor Lourel Viktoriya Grey- O'zbek raqsini AQSHda yoygan ilk san'atkorlardan. U 1980 yilda Siyetl shahrida o'zbek raqsi dastasini tuzgan. Lourel Grey xonimni o'zbek raqsiga bo'lgan muhabbatiga O'zbekistonning mashhur raqqosasi Qizlarxon Do'stmuhammedova sababchidir desak yanglishmaymiz. 1979 yilda O'zbekistondan AQSHga delegatsiya taklif etiladi. U paytlar "Sietl-Toshkent –birodarlashgan shaharlar" maqomini olgan. Sietl universitetida O'zbekistonning mashhur "Bahor" ansambli hamda Q.Do'stmuhammedova o'zi ham yakka tarzda "Munojot" raqsini ijro etgan. Men o'shanda Qizlarxonning ijrosidan shunchalik ta'sirlangan edimki, raqsidagi har bir hatti-harakati, oyoq va qo'llari pozitsiyasi, texnikasi hayolimga bir umr o'rashib qolgan deb ma'lumot beradi Lourel Grey o'z intervyularida. Qizlarxon Do'stmuhammedova "Munojot", "Tanovar", "Intizor", "Buxoro yulduzlari" kabi milliy raqslarini AQSH, Liviya, Fransiya, Germaniya, Tunis kabi davlatlarda mahorat bilan ijro etgan. AQSHda "Tanovar" va "Buyuk ipak yo'li" ansambllari tuzildi. Globallashuvning hozirgi davrida ko'p narsalar bir xil shaklga kirib bormoqda, farqlar yo'qolmoqda, hamma narsa aralashib ketmoqda. Bugun odamlar noyob va o'ziga xos narsalarni izlashmoqda. Nafis san'atni o'rganishga bo'lgan chanqoqlik kuchaymoqda. Shubhasiz, o'zbek raqsi o'zining sharqona jozibasi, latofati bilan ajralib turadi, qadimgi an'analarni o'zida saqlab keladi. Amerikalik xotin-qizlarni raqsimizdagi har bir o'zbek ayoliga xos bo'lgan his-tuyg'ular va samimiyat o'ziga jalb etadi. Ular bizning raqslarimizni katta qiziqish bilan o'rganib, milliy liboslarimizni kiyishmoqda ya'ni o'zbek brendini ilgari surishmoqda. Gollivud aktrisasi Gvenifar Reygan Jeyms 16 yildan beri Sikl Road Dance kompaniyasida ishlab kelmoqda. U aktrisa raqqosamiz Q.Do'stmuhammedovaga yuragim qirolichasi deb ta'rif beradi. Milliy raqsingiz men o'z hayotim davomida ko'rganlar ichida eng nozigi, go'zali va nafosatlisidir, deydi, aktrisamiz.

O'zbek raqqosalari ham hislarini raqs orqali ifodalaydi, biroq o'z sha'nini asragan holatda qalbidagi hislarini ifoda etishadi. G'arb raqslari kabi ochiq, tajovuzkor va shahvoniy harakatlarni ko'rmaysiz. O'zbek raqsiga qarab, raqs pok bo'lishi mumkin ekan, muhabbatni ruhiy tarzda ifodalash imkoni bor ekan, degan fikrga kelasan kishi. O'zbek raqsi ayolning sha'nini yerga urmaydi, balki



uning qadr-qimmatini va ulugʻvorligini namoyon etadi.

Chet davlatlarda insonning salomatligini saqlash uchun musiqa va raqs terapevtlari kasb sifatida faoliyat koʻrsatishadi.

Raqs – bu organizm uchun mislsiz foyda. Raqs qobiliyatlarni kengaytiruvchi, rivojlantiruvchi va mustahkamlovchi hamda immunitetga ijobiy taʼsir etuvchi muhim koʻmakdir. Doimiy mashqlar barcha tizimlar va organlarni ishga solib, ularning ishiga juda katta samara beradi. Ular qon aylanishini yaxshilaydi, mushaklar bilan toʻqimalarda turgʻunlik vujudga kelishiga qarshilik qiladi. Raqs bilan shugʻullangan paytda shugʻullanuvchilar oʻz badanining mushak tizimini rivojlantiradi, egiluvchanlik va qayishqoqlikni oshiradi, nazokat va jilvakorlikka oʻrganadilar.

Raqs mashgʻulotlari tana muvozanatini salmoqli darajada rivojlantiradi, uni yanada aniqroq boshqarishni oʻrgatadi. Ginekologlar "bellydance" (qorin raqsi) kabi raqs bilan shugʻullanishni har bir yosh ayolga maslahat beradilar, chunki ularning fikricha bu bepushtlikdan hamda faqat ayollarda uchraydigan boshqa koʻp kasalliklardan qutulishning eng yaxshi vositasi ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 15 fevraldagi "Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PF-4956-sonli farmoni;

2. 2020 yil 4 fevralda qabul qilingan "Milliy raqs sanʼatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi hamda "Raqs sanʼati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi qarorlari;

3. Gulnora Sharipova "Musika va uni oʻqitish metodikasi" Toshkent, "Turon-Iqbol" 2001.

4. Bradt J, Dileo C. "Koroner yurak kasalliklarida stress va tashvishlarni kamaytirish uchun musiqa". Cochrane Database Syst Rev. 2009;15(2):CD006577.

5. Ezzone S, Beyker S, Rosselet R, Terepka E. "Musiqiy antisemitizmga yordamchi sifatida" Oncol Nurs Forum. 1998;25:1551-1556.

6. Maratos AS, Gold C, Vang X, Crawford MJ "Depressiya uchun musiqa terapiyasi". Cochrane Database Syst Rev. 2008;23(1):CD004517.



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA QIZIQTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

T.X.AVLIYAQULOV,
TerDU o'qituvchisi

Mazkur maqolada maktab o'quvchilarini kasb-hunarga qiziqtirishning didaktik ta'minotining o'ziga hos xususiyatlari aniqlangan. Kasb hunarga oid yo'nalishlarini aniqlash nazariy asosida belgilangan. Kasb-hunarga yo'llanishning sifatleri vazifalari hamda didaktik-ta'minoti aniqlangan.

Kalit so'zlar: nazariyasi, yo'nalishlari, hususiyatlari, sifatleri, ta'minoti, ma'lumoti

В статье определены особенности дидактического сопровождения интереса школьников к профессии. Определение направления профессии определяется теоретически. Определены задачи и дидактическое обеспечение качества профориентации.

Ключевые слова: теория, направления, особенности, качества, предложение, информация.

This article identifies the specific features of the didactic support of school students' interest in the profession. Determining the direction of the profession is determined on a theoretical basis. The tasks and didactic support of the qualities of vocational guidance are defined.

Key words: theory, directions, features, qualities, supply, information

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Ta'lim to'g'risidagi» Qonuni, «2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi», dialektik bilish nazariyasi va tabiiy ilmiy majmui e'tirof etilgan.

Pedagogik amaliyotga tatbiq etishda jahon pedagogik tajribasida tan olingan va samarali natijalar berayotgan nazariy qarashlar, ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutilgan. Ular shaxsning o'quv-biluv faoliyatini liberallashtirish yo'llari, ta'lim mazmunini tanlash va ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirish prinsiplari, politexnik va kasb ta'limi nazariyasi, ta'limni ijtimoiy foydali mehnat bilan uyg'unlashtirish konsepsiyasi, ta'lim-tarbiya qonuniyatlariga asoslanib tashkil etilishida namoyon bo'lmoqda. Bu esa maktab, kollej va akademik litseylar va maktabdan tashqari muassasalari xodimlarini ham nazariy, ilg'or tajribalar bilan qurollantiradi. Ota-onalarga yoshlarni to'g'ri tarbiya qilish, o'qitishdagi mahoratini yanada takomillashtirish yo'lida didaktik ta'minot orqali amaliy tavsiyalar berishga imkoniyat tug'diradi.

Tarbiya- o'sib kelayotgan avlodlarda hosil qilingan didaktik bilimlar asosida aqliy kamoloti va dunyoqarashini, insoniy e'tiqod, burch va mas'uliyatni



jamiyatimiz kishilariga xos bo'lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. Tarbiya bola tug'ilganidan boshlab umrining oxirigacha davom yetadigan jarayondir. Shu sababli, tarbiya so'zi ko'p vaqtlarda ta'lim, ma'lumot jarayonlariga kiradigan ishlarning mazmunini ham anglatadi. Tarbiya-ta'lim va ma'lumot natijalarini o'zida aks yettiradi.

Ta'lim-maxsus tayyorlangan kishilar rahbarligida o'tkaziladigan, o'quvchilarni didaktik ta'minotga doir bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradigan, bilish qobiliyatlarini o'stiradigan, ularning kasb-hunarga nisbatan qiziqishini, dunyoqarashini tarkib toptiradigan jarayondir.

Agar tarbiya bola tug'ilganidan boshlab, umrining oxirigacha oilada, maktabda va jamoatchilik ta'sirida shakllansa, ta'lim chegaralangan (masalan: sinf xonasi, laboratoriya xonalar) joyda tashkil yetiladi. O'qituvchi-tarbiyachi rahbarligida muayyan belgilangan vaqtda olib boriladi.

Ta'minot ta'lim-tarbiya natijasida olingan va tizimlashtirilgan didaktik bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda shakllangan dunyoqarashlar majmuidir.

Ta'lim, tarbiya va ta'minot uyg'unlashgan yagona jarayon bo'lib, o'qituvchi-tarbiyachi ularning shakllanishida yetakchilik qiladi. O'qituvchi maktabda dars berar ekan, o'quvchilarni fan olami yangiliklaridan xabardor qiladi, ma'lumotli qilishni maqsad qilib qo'yadi, ayni paytda ularda insoniy sifatlarni kasb-hunar qiziqishlarini shakllantiradi, tarbiyalaydi.

Pedagog o'quvchilarning aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarini tarbiyalash uchun, ularning kundalik xatti-harakat va fe'l-atvorlariga doimo ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy hayot tajribasining ko'rsatishicha, agar inson o'z shaxsiy manfaatini ko'zlab o'qisa, o'rgansa, o'z ustida tinmay qunt bilan shug'ullansa, u oliy ma'lumot olishi mumkin. Lekin haqiqiy mukammal kamolot egasi bo'lishi uchun u ta'lim va ma'lumotdan tashqari, yuksak insoniy fazilatlar asosida tarbiyalangan bo'lishi shart. Ana shu fazilatlarga yega bo'lgan odamni tarbiya ko'rgan odam deyiladi.

Har tamonlama yetuk, barkamol avlodni yetishtirishda mehnat tarbiyasining o'rni beqiyosdir. Insonning kundalik turmush tarzi mehnat faoliyati bilan bog'liqdir. Shu sababli mehnat butun moddiy va ma'naviy boyliklarning ijtimoiy taraqqiyotining negizidir. Mehnat tarbiyasi shaxsni har tomonlama rivojlantirishning ajralmas qismidir. Shuningdek, bolani har tomonlama shakllantirish vositasi, uning shaxs sifatida ulg'ayish omili hamdir. Muntazam



qilingan mehnat jarayonidagi bola o'z aqlini, irodasini, hissiyotini, xarakterini rivojlantirishi mumkin.

Bolalarni mehnatni sevish ruhida tarbiyalash-butun insoniyatni tarbiyalash demakdir. Shu boisdan yosh avlodni mehnatga to'g'ri munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash barcha ta'lim-tarbiya muassasalari faoliyatining asosiy negizi bo'lib qolmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyatining muhim vazifalaridan biri o'quvchilarni hayotga tayyorlash va kasb-hunar tanlashga yo'naltirishdan iboratdir.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ularning qiziqishi, layoqati, qobiliyatlariga va jamiyatning turli xil kasblarga bo'lgan ehtiyojiga muvofiq holda kasb tanlashga yordam beruvchi maqsadli faoliyatdir. U fanlararo rivojlanuvchi nazariya va amaliyotning birligi asosida vujudga kelib, o'quv-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Bunda asosiy rol ni nazariya egallaydi. YA'ni muayyan nazariya asosida u yoki bu g'oya shakllanadi, amaliy ishni ilmiy-amaliy ishga aylantiradi. Nazariya faoliyat kabi tez hosil bo'lib, yillar mobaynida rivojlanadi. Kuzatish va tadqiqot natijasida nazariya shakllantiriladi va u asosiy faoliyatni ixchamlashtirishga xizmat qiladi.

Kasb-hunarga yo'naltirish nazariyasi: kasb-hunarga yo'naltirish faoliyatini samarali tashkil etishga qaratilgan turli xil qarashlar majmuasi, g'oyalar va tasavvurlar yig'indisi bo'lib, u ayni vaqtda ikki jarayonni bir-biriga bog'liqligi qonuniyatlari to'g'risida to'liq tasavvur beradigan ilmiy bilimlarni tashkil etish shakli, yoshlarni shaxsiy qiziqishlari, layoqat va qobiliyatlariga mos keladigan, jamiyat uchun zarur kasb-hunarlariga yo'llashdir.

Kasb-hunarga yo'naltirish nazariyasining tarkibiy qismlariga: dalillar, qonuniyatlar va tamoyillar kiradi.

Kasb-hunarga yo'naltirishda ilmiy metodlar asosida olingan ishonchli dalillar juda oz bo'lishi sababli, bu boradagi muhim vazifalar yangi dalillarni yig'ish hisobiga, bir yoki bir necha farazlar yordamida amalga oshiriladi. Masalan har bir hududda yoshlar nima'lum bir kasb-hunarni tanlashlariga ta'sir ko'rsatadigan o'ziga xos omillar mavjud.

Kasb-hunarga yo'naltirish nazariyasining ikkinchi tarkibiy qismi-qonuniyatlardir. Qonuniyatlarni didaktik ta'minoti bilish ilmiy tadqiqotning asosini tashkil etadi. Topilgan qonuniyatlar fanning maxsus tilida kasb-hunarga yo'naltirish tushunchasini boshqa fanlarga oid tushunchalar bilan o'zaro



aloqadorligini ma'lum aniqlikda ifodalaydi.

Shuningdek, kasb-hunarga yo'naltirishda boshqa bir qator tamoyillar guruhi ham mavjudki, ular umumpedagogik tamoyillar bilan uzviy aloqada ifodalanadi. Bular quyidagilardan iborat:

- kasb-hunarga yo'naltirishning hayot bilan mehnat va amaliyot bilan bog'liqligi;

- kasb-hunarga yo'naltirishning yoshlar mehnat tayyorgarligi bilan bog'liqligi;

- texnologiya (mehnat) ta'limi va tarbiyasining yaxshi yo'lga qo'yilishi; bunda o'quvchilarning texnikaviy ijodkorligini tashkil etish, ularning ijtimoiy foydali, unumlimehnatidan mohirlik bilan foydalanishi.

Kasbga yo'naltirishning tizimliliği va uzviyligi prinsipi umumiy o'rta ta'limda 5-sinfdan to 9-sinfgacha kasb-hunarga yo'naltirish nazariyasini didaktik ta'minot orqali uzviyligini ta'minlaydi:

- kasb-hunarga yo'naltirishda maktab, oila, homiy tashkilot, kasb-hunar kolleji va jamoatchilikning o'zaro aloqadorligi prinsipi yoshlarning kasb tanlashlariga yordam berishni ko'zda tutadi. U maqsadli va muvofiqlashtiruvchi faoliyatni hamkorlikda amalga oshirish imkonini beradi;

- kasb-hunarga yo'naltirishning tarbiyaviy xarakteri shundaki, u rivojlangan shaxsni shakllantirishda mafkuraviy, axloqiy, estetik, huquqiy va jismoniy tarbiyani birgalikda olib borishni taqozo qiladi;

- kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini amalga oshirishda tashhis va tarbiyaviy yondashishning o'zaro aloqadorligi. Bu tamoyil bir yondoshuvning ikkinchi yondashuvga qarama-qarshi qo'yilishini bartaraf etadi;

- o'quvchilarga individual va tabaqalashtirilgan yondashuvlarning o'zlashtirish darajasi, yoshi, kasbiy qiziqish, shakllanganlik darajalari, hayotiy rejalariga bog'liq ravishda amalga oshiriladi. Bir guruh samarali bo'lgan vosita ikkinchi guruh uchun samarasiz bo'lishi mumkin. O'quvchilarni tabaqalashtirib, guruhlarga ajratish ta'sir etish vositalarini tartibga soladi.

Kasbga yo'naltirishning metodologiyasi kasbni ongli ravishda mustaqil tanlash bo'yicha ilmiy muammoning tadqiqot metodlari didaktik ta'minot usullari, tuzilishi hamda asosiy yo'l-yo'riqlari to'g'risidagi ta'limot bo'lib, bunda jamiyatning kadrlarga bo'lgan ehtiyojini hisobga olgan holda yoshlarning qiziqishlarini aniqlash, ularga kasb tanlashda ilmiy yordam berish tushuniladi.

Kasb-hunarga yo'naltirishishlarini tashkil etishga ta'sir ko'rsatadigan



konseptual xarakterdagi g'oyalar uning asosiy qoidalarini tashkil etadi. Bu g'oyalardan biri diagnostik tadqiqodlar asosida yoshlarning qiziqish, moyilligi, layoqat va qobiliyatlarini tashhis qilib, ularni to'g'ri kasb tanlashga yo'naltirishlarini tashkil etish hisoblanadi. Bu g'oya XX asrning 30-yillarida keng tarqalgan bo'lib, bunda testlar keng qo'llanilgan. Testlarning takomillashtirilmaganligi, noto'g'ri qo'llanilganligi va boshqa bir qator sabablarga ko'ra, tashhisli tadqiqod "tarbiyalovchikonsepsiya" bilanalmashtirildivaularbir-birigaqarama-qarshiqo'yildi. Ammo o'sha vaqtda yoq tashhis ham, tarbiya ham kasb-hunarga yo'naltirishning amaliy ishlarida birdek muhim ahamiyatga ega ekanligi aniq va ravshan edi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish boshlanib, bugungi kunda tashhisning roli ortib bormoqda. Mamlakatimizning barcha tumanlarida kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashhis markazlarining ochilganligi fikrimiz isbotidir. Bugungi kunda kasb-hunarga yo'naltirish tizimining asosiy vazifasi o'quvchilarga ularning qiziqish, layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarin ito'g'ri tash his qilib, ixtiyoriy majburiy ta'lim tizimini, ya'ni akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida davom ettiriladigan ta'lim yo'nalishini ongli va to'g'ri tanlashlarida asq otadigan, ilmiy asoslangan to'laqonli maslahatlar berishdir. Bu maslahatlar tavsiya xarakteriga ega bo'lib, kasb tanlashni o'quvchining o'zi amalga oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. И.А.Каримов, Юксак маънавият - энгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – 176 б.
2. С.Хасанов, "Мутафаккирлар меҳнат тарбияси ҳақида". Тошкент. "Ўзбекистон". 1993 йил 136 б.
3. З.Очилов, "Синфдан ташқари тарбиявий ишларда касбга танлашни шакллантириш". Тошкент. "Ўқитувчи". 1996, 120 б.
4. С.Хасанов, "Мутафаккирлар ме-нат тарбияси ҳақида". Тошкент "Ўзбекистон". 1993, 136 б.
5. Маркова А.К. "Педагогика профессионализма", - М:Знание, 1996.
6. Муслимов Н.А. "Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантириш", (Монография).Т. "Фан"2004 й.



KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN BITIRUVCHI YOSHLARNI HAYOTDA IJTIMOYIY MOSLASHUVINI AMALGA OSHIRISHDA JAMOAT TASHKILOTLARINING O'ZARO HAMKORLIGI

A.Q.XOLIQOV,

pedagogika fanlari falsafa doktori(PhD)

Ushbu maqoladako 'rishida nuqsoni bo'lgan bitiruvchi yoshlarni hayotda ijtimoiy moslashuvini amalga oshirishda jamoat tashkilotlarining o'zaro hamkorligi to'g'risida so'z boradi. Bitiruvchi yoshlarning ijtimoiy hayotga moslashuvi, ularni kasb hunarga yo'naltirish, ularga qulay bo'lgan ish o'rinlarini yaratishda jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlikni amalga oshirishning o'ziga xos jihatlari to'g'risida bayon etilgan.

Tayanch so'zlar: ko'rishida nuqsoni bo'lgan bitiruvchi yoshlar, hamkorlik, ijtimoiy moslashuv, dastur, internat-maktab, yoshlar ittifoqi, ko'zi ojizlar jamiyati, davlat va nodavlat organi, jamoat birlashmalari.

В статье рассматривается взаимодействие общественных организаций в реализации социальной адаптации в жизни молодых выпускников с нарушением зрения. Описаны особенности адаптации выпускников к общественной жизни, их ориентация на профессию, взаимодействие с общественными организациями при создании удобных для них рабочих мест.

Ключевые слова: выпускники с нарушениями зрения, сотрудничество, социальная адаптация, программа, интернат, молодежный союз, общество слепых, государственная и негосударственная структура, общественные объединения.

This article discusses the interaction of public organizations in the implementation of social adaptation in life of graduates with visual impairments. It describes the peculiarities of the adaptation of graduates to social life, their orientation to the profession, the interaction with public organizations in creating jobs that are convenient for them.

Key words: graduates with visual impairments, cooperation, social adaptation, program, boarding school, youth union, society for the blind, governmental and non-governmental body, public associations.

Hozirgi davr barcha sohalarida o'zaro hamkorlikni, inoqlikni hamda bir-biriga ko'mak berishni taqozo etmoqda. Hech bir soha yoki biror bir faoliyat hamkorliksiz rivojlanishi, yuksalishi mumkin emas. Insoniyat hayotiga nazar tashlasak, xalqlarning hamda davlatlarning o'zaro diplomatik aloqalari tufayli ko'plab muammolarni echishiga muyassar bo'lgan. Hamkorlik tufayli qilinayotgan ishning sifat jihatidan samarali kechishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Bu borada, shubhasiz, ta'lim tizimida o'zaro hamkorlikni tashkil etish orqali, o'quvchilarning kelgusi hayotida qilinishi lozim bo'lgan bir qator vazifalarni hal etilishiga turtki bo'ladi.

Hozirgi vaqtga kelib, qay bir sohani tahlil etsangiz unda o'zaro hamkorlikni,



inoqlikni ko'rasiz. SHuning uchun ko'rishida nuqsoni bo'lgan bitiruvchi yoshlarni hayotda ijtimoiy moslashuvini amalga oshirishda jamoat birlashmalarining o'zaro hamkorligi nihoyatda zarur sanaladi. Inchinun, bu hamkorlik asosida istiqbol rejalarini, mavjud kamchiliklarni bartaraf etilishiga o'zaro ta'sir etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 avgustdagi F-5006-son farmoyishi bilan tashkil etilgan Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan takliflarni tayyorlash bo'yicha komissiya tomonidan nogironlikni barvaqt aniqlash va oldini olish, nogironligi bo'lgan shaxslarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish, ularni kasbga o'qitish va ishga joylashtirish sohasidagi ishlarning ahvoli kompleks va chuqur o'rganildi. Mazkur jarayonda aholining keng qatlamlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari, shuningdek, xalqaro va xorijiy tashkilotlar vakolatxonalari yuqori faollik va daxldorlik hissini namoyon qildilar.¹ Hal etilishi lozim bo'lgan bir qator muammolar mavjudligi tanqidiy tahlil etildi va davlat va nodavlat tashkilotlarining o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish fursati kelganligini ushbu farmoyishda ta'kidlab o'tilgan.

Internat-maktablar va jamoat birlashmalari o'rtasida quyidagi ustuvor vazifalarni yo'lga qo'yish lozim deb o'ylaymiz.

1. Ko'rish bo'yicha ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari va jamoat birlashmalarining o'zaro hamkorligini maqsadli tashkil etish;

2. Ikki tomonlama manfaatli, maqsadli, samarali yo'lga qo'yish;

3. Bitiruvchi yoshlarni mustaqil hayotga o'rin topishida jamoat birlashmalarini ta'sirini oshirish;

4. Bitiruvchi yoshlar va jamoat birlashmalari o'rtasida (kasbga va ijtimoiy moslashuv) kabi tadbirlarni o'zaro uyushtirish;

5. Bitiruvchi va jamoat birlashmalarini faoliyatini tizimli yo'lga qo'yishning aniq dastur va rejalarini ishlab chiqish.

Biz so'z yuritayotgan mavzuda aynan, ko'rishida nuqsoni bo'lgan bitiruvchi yoshlarni hayotda ijtimoiy moslashuvini amalga oshirishda birinchi navbatda O'zbekiston ko'zi ojizlar jamiyati, O'zbekiston YOshlar Ittifoqi mas'uliyatli vazifalarni bajarmog'i shart. Buning uchun O'zbekiston YOshlar Ittifoqining imkoniyati cheklangan yoshlar uchun mo'ljallangan ijtimoiy loyihalarini moliyalashtirish, shu toifa yoshlarni kasbga o'qitish, ular uchun zaruriy bilimlarni berish, muhim deb o'ylaymiz. Kelgusida, internat-maktablardagi yoshlar etakchilari va O'zbekiston YOshlar Ittifoqi hududiy bo'limlari o'zaro hamkorligini quyidagi



maqsadlarda tashkil etish o‘rinli deb o‘ylaymiz.

Birinchidan bitiruvchi yoshlarga mo‘ljallangan ijtimoiy loyihalarni internat-maktab sharoiti uchun loyihalash tizimini yaratish.

Ikkinchidan bitiruvchi yoshlar uchun mo‘ljallangan kasb o‘rganishga, til o‘rganishga, pazandachilik va hunarmandchilikni o‘rganishga qaratilgan maxsus to‘garaklarni tashkil etish.

Uchinchidan to‘garaklar faoliyatini samarali kechishini doimiy ishlashini yoshlar ittifoqining nazoratida qoldirish.

To‘rtinchidan yoshlar ittifoqining ilm fanga oid ijtimoiy loyihalarini ushbu toifadagi ta‘lim oluvchilarga mo‘ljallash.

Yuqorida keltirilgan qilinishi lozim bo‘lgan vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirsak, o‘ylaymanki, oldimizda turgan bir qancha muammolarni echilishini oldini olgan bo‘lamiz. Buning uchun O‘zbekiston ko‘zi ojizlar jamiyati hamkorligini yanada oshirish vaqti keldi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Jumladan, O‘zbekiston ko‘zi ojizlar jamiyati ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bitiruvchi yoshlarni ro‘yxatga olish, ularni ishga joylashida, kasb o‘rganishida, ta‘lim olishida amaliy vazifalarni bajarmog‘i lozim deb bilamiz. Buning uchun, O‘zbekiston ko‘zi ojizlar jamiyati ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bitiruvchi yoshlarni hayotda ijtimoiy moslashuvini amalga oshirishda quyidagi vazifalarni bajarmog‘i kerak.

1. Bitiruvchi yoshlarni bandligini ta‘minlash uchun ko‘zi ojizlar jamiyati va davlat tashkilotlarini o‘zaro hamkorligini yo‘lga qo‘yish;

2. O‘zbekiston ko‘zi ojiz jamiyatining tashabbusi bilan ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bitiruvchi yoshlarga mo‘ljallangan ish o‘rinlarini yaratilishiga yordam berish;

3. O‘zbekiston ko‘zi ojizlar jamiyati va uning xududiy bo‘limlarida bitiruvchi yoshlarni bandligini ta‘minlashga qaratilgan maqsadli tadbirlarni uyushtirish;

4. Qonun hujjatlarida ko‘rsatilgan 3 foizli kvota bo‘yicha ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bitiruvchi yoshlarni ishga joylashishida ko‘zi ojizlar jamiyatining ta‘sir doirasini oshirish;

5. Xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro maqsadli hamkorliklarni yo‘lga qo‘yish;

Biz o‘tkazgan tadqiqotlarimizda shuni aniqladikki, ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bitiruvchi yoshlarning o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ishga joylasha ololmaganligi, buning uchun vakolatli davlat organlarining amaliy yordami o‘z vaqtida berilmayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Shunday ekan, bitiruvchi yoshlarni hayotda ijtimoiy moslashuvini to‘g‘ri tashkil etish uchun barcha davlat va nodavlat tashkilotlarining mas‘uliyatini oshirish vaqti keldi desak, xato qilmagan bo‘lamiz.



Buning uchun Bandlik va Mehnat munosabatlari Vazirligi bu borada maqsadli ishlarni yo'lga qo'yimg'i zarurdir, ya'ni, imkoniyati cheklangan bitiruvchi yoshlar uchun qulay ish-sharoitlarini tashkil etish maqsadida, o'zidan yuqori turuvchi davlat organlariga aniq maqsadli dasturlarini amalga oshirish uchun aniq chora-tadbirlarni bajarmog'i shart deb o'ylaymiz. Shunda ishsiz yurgan, hayotda qiynalayotgan, nogironligi bo'lgan bitiruvchi yoshlarni jamiyatida o'z o'rini egallashiga amaliy yordam bergan bo'lamiz. Ushbu faoliyatga siyosiy partiyalarning ishtiroki, ularning ta'sir doirasi kerak deb o'ylaymiz.

Buning uchun har bir siyosiy partiya o'zining saylov oldi dasturlarida aynan, nogironlarni bo'lgan yoshlarni kasbga o'rgatish va ishga joylashishi muammolarini kiritishi lozim. Siyosiy partiyalar o'zining faoliyatida yuqorida keltirilgan muammolar bo'yicha yaqin yillar uchun mo'ljallangan istiqbol dasturlarida huquqiy jihatdan kiritishi lozim. Qachonki, biz so'z yuritayotgan muammolar huquqiy jihatdan, qonunchilik tizimida muhokama qilinmas ekan, barcha faoliyatimiz samarasiz bo'laveradi. Birinchi navbatda normativ hujjatlarni qayta ko'rib chiqish, ularni takomillashtirish masalasini siyosiy partiyalar tizimli hal qilmog'lari shart deb bilamiz.

So'zimizni yakunlar ekanmiz, har bir davlat organlari va jamoat birlashmalari o'zlarining mas'uliyatli vazifalarini aniq yo'lga qo'ysalar, o'ylaymanki, bitiruvchi yoshlarni hayotda ijtimoiy moslashuvini to'g'ri tashkil etilishida ijobiy o'zgarishlarni ro'y berishiga ishonamiz. Shunday ekan, barcha barchamiz bir maqsad yo'lida o'zaro hamkorlikni, hamjihatlikni pirovard maqsadga ko'tara olsak, jamiyatdagi o'zgarishlarni yanada ko'payishiga astoyidil hissa qo'shgan bo'lamiz. Buning uchun birinchidan samarali hamkorlikni amalga oshirish fursati kelganini unutmasligimiz; ikkinchidan har birimiz o'z faoliyatimizda inson manfaatini ustuvor qo'yimg'imiz kerakligini bilmog'imiz; uchinchidan barcha islohotlarni inson hayotiga uning farovonligiga yo'naltirish kerakligini unutmasligimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.UzA.uz. 01.12.2017 y.



УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА КАСБИЙ ИЖОДКОРЛИКНИ ВА МОТИВАЦИОН ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Ш.Н.БЕКМУРАТОВА,

Андижон ДУ эркин изланувчиси

Ушбу мақола бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларида касбий ижодкорликни ва мотивацион қобилиятларини ривожлантириш шарт-шароитлари ҳақида ёритилган бўлиб, талабалар ўзлаштириш даражасининг ривожланиш босқичлари ёритилган.

Таянч сўзлар: бўлажак ўқитувчи, методика, ўқув-тарбия ишлари, билим, маълумот, малака, тасвирий санъат, педагогик технология.

В статье рассматриваются условия развития профессиональных творческих и мотивационных способностей будущих учителей изобразительного искусства, а также этапы развития уровня успеваемости учащихся.

Ключевые слова: будущий учитель, методика, учебно-воспитательная работа, знания, информация, навыки, изобразительное искусство, педагогическая технология.

The article examines the conditions for the development of professional, creative and motivational abilities of future teachers of fine arts, as well as the stages of development of the level of student achievement.

Key words: future teacher, methodology, teaching and educational work, knowledge, information, skills, fine arts, pedagogical technology.

Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларининг касбий ижодкорлигини ривожлантиришда тасвирий санъат дарсларида янги педагогик технологиядан фойдаланиш: асосан ўқитувчининг маҳоратига, илмий – ижодий тафаккурининг кучли, серқирра, замонавий, бўлишига ва ташаббускорлигига боғлиқ бўлади. Агар бўлажак ўқитувчи ўз касбини, фанини яхши билиб, уни сева олса, у албатта ижодкор бўлиб, ҳар бир янгиликдан фойдаланишга астойдил киришади. Бундай ўқитувчи келажакда албатта янги педагогик технологияни мазмун-моҳиятини ўрганиб, уни ўзининг педагогик фаолитига олиб киради.

Янги педагогик технологиянинг барча принциплари, дидактик талаблари, методик йўналишлари, ва услубларидан мактаб тасвирий санъати дарсларида фойдаланиш имкониятлари жуда кенг бўлиб, уларни ҳар бири жуда яхши самара беради-ки, бу амалиётда ўз натижасини бермоқда. Шу ўринда “ижод”, “ижодкорлик” тушунчаларига алоҳида ёндашув асосида қараш зарур аҳамият касб этади.



Ижод деганда кенг маънода шахс ёки жамиятнинг табиий, ижтимоий ва маънавий оламни инсоннинг мақсад ва вазифаларига, унинг эҳтиёжлари, истаклари ва имкониятларига мувофиқ равишда ўзгартириш борасидаги бунёдкорлик фаолияти тушунилади.

Ижодкорлик деганда мавжуд тажрибани янгича ташкил қилиш ва билимлар, малакалар, маҳсулотларнинг янги комбинацияларини яратиш асосида моҳиятан янги моддий ва маънавий қадриятлар яратиш билан боғлиқ фаолият жараёни ёки янгиллик яратиш қобилияти тушунилади.

Ижодкорликнинг турли даражалари мавжуд: бир даражасида мавжуд билимлардан фойдаланилади ва уларнинг қўлланиш соҳалари кенгайтирилади; бошқа, юқорироқ даражасида эса бирон бир объект ёки билим соҳасига нисбатан одатланиб қолинган нуқтаи назарни ўзгартириб юборадиган мутлақо янгича ёндашув яратилади. Ижодкорлик илмийпедагогик адабиётларда инсоннинг фан, техника, ишлаб чиқариш, маданият ва бошқа соҳаларда ижтимоий аҳамиятга эга бўлган янгиллик яратиши билан боғлиқ мураккаб психологик жараён тарзида талқин этилган.

Креативлик ижодкорликнинг алоҳида таркибий қисми (ҳосиласи) сифатида талқин этилиб, инсон салоҳияти, индивидуаллиги билан боғлиқликда олиб қаралади. Айнан шу ёндашув объектив жиҳатдан ўринли, шунинг учун креативликни шахс ижодкорлигининг энг юқори даражада намоён бўлиши сифатида қабул қилиш ва мазкур масалани айнан шу контекстда талқин этиш мақсадга мувофиқдир. Педагогик ижодкорлик ўқитувчи томонидан муттасил ўзгариб турадиган таълим-тарбия жараёнида, талабалар билан мулоқотда оптимал ва ностандарт педагогик қарорларни ишлаб чиқиш ва жорий этиш демакдир.

Педагогик ижодкорликнинг асосий вазифаси эса талабаларга ахборот (билим) беришнинг янги мағбул тизимларини ишлаб чиқиш ва қўллаш, уларни педагогик маҳорат чўққиларига эришишда педагогика илми ва амалиёти тўплаган билимларга дахлдор қилиш, уларда янги билимларни мустақил излаб топиш малакасини ривожлантиришдан иборат.

Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларининг касбий маҳоратини оширишда ўқитувчи янги педагогик технологиянинг “Дарс технологияси” дан фойдаланган ҳолда:

– Модулли ўқитиш технологиясидан;



– Тезлаштириб ўқитиш технологиясидан;
– Муаммоли ўқитиш технологияси асосида ўқувчиларни мустақиллик, ташаббускорлик ва ижодкорлик асосида билим-малака олишга ўргатади.

– Табақалаштириб ўқитиш технологияси каби принциплардан фойдаланиб, ўз дарслари самарадорлигини ошириб беради.

Чунки, бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларининг методик тайёргарлигини такомиллаштиришда тасвирий санъат фанининг, беш турдаги машғулотларининг ҳар бир дарсида, ўқувчиларни янги дарсга, янги ўқув материалига олиб кириши, тайёрлаши учун янги педагогик технологиянинг мотивация - деб аталадиган дидактик жараёндан фойдаланади [2].

Мотивация - мактаб тасвирий санъатни ўқитишда ҳам энг асосий дидактик жараён бўлиб, бу ўқитувчидан ўз соҳаси бўйича ва бошқа ўқув фанлари материаллари билан боғланган ҳолда, ҳар бир дарс мавзуси материалига ўқувчилар қизиқишини ошириш имкониятларини яратувчи ҳолатлардаги суҳбат ўтказишни ифода этади. Бу эса ўқувчиларни дарс материалига бўлган қизиқиши юқори даражада бўлишини таъминлайди.

Фақат бу ерда педагогик технологияда кўрсатилган ўқув – тарбия воситаларини кучайтириш керакки, бу мактабда тасвирий санъатни ўқитиш дидактикаси материалларини, кўргазма қуролларини ва натура фондини кучайтиришни талаб қилади. Бу талаб асосан мактабда Давлат ўқув дастури талабига жавоб бера оладиган тасвирий санъат кабинетини ташкил этиши ва уни ўқув базасини мустаҳкамлаб боришини тақозо этади. Мактаб тасвирий санъати кабинети тасвирий санъат ўқитувчисининг ташаббускорлиги ва ижодкорлиги, шижоати ва меҳнатсеварлиги билан ташкил этилади.

Ўқувчиларнинг мотивацион тайёргарлиги нафақат уларнинг танланган мутахассисликка бўлган муносабатига таъсир қилади ва уларнинг таркибини ўрганишга йўналтиради, балки “...ўз салоҳиятларини актуаллаштириш ва касбий ривожланиш сифати учун ўқув муҳити потенциалидан фойдаланишни рағбатлантиради”[3].

Умумтаълим мактабларида тасвирий санъатни дарсларида янги педагогик технологиядан фойдаланиш: асосан ўқитувчининг маҳора-



тига, илмий-ижодий тафаккурининг кучли, серқирра, замонавий, бўлишига ва ташаббускорлигига боғлиқ ҳисобланади.

Агар ўқитувчи ўз касбини, фанини яхши билиб, уни сева олса, у албатта ижодкор бўлиб, ҳар бир янгиликдан фойдаланишга астойдил киришади. Бундай ўқитувчи албатта янги педагогик технологияни мазмун-моҳиятини ўрганиб, уни ўзининг педагогик фаолиятига олиб киради. Янги педагогик технологиянинг барча принциплари, дидактик талаблари, методик йўналишлари, ва услубларидан мактаб тасвирий санъати дарсларида фойдаланиш имкониятлари жуда кенг бўлиб, уларни ҳар бири жуда яхши самара беради-ки, бу амалиётда ўз натижасини бермоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Фалсафа. Қомусий луғат. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 308 б.
2. Б.Орипов. Тасвирий санъат ва уни ўқитиш методикаси. Т. 2005 й.
3. Р.Хасанов. Мактабда тасвирий санъатни ўқитиш методикаси. Т. 2004 йил.
4. Максимова Н. Ю. Психолого-педагогическое обеспечение мотивационной готовности студентов к профессиональной деятельности // Вестн. Нижегород. ун-та им. Н. И. Лобачевского. 2014. № 1 (2). С. 37–41.



TEXNOLOGIYA FANIDA KASBGA YO‘NALTIRILGAN O‘QITISH TEXNOLOGIYALARINI LOYIHALASH

L.R.ZARIPOV,

O‘zRes OO‘MTV huzuridagi OTRTITTE
markazi mutaxassisi, (PhD)

Ushbu maqolada kasbga yo‘naltirilgan ta‘lim mazmunini ishlab chiqish va joriy etishning nazariy muammolari yoritib berilgan. O‘qitish texnologiyasining ta‘rifi keltirilgan. Texnologiya fanini kasbiy yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyasini loyihalash yo‘nalishlari to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Tayanch so‘zlar: texnologiya, shakl, metod, qobiliyat, ehtiyoj, qiziqish, integratsiya, didaktika.

В данной статье освещаются теоретические проблемы разработки и внедрения профессионально ориентированного образовательного контента. Дано определение технологии обучения. Имеется информация о направлениях проектирования технологически ориентированных технологий обучения.

Ключевые слова: технология, форма, способность, требование, интерес, интеграция, дидактика.

This article highlights the theoretical problems of developing and implementing professionally oriented educational content. The definition of teaching technology is given. There is information about the directions of designing technology-oriented learning technologies.

Key words: technology, shape, capacity, demand, interest, integration, didactics.

Uzluksiz ta‘limning turli bo‘g‘inlarida o‘quv-tarbiyaviy faoliyatning maqsad va vazifalari, mazmunining mohiyati, metodlari, vositalari va tashkiliy shakllariga bog‘liq kasb-xunarga yo‘naltirish muammolari umumta‘lim maktablari va akademik litsey, professionalta‘lim muassasalaridagi ta‘lim uzluksizligini ta‘minlash jarayonidagi o‘quv tarbiya tizimi murakkab va ko‘p tarmoqli istiqbolli tadqiqotlarni taqozo etadi.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining yuqori sinflari yoki kasb-hunar kollejarida bolaning kasbiy muhim hislatlarini barvaqt aniqlash esa keyinchalik unga o‘z xususiyatlariga qarab kasbni to‘g‘ri tanlash, uni muvaffaqiyatli ravishda o‘zlashtirish, mehnatda yuksak natijalarga erishish imkonini berishi mumkin.

Oliy ta‘lim muassasalarida loyihalash pedagogning kasbiy faoliyati turi sifatida u tomonidan ishlab chiqilgan muayyan o‘qitish texnologiyasi loyihasini – o‘quv jarayoni doirasida joriy etiladigan pedagogik tizimni didaktik ifodalashni anglatadi. O‘qituvchining konstruktiv faoliyati o‘quv materialini saralash, ishlab chiqish, ya‘ni yaratilgan loyihani amaliyotga qo‘llash uchun moddiy asos yaratish bilan bog‘liqdir.



Kasbiy yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasi – ta'lim oluvchilarda ularning bo'lajak kasbiy faoliyati uchun muhim shaxs sifatlarini, shuningdek vazifasi bo'yicha funksional majburiyatlarni bajarishni ta'minlaydigan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantira oladigan texnologiyadir. Buni texnologiya darslarida kasbga yo'naltirilgan ta'lim joriy etish misolida ham ko'rish mumkin. Umumiy o'rta ta'limda texnologiya o'quv fanini o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda texnik-texnologik va operatsion bilim, ko'nikma, malakalarni rivojlantirish, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga tayyorlashdan iborat. Mehnatga muhabbatni va ishlash istagini faqat mehnatda tarbiyalash mumkin. SHu boisdan ham texnologiya fanini kasbiy yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasini loyihalash yo'nalishlaridan biri amaliy ishlardir.

Kasbiy yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarini loyihalashda o'qituvchining samarali algoritmli harakatlari quyidagilar hisoblanadi:

- o'qitishning tashhisli maqsadlarini aniqlash, kutilayotgan natijani o'lchamli ko'rsatkichlarda ifodalash;

- mutaxassisning bo'lg'usi kasbiy faoliyati kontekstida o'qitish mazmunini asoslash;

- o'quv materialining tuzilmasini, uning axborotli hajmini, shuningdek elementlari o'rtasidagi o'zaro aloqalar tizimini aniqlash;

- o'quv materialini o'zlashtirishning talab etilgan darajasini va o'quvchilarning boshlang'ich bilim darajasini aniqlash;

- o'qitishning jarayonli jihatlarini ishlab chiqish: ta'lim oluvchilarning biluv va amaliy topshiriqlar tizimi ko'rinishida o'zlashtirishga oid layoqatini tasavvur qilish;

- bu tajribani egallashning maxsus didaktik muolajalarini izlab topish, individual va jamoaviy o'quv faoliyatining tashkiliy shakli, metodi va vositalarini tanlash;

- o'zlashtirilgan tajribani yangi faoliyat sohasiga ko'chirish maqsadida «sub'ekt-sub'ekt» munosabatlari doirasida ta'lim oluvchilar bilan pedagogik o'zaro harakatni tashkil etish mantiqini aniqlashtirish;

- dasturning o'zlashtirish sifatini nazorat qilish va baholash tizimini, shuningdek o'quv faoliyatini individual tuzatish (korreksiya) usullarini tanlash.

Taklif etilayotgan algoritmga mos holda kasbiy yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasini loyihalash asoslarini qarab chiqamiz.

Zamonaviy ta'lim sharoitida kasbga yo'naltirilgan ta'limni joriy etishda o'quv maqsadlarining quyilishi muhim ahamiyatga ega. O'quv maqsadlari o'quvchilar harakatida aniq ifodalanadigan natijalar orqali belgilanadi.

Pedagogik adabiyotlarda va ilmiy ishlarda o'quv maqsadlari mazmun-mohiyati va qo'yilishi bo'yicha bir qancha ta'riflar va fikrlar bildirilgan.



O'quv maqsadlari - muayyan ta'lim-tarbiya jarayoni yakunida ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishi, yangi hosil qilinishi lozim bo'lgan bilim, hatti-harakat bilan bog'liq bo'lgan amaliy topshiriqlarni uddalay olish mahorati, shaxsiy fazilatlar va xulqini belgilaydi.

O'quv maqsadlari ko'lamiga qarab uch xil turga ajratiladi:

1. yo'naltiruvchi o'quv maqsadi;
2. umumiy o'quv maqsadi;
3. aniq o'quv maqsadlari;

Yo'naltiruvchi o'quv maqsadi – ta'lim jarayonining ustivor yo'nalishini ko'rsatadi. U ta'lim jarayoniga qo'yilgan umumiy talablarni aniqlaydi. Demak, kasb-hunar ta'limi bo'yicha ta'lim maqsadlarini belgilaydi.

Umumiy o'quv maqsadi – yo'naltiruvchi o'quv maqsadidan kelib chiqib, fanning o'quv maqsadlari belgilanadi. O'quv maqsadlari o'quvchilar ushbu fan bo'yicha egallashi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar haqida tasavvur berishi kerak.

Aniq o'quv maqsadlari – odatda o'qituvchi tomonidan ishlab chiqilishi lozim. Pedagogik adabiyotlarda aniq o'quv maqsadlari mohiyatiga ko'ra uch sohaga ajratilgan: 1) kognitiv, ya'ni nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilan bog'liq o'quv maqsadlari sohasi; 2) psixomotorik, ya'ni amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan o'quv maqsadlari sohasi; 3) affektiv, ya'ni xulq, o'zini tutish, atrof-muhitga va tevarak atrofidagilarga munosabatlarning shakllanishi va qadriyatlarini o'zlashtirish bilan bog'liq o'quv maqsadlari sohasi. Nazariy mashg'ulotlarda kognitiv soha bo'yicha bilimlarni, amaliy mashg'ulotlarda psixomotorik soha bo'yicha amaliy ko'nikmalarni egallashga e'tibor qaratiladi. Affektiv soha bo'yicha o'quv maqsadlarini belgilash bugungi kunda muhim ahamiyatga ega bo'lib, asosiy e'tibor o'quvchilarning kasbga qiziqishiga, mehnat qilishga intilishga va ma'suliyatni anglagan ravishda faoliyat ko'rsatishga qaratiladi. Demak, o'quv maqsadlarining barcha sohalar bo'yicha aniq qo'yilishi ta'lim natijalariga kafolatli erishishni ta'minlaydi.

O'qitish texnologiyasiloyihalashning yaxlit didaktik jarayonining natijaviyligiga bog'liq bo'lgan birinchi va hal qiluvchi bosqichi – bu *maqsadlilik* bosqichidir. Bu o'qitish maqsadini pedagog tomonidan aniqlashdan iboratdir.

1.O'quv faoliyati orqali, masalan: “dars maqsadi – yog'ochga ishlov berish”, yoki “Dastlabki kasbga qiziqishga oid tashxis o'tkazish”.

2.Mavzu mazmuni orqali, masalan: “elektromagnit induksiya hodisasini o'rganish”, yoki “yog'ochning tuzilishi va turlari aniqlash ko'nikmalarini shakllantirish”.

3.O'qituvchi faoliyati orqali, masalan: “ichki yonuv dvigatelining ishlash



prinsipi bilan tanishtirish”, yoki “duradgorlikda keng qo‘llaniladigan yurtimizda o‘svuvchi daraxt turlari”.

4.O‘quvchining intellektual, his-hayajonli, shaxsiy rivojlanishi holatidan kelib chiqqan holda, masalan: “daraxtlarni parvarish qiluvchi kasblar to‘g‘risida tushuncha”, yoki “texnik echimlarning samaradorligini aniqlash mezonlari” va h.k.

Ta’kidlash lozimki, o‘lchov o‘tkazishdagi asosiy murakkablik u yoki bu o‘quv materialida mujassamlashgan axborotlarning semantik birligini ajratishdan iboratdir. SHu boisdan o‘quv fanlari (bo‘limlar, modullar, mavzular) mazmuni axborotlari hajmini o‘lchash uchun foydalaniladigan semantik birlik tushunchasini chegaralash muhim. Chegaralash sababi o‘tkazilayotgan o‘lchovlar maqsadlari bilan taqozalangan bo‘ladi. U yoki bu o‘quv fani dasturida ifodalangan axborotlarning semantik birligi deganda murakkab yoki sodda tushunchalar, shuningdek aniq ta’riflar, natijalar, qonunlar, qoidalar, voqealar, faktlar va hokazolar tushuniladi.

Mazmunni saralash natijalari o‘z ifodasini o‘quv dasturlari va rejalarida topadi. Biroq ularning mavjudligi o‘qituvchining o‘quv fani tuzilmasi ustida ijodiy ishlashni davom etirishni taqiqlamaydi. Bunda o‘quv materialini tuzilmalash uchun tizimli yondashuv qo‘l keladi, chunki didaktik tizim tuzilmasining o‘zi birmuncha turg‘un bo‘lib, uning alohida elementlari o‘rtasidagi bog‘lanishlar fanlar mantiqi bilan o‘quv predmetiga va o‘qitish texnologiyasi qo‘yilayotgan psixologik-pedagogik talablar bilan etarlicha qat’iy aniqlangan bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шарипов Ш.С. Ўқувчилар касбий ижодкорлиги узвийлигини таъминлашнинг назарияси ва амалиёти. Дисс. ... пед. фан. док. – Т., 2012. – 307 б.
2. Базарова С.Д. Олий таълимда касбий-йўналтирилган ўқитиш технологиялари. Монография. – Тошкент: «Фан ва технология» нашриёти, 2006. – 114 б.
3. Кларин М.В. Инновации в мировой педагогике обучение на основе исследований, игр, дискуссий. –Рига: НПЦ«Эксперимент», 1995. –176 с.
4. Зарипов Л.Р. Инновацион ёндашув асосида 5-7-синф ўқувчиларида технологик компетенцияларни шакллантириш методикаси. Дис. ... п.ф.ф.д. (PhD) – Т.: 2020. - 141 б.



BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHILARI KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA KONTEKST MASALALARDAN FOYDALANISH

SH. QO'QONBOYEVA,

Qo'qon DPI o'qituvchisi, O'zPFITI mustaqil izlanuvchisi,

N.SH. TURDIYEV,

O'zPFITI katta ilmiy xodimi, fiz-mat fanlari nomzodi, dotsent.

Mazkur maqolada bo'lajak fizika o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni shakllantirishda kontekst masalalarning ahamiyati, tuzish prinsipi, talablari va qo'llash usullari keltiriladi. Maqolada shuningdek fizikadan kontekst topshiriqlardan namunalar keltiriladi.

Tayanch so'zlar: *kadrlar tayyorlash, kasbiy kompetentlik, kontekst masalalar, fizika, amaliyotga yo'naltirilgan topshiriqlar.*

Статья посвящена к применению контекстных задач для формирования профессиональных компетенций будущих учителей физики. Анализируется принципы создания, требования и последовательность конструирования контекстной задачи. Приводятся образцы задач по физике.

Ключевые слова: *подготовка кадров, профессиональная компетентность, контекстная задача, физика, практические задачи.*

The article is devoted to the application of contextual tasks for the formation of professional competencies of future physics teachers. The principles of creation, requirements and sequence of constructing a contextual task are analyzed. Samples of problems in physics are given.

Key words: *personnel training, professional competence, contextual task, physics, practical tasks.*

2020 yil 23-sentyabrda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni qabul qilinishi bunga yaqqol misoldir. Ushbu qonunda ayniqsa maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim, professional ta'lim, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keying ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, maktabdan tashqari ta'lim tizimi bosqichidagi yangiliklar o'zining tizimlili, izchilligi va uzviyligi bilan ajralib turadi. Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim, professional ta'lim jamiyatimizga bilimli, ijodiy tafakkurga ega, kreativ fikrlovchi yoshlarni yetishtirib berishi lozim. Buning uchun, albatta ularga ta'lim va tarbiya beruvchi pedagoglarning kasbiy tayyorgarlik darajasiga e'tibor qaratilishi kerak.

Ma'lumki umumiy o'rta ta'limda o'qitiladigan fizika darslarida ma'ruzalar o'qish, tajriba-namoyishlar ko'rsatish, laboratoriya ishlarini bajarish bilan birgalikda

masalalar ham yechiladi. Odatda masalalarni darslikdan yoki masalalar to'plamidan olinadi. Aytish joizki, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari uchun fizikadan alohida masalalar to'plami mavjud emas. Darsliklarda taklif qilingan masalalarda biror bir qonun, qoidaga doir masala shartlari berilib uni o'rganilgan formulalarni qo'llab yechiladi. Hozirgi kun o'quvchisida:

Bu masalani nega yechishim kerak?

Menga masalani yechish nima beradi?

degan savollarni o'qituvchiga berishi mumkin. Shunga ko'ra masalani tanlash va uni yechishda o'quvchiga stimulyer beradigan yo'nalishda o'zgartirishlar kiritish kerak. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bunda amaliyotga yo'naltirilgan va kontekstli topshiriqlar berilsa talabalarning (o'quvchilarning) qiziqishi ortadi.

Amaliyotga yo'naltirilgan masalalar atrof olamdagi vaziyatlarni o'rganish asosida tuziladi. Amaliyotga yo'naltirilgan masalalarning maqsadi konkret hayotiy vaziyatlar yechimini topishdan iborat.

Amaliyotga yo'naltirilgan masalalarning strukturasi quyidagicha bo'lishi mumkin:

- masalaning nomi;
- preambula(vaziyatga kirish);
- masalaning asosiy matni;
- topshiriq –masalaning yechimini topishda qo'yilgan savol yoki muammo.

Amaliyotga yo'naltirilgan masalalarning boshqa variantini-kontekst masalalar tashkil qiladi. Kontekst - lot.sontextus – “birlashish”, “bog'lash” degan ma'noni bildiradi. Uning boshqa ma'nosini Verbitskiy keltiradi. Kontekst-bu insonning hayoti va faoliyatining ichki va tashqi sharoitlari sistemasi bo'lib, konkret vaziyatni anglash, tushunish va o'zgartirishga bo'lgan ta'sirni anglatadi. Bunday ta'sir qilishda vaziyatni bir butun holda yoki uning bo'laklarga ajratib ham qarash mumkin.

Bundan “kontekst o'qitish- o'quv-bilish faoliyatidan, ijtimoiy-amaliy faoliyatga o'tish orqali amalga oshiriladi” degan ma'no kelib chiqadi.

Kontekst masala motivatsion xarakterga ega bo'lib uning shartida, konkret hayotiy vaziyat keltiriladi. Masalada bu vaziyatni analiz qilish, anglash va tushuntirish hamda unga ta'sir qilish usulini tanlash talab qilinadi. Boshqacha qilib aytganda kontekst masalalarga inson hayotida duch keladigan turli vaziyatlarga oid masalalar kiradi.

Kontekst masalani tuzish prinsipi:



– masala talaba(o‘quvchi) uchun shaxsiy ahamiyatga ega(uning real hayotida uchrashi mumkin bo‘lgan muammo qaraladi) ;

– vaziyatda keltirilgan muammo talabaning (o‘quvchining) tayyorlanganlik darajasini kompleks tekshirish imkonini berishi kerak;

– kontekst masala shartida uning yechimiga eltadigan ishoratlar bo‘lmashligi kerak;

– muammoning yechimi bir nechta bo‘lishi mumkin, lekin hech bo‘lmaganda bittasi berilgan vaziyat shartiga to‘g‘ri kelmaydigan bo‘lishi kerak.

Kontekstli topshiriqlarga qo‘yiladigan talablar:

– talaba (o‘quvchi)ning real hayotiy tajribasiga, bilimiga(kundalik hayotga doir), tasavvurlariga –hayotiy tasavvurlar va yangi ilmiy tushunchalar orasidagi farqlarga tayanishi kerak;

– noaniqligi va ochiqqligi bilan farqlanadi.Uning yechimi etalon ko‘rinishida bo‘lmashdan bir nechta yechimlarga va javoblarga ega bo‘lishi mumkin;

– nostandart va original.Bu uning jozibadorligini oshirib qiziqish hosil qiladi;

– masala yechimini topish bevosita yangi mavzuni o‘rganishga zamin tayyorlaydi va o‘quvchining yangi mavzuga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi.

Kontekst topshiriqni tuzish algoritmi:

1.Navbatdagi darsni o‘tishga tayyorlanish davrida yangi mavzu bo‘yicha o‘quvchilar nimani oldindan bilishlari mumkinligi haqida o‘ylab ko‘ring. Masalan pedagogika oliy ta‘lim muassasida fizikaning mexanika bo‘limida dinamika qonunlari mavzusi haqida ma‘ruza o‘qilishi lozim bo‘lsin. Bu mavzuni talabalar maktabda yoki litsey(kollej)da o‘rganganlar. Bundan tashqari shunga doir boshqa manbalardan olingan axborotlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

2. O‘rgatmoqchi bo‘lgan mavzuingizda talabalar uchun nima yangilikni yoki ularga ma‘lum bo‘lmagan, anglamagan jihatlarini bermoqchi ekanligingizni aniqlab oling.

3. Darsingizda beriladigan yangi bilimlar talaba uchun qanchalik shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lishini o‘ylab ko‘ring. Buning uchun quyidagi savollarga javob bering: bugungi o‘rgatadigan bilimlarim talabalarga nima beradi? Bu mavzuning ularga nima qizig‘i bor? Bugungi mavzudagi nimalar ularni hayron qoldiradi yoki avval ma‘lum bo‘lgan narsalar bo‘yicha yangicha fikrlaydi? Ular mavzu bo‘yicha olgan bilimlarini qayerda qo‘llashlari mumkin?

4.Yuqoridagi savollarga javobingizni shaxsiy ahamiyat nuqtai nazaridan umumlashtiring.

5. Mavzuga doir biror bir vaziyatni eslang yoki o‘ylab toping. Uni analiz



qilish va anglash jarayonida talaba (o'quvchi) mazkur mavzuni o'rganishga shaxsiy ehtiyoj sezsin.

6. Kontekst topshiriq uchun mazkur vaziyatga oid tayyor matn, rasm, chizma, videotasvir (agar bo'lsa) tayyorlang. Ular bo'lmasa o'zingiz matn tuzing.

7. Material asosida vaziyatni analiz qilish va yechimini topish bo'yicha topshiriqni belgilang.

Kontekst topshiriqlardan namunalar keltiramiz.

1. Ertalabki nonushtada sutli kofe ichmoqchi edingiz. Kofe damlangandan so'ng, unga sut quymoqchi bo'lganinigizda telefonga chaqirib qolishdi. Qaytgan paytingizda kofe issiqroq turishi uchun sutni kofega quyib ketish kerakmi yoki kelgandan keyin quyish kerakmi? Javobingizni asoslang.

2. Ertalabki nonushtada kofe ichmoqchi edingiz. Issiq kofe qaysi holda tezroq sovuydi - oldin qandni piyolaga solib unga kofeni quygandami yoki oldin kofeni quyib keyin qand solgandami?

Har ikkala holda ham bir xil qoshiqcha bilan teng marta aralashtiriladi. Javobingizni asoslang.

3. Uzun yo'lakka kirgan odam elektr uzib-ulagichni ulab elektr lampochkasini yoqadi va undan o'tib yo'lak oxiridagi uzib ulagichni uzib o'chirib ketadi. So'ngra qaytib kirib yana uzib ulagichni ulab lampochkani yoqadi va boshqa uchidan chiqishida o'chirib ketishi kerak. Buni amalga oshirishning bimechta chizmasini taklif qiling.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashni lozim topdik. Zamonaviy fizika o'qituvchisining vazifasi fan materiallari bilan tanishtirishdangina iborat emas, balki talabalarning (o'quvchilarning) fanga oid bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish bilan birga ularga olgan bilimlarini tanish va notanish vaziyatlarda qo'llay olishni ham o'rgatishdir. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda ya'ni, bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda kontekst masalalardan foydalanish o'zining yuqori samarasini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида” ги Қонуни. ЎРҚ-637-сон 23.09.2020.

2. <https://ru.wikipedia.org/wiki>

3. Вербицкий, А.А. Концепция знаково-контекстного обучения в вузе / А.А. Вербицкий // Вопросы психологии. -1987. - № 5. - С. 31-39.



BO‘LAJAK KIMYO O‘QITUVCHISI AXBOROT-METODIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA AKTNING ROLI

X.M. RAJABOV,

*Urgench davlat universiteti
katta o‘qituvchisi, p.f.f.d. (PhD)*

Maqolada vo‘lajak kimyo o‘qituvchisi axborot-metodik kompetentligini rivojlantirishda AKTning roli, yangi axborot texnologiyalarini qo‘llash yo‘llari, ta‘lim jarayonidagi ahamiyati yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: axborot, texnologiya, kompyuter, metod, axborot texnologiyalari, axborot-metodik kompetentlik.

В статье раскрывается роль ИКТ в развитии информационно-методической компетенции будущих учителей химии, способы использования новых информационных технологий, их значение в образовательном процессе.

Ключевые слова: информация, технология, компьютер, метод, информационные технологии, информационно-методическая компетентность.

The article reveals the role of ICT in the development of information and methodological competence of future chemistry teachers, ways of using new information technologies, their importance in the educational process.

Key words: information, technology, computer, method, information technology, informational and methodological competence.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ta‘lim islohotlari, siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar pedagog xodimlar oldiga zamonaviy axborot texnologiyalarni egallash, bo‘lajak mutaxassislarning axborot-metodik kompetentligini rivojlantirish vazifasini qo‘ydi.

Internet tarmog‘i dunyoni axborot tizimi sur‘atini o‘z ichiga oladi, ya‘ni kimyoviy jarayonlar, jamiyatning avtomatlashtirilgan texnik tizimlari ahamiyati va roli hamda raqamli ta‘lim resuralarining axborot texnologiyalarining ta‘limda qo‘llanilishi haqida ko‘pgina mualliflar bosh qotirdilar. Jumladan, ular ta‘lim sohasida quyidagi yangi axborot texnologiyalarini qo‘llash yo‘llarini aytib o‘tdilar.

1. Komyuterdan o‘quv fanlarini o‘rganish vositasi sifatida foydalanish.
2. Universal faoliyat turi sifatida foydalanish (yozuv, rasm chizish, hisob-kitob, axborot qidirish va kommunikatsiya).
3. Kasbiy va kasbga yo‘naltirish vositasi sifatida-kompyuterdan kimyoni chuqur organish va har xil kasblarga yo‘naltirishda foydalanish.
4. Defektologik-rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitishda



kompyuterdan foydalanish.

5. Kompyuterdan foydalanishning barcha turlari-shaxsiy qiziqishlar bilan aloqador, shaxsiy arxivni yaratish, ko'ngilochar dasturlardan foydalanish.

6. O'qituvchilik-o'qituvchilar faoliyatida kompyuterdan foydalanish, o'quv jarayonini nazorat qilish va qo'llab quvvatlash shuningdek, xar hil tashkiliy uslubiy faoliyatlar.

7. Tashkiliy-respublika, viloyat, ta'lim muassasalari hamda boshqa o'quv dargohlari boshqaruvida kompyuterdan foydalanish.

8. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari yangi axborot texnologiyalardan foydalangan holda faoliyat yuritadigan o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida axborot texnologiyalarning hamma turlaridan keng foydalanish.

I.V.Robert [2] ta'limda YaAT foydalanishning quyidagi pedagogik maqsadlarini ajratadi: ta'lim oluvchilar shaxsini rivojlantirish, ularni axborotli jamiyat sharoitlarida qulay hayotga tayyorlash; zamonaviy jamiyatni axborotlashtirishga xizmat qiladigan ijtimoiy buyurtmani amalga oshirish.

Yuqorida aytib o'tilganlardan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, zamonaviy axborot texnologiyalaridan ta'lim tizimida quyidagi tarzda qo'llanilishi mumkin.

1. Ta'lim jarayonini mukammallashtiruvchi ta'lim vositalari sifatida.

2. O'zini va borliqni anglash instrumenti sifatida.

3. Taxsil olayotgan o'quvchining shaxsini rivojlantiruvchi vosita sifatida.

4. Kimyo fanini o'rganishdagi ta'lim manbayi sifatida.

5. O'quv darhoglari tizimini o'quv tarbiyaviy jarayonni boshqarish va axborot uslubiy ta'minot vositasi sifatida.

6. Ilg'or pedagogik texnologiyalarni ommalashtirish maqsadidagi komunikatsiya vositasi sifatida.

7. O'quv tadqiqotlar natijalarini ishlab chiqish jarayonini va namunaviy o'quv jihozlarini avtomatlashtirish vositasi sifatida.

8. Test psixologik tahlili o'quv jarayoni nazoratini avtomatlashtirish vositasi.

9. Bo'sh vaqtni qiziqarli tashlik etish vositasi.

Shu bilan birgalikda shaxsiy kompyuterlar kompyuter savodhonligini ta'minlaydi va axborotdan o'z vaqtida voqif bo'lish va ulardan foydalanish imkonini beradi.

Bunday yangi axborot texnologiyalari pedagoglarga o'z ish uslubini



yangilashga ko'maklashuvchi vosita bo'lib qoladi. Shu bilan birgalikda o'qituvchilarning shaxsiy malakasini oshirishda tahsil oluvchilarga esa shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

O'qituvchilarga texnik va tabiiy fanlar orasidagi aloqa zichligini ta'minlash, o'qituvchilarning shaxsiy malakasini oshirish o'quv faoliyatini amalga oshirish, ta'lim uslublari va shakllarini takomillashtirish jarayoni ham kompyuter yordamida amalga oshiriladi.

Yuqorida aytib o'tiganlarga asoslangan holda kimyo fanining o'qitilishida ham axborot texnologiyalarining ahamiyati va o'rni haqida to'xlatib o'tamiz.

Hozirgi kunda dasturlashtirish-ikkinchi savodxonlik degan tushuncha allaqachon yaxlit bir iboraga aylanib ulgurdi, ayniqsa kompyuterlar o'rnatilgan joylardagi ishchi xodimlar dasturlashtirish tilini faol o'rgana boshladi.

Vaqt o'tishi bilan maqsad o'zgardi. O'sib borayotgan avlod axborot savodxonligining shakllanishi kelgusi bosqichda maktablarning yangi muammosiga aylandi.

Jamiyatda hosil bo'layotgan axborot bo'ronidan jamiyat a'zolarini, ayniqsa, jamiyatning kelajagi bo'lgan yoshlarni himoya qilishda, ularda axborot-metodik kompetentligini rivojlantirish o'ta dolzarb muammo hisoblanadi.

"Axborot madaniyati" tushunchasi ikkita fundamental tushuncha: axborot va madaniyat tushunchalariga asoslanadi. Bundan kelib chiqib, bu tushunchani talqin qilishning "madaniyat" va "axborot" yondashuvlariga ajratib qarashlar mavjud. Madaniyat yondashuvi doirasida axborot madaniyatini axborotlashgan jamiyatda insonning yashash faoliyati usuli sifatida, insoniyat madaniyati shakllanishi jarayonining tashkil etuvchisi sifatida qoraladi. Axborot yondashuvi doirasida esa unga axborot talabini qondirishga qaratilgan barcha axborot faoliyati bilimlarni majmuasi sifatida qoraladi.

So'nggi vaqtlarda esa axborot madaniyati tushunchasini shaxsning axborot va madaniyat komponentlarining integratsiyalashuvi vaziyatida yaxlit qarash tendentsiyasi kuchaymoqda. Buning natijasida esa axborot madaniyati umuminsoniy madaniyatning bir qirasi sifatida qoralmoqda. Aynan ana shu qarash axborot madaniyatining asl mohiyatini ochib berishga imkon beradi.

Axborot madaniyati shaxsning o'quv, ilmiy-bilish, mustaqil ta'lim olish, dam olish va boshqa ko'rinishdagi faoliyati jarayonida paydo bo'ladigan axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan, shaxsiy axborot



faoliyatini samarali tashkil qilishni ta'minlaydigan bilimlar, malaka va ko'nikmalarning tizimlashtirilgan majmuasidir. Umuman olganda, axborot madaniyati axborotdan samarali foydalanish bilim va ko'nikmalari bo'lib, kerakli axborotni axborot resurslaridan axborot texnologiyalarining barcha ko'rinishlari (kompyuter va Internet tarmog'i texnologiyalari) orqali qidirishning turli xil bilimlaridan iborat.

Axborot kompetentligi insoniyat axborot madaniyatining eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ko'p ishlarda shaxsning axborot madaniyatiga insoniyat umumiy madaniyatining tashkil etuvchi tarkibiy qismlardan biri sifatida ta'rif beriladi, "axborot dunyoqarashi va individual axborot ehtiyojlarini maqbul darajada qondirish uchun maqsadga muvofiq mustaqil faoliyatni ta'minlaydigan bilim va ko'nikmalar tizimi bo'lib, ham an'anaviy va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalaniladi» [3, 7 b.]

Yuqoridagilardagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib ta'kidlash joizki, talabalarining axborot kompetentsiyasini samarali shakllantirish vazifasi murakkab va ko'p o'leovli muammo hisoblanadi. Axborot kompetentsiyasi shaxsning umumiy axborot madaniyati yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Belgilangan maqsadga erishish uchun qator pedagogik sharoitlarga tayaniladi, eng muhimi - talabalar o'zlarining axborot ehtiyojlarini, zamonaviy jamiyat rivojlanishda axborotning muhimligini anglashi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Тартур Ю.Г., Медведев В.Е. Подготовка преподавателя высшей школы: компетентностный подход [Текст] / Ю.Г. Тартур, В.Е. Медведев // Высшее образование в России. – 2007. – № 11. – С. 46–56.
2. Учебно-методическое пособие / И. В. Роберт, С. В. Панюкова, А. А. Кузнецов, А. Ю. Кравцова. — М.: Дрофа, 2008. — 312 с.
3. Гендина, Н.И. Формирование информационной культуры личности: теоретическое обоснование и моделирование содержания учебной дисциплины [Текст] / Н.И. Гендина, Н.И. Колкова, Г.А. Стародубова, Ю.В. Уленко. — М.: Межрегиональный центр библиотечного сотрудничества, 2006. — 512 с.



КОРРЕКЦИЯ РЕЧЕВЫХ ОШИБОК КАК ДИДАКТИЧЕСКИЙ ПРИЁМ АКТИВИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ

Н. АБДУЛЛАЕВА,

старший преподаватель Андижан ИСХА

В статье рассматриваются вопросы по совершенствованию методов и приёмов обучения для развития познавательной активности студентов в условиях дистанционного и заочного обучения в системе непрерывного образования республики. Конкретно рассмотрен вопрос о коррекции речевых ошибок в процессе активизации самостоятельной работы обучаемых, определена управляющая функция деятельности преподавателя в этом процессе.

Ключевые слова: коррекция, познавательная активность, роль преподавателя, речевые ошибки, темпоральность, речевая деятельность.

The article deals with the issues of improving of the teaching methods and techniques for the development of cognitive activity of students in the conditions of distance and extramural learning in the system of continual education of the republic. Specifically, the issue of correcting speech errors in the process of activation of the students independent work is considered, the control function of the teacher's activity in this process is determined.

Key words: correction, cognitive activity, teacher's role, speech errors, temporality, speech activity.

Мақолада республикамиз узлуксиз таълим тизимида масофавий ва сиртқи таълим шаронтида талабаларнинг билиш ва ўрганиш фаолиятини ривожлантириш учун ўқитишнинг усул ва ёндашувларини такомиллаштириш масалалари кўриб чиқилган. Хусусан, ўқувчиларнинг мустақил таълим олишлари фаоллаштириш учун нутқий хатоларни тузатиш масаласи кўриб чиқилган, бу жараёнда ўқитувчи фаолиятининг бошқарув функцияси аниқланган.

Таянч сўзлар: коррекция, билиш фаолияти, ўқитувчининг роли, нутқий хатолар, темпораллик, нутқий фаолият.

В системе дистанционного и заочного образования есть, как правило, люди зрелого возраста, имеющие определенный социально-общественный статус. Попадая в ситуацию педагогического общения в роли учеников, не всегда чувствующих себя уверенно, они особенно часто переживают так называемый психологический стресс (определенную эмоциональную напряженность, характеризующуюся чрезмерной тревожностью), что в значительной степени способствует искажениям в их речи, пассивности, путанице мыслей, оговоркам и т.д.

Особенно остро состояние эмоциональной напряженности проявляется на занятиях по иностранному языку, что обусловлено спецификой его как учебного предмета в неязыковом вузе. Основная цель обучения иностранному языку наряду с общеобразовательными – развитие речевой деятельности (РД). Как известно, в процессе усвоения иностранного языка студентам приходится сталкиваться со многими трудностями. В частности, в процессе общения на иностран-



ном языке имеет место феномен “коммуникативный барьер”. Сложная задача овладение иностранным языком еще более затрудняется при недостаточном высоком уровне сформированности познавательных психических процессов.

В такой ситуации большое значение имеют поведение преподавателя, его такт, умение создать благоприятную атмосферу для общения. Коррекция речевых ошибок студентов на занятиях по иностранному языку, осуществляемая с учетом индивидуальных особенностей студентов и критерия коммуникативной допустимости речевых ошибок, является дидактическим приемом, способствующим преодолению психологических барьеров, созданию благоприятных условий, оптимальных для развития речевой активности студентов. Кроме того, исправлять непосредственно в ходе общения следует лишь те ошибки, которые классифицируются как коммуникативно недопустимые, т.е. искажающие смысл высказывания и ведущие к нарушению процесса общения.

С целью изучения влияния приема дифференцированной коррекции речевых ошибок студентов на их речевую активность в процессе учебно-речевой деятельности в разных её видах (говорении, чтении, аудировании) в 2017/18, 2018/19 учебных годах проводился эксперимент в Андижанском филиале Ташкентского Государственного Аграрного Университета. В эксперименте участвовало 100 студентов: 50 в контрольных и 50 в экспериментальных группах, где единственным отличием в системе обучения была тактика преподавателя при коррекции речевых ошибок.

В экспериментальных группах использовался прием дифференцированной коррекции речевых ошибок, т.е. речевая деятельность была четко коммуникативно направленной, внимание студентов фиксировалось лишь на ошибках, нарушающих коммуникацию. Коммуникативно допустимые ошибки указывались каждому студенту индивидуально в конце занятия, и индивидуальная работа по их коррекции проводилась студентами самостоятельно, во внеурочное время, с использованием специальной системы упражнений, под управлением и контролем преподавателя.

В контрольных группах все ошибки независимо от их характера преподаватель исправлял немедленно, прерывая речевую деятельность. Дополнительная самостоятельная работа по индивидуальной коррекции речевых ошибок не проводилась.

Сплошная коррекция речевых ошибок концентрирует внимание обучаемых на форме, а не на содержании, в результате чего происходит спад внимания к содержательной стороне высказывания. Умение концентрировать внимание на смысле высказываемого, отвлекаясь от формы, умение видеть целые блоки текста, не останавливаясь на отдельных словах, вырабатывается и подкрепляется благодаря использованию приема дифференцированной коррекции речевых ошибок. Это умение, в свою очередь, неизбежно способствует формированию навыка быстрого чтения и понимания



на слух, что играет большую роль при достижении общеобразовательных целей обучения в целом, поскольку навыки РД, выработанные в работе с иностранным языком, переносятся на родной язык.

Нами созданы некоторые упражнения для самостоятельной работы, цель которых – коррекция коммуникативно допустимых ошибок, не исправляемых в процессе речевого акта в любом виде речевой деятельности. Поскольку эти упражнения предполагают самостоятельную работу индивидуального характера, проводимую без непосредственного контроля со стороны преподавателя, они являются тренировочными, неречевыми упражнениями по моделям, требующим многократного повторения с элементами продукции и трансформации. Такие упражнения способствуют выработке необходимых умений и навыков в силу следующих причин. Во-первых, многократное повторение ведет к автоматизации действий, что необходимо для правильного срабатывания определенных навыков в условиях полуподготовленной и неподготовленной речевой деятельности, обычно сопровождаемой эмоциональным напряжением. Во-вторых, упражнения продуктивного и трансформационного характера требуют наибольшей степени активности мыслительной деятельности студентов в условиях выполнения тренировочных упражнений, что является важным фактором создания оптимальных условий для выработки определенных навыков и умений.

Фонетические ошибки, как правило, коммуникативно допустимы. Коммуникативно недопустимы обычно фонематические ошибки; при близкой качественной схожести фонем (например, [ʔ:] – [ʔ:]) даже фонематические ошибки могут быть иногда допустимы, т.е. могут не нарушать акт общения, так как контекст помогает понять неточно произнесенное слово.

Лексические ошибки можно классифицировать как коммуникативно допустимые. Это чаще всего неправильное употребление синонимичных слов. Обычно ошибки подобного типа не нарушают акта общения, так как носители языка без особого труда понимают действительный смысл высказывания, т.е. цель общения – взаимопонимание – достигается. Однако эти ошибки требуют фиксации внимания обучаемого на дополнительных лексических значениях синонимов, на различных возможных сочетаниях с ними и многократного выполнения тренировочных упражнений для выработки необходимых навыков.

Например, русскому глаголу *поднимать* соответствует целый ряд английских глаголов: *to lift, to raise, to improve, to pick up, to rouse, to get up, to enhance* и т. д., которые отличаются как по сфере использования, так и по сочетаемости.

Как известно, **грамматические ошибки** могут иметь место на синтаксическом и морфологическом уровне. Коммуникативно допустимы в английском языке обычно морфологические ошибки, так как нарушение порядка слов в предложении (синтаксическая ошибка) здесь чревато искажением, изменением смысла высказывания. В то же время в английском языке ошибки в грамматической форме слов обычно компенсируются определенной избыточнос-



тью грамматических характеристик.

Так, в предложении *My friend enter the institute last year* отсутствие глагольной флексии, указывающей на прошедшее время, восполняется лексическим компонентом, играющим ту же функцию в предложении.

Ошибки в области формы свойственны продуктивным видам речевой деятельности, т. е. говорению и письму. Известно, что овладение одним из видов РД не обеспечивает овладение другим видом РД без специальной тренировки именно в этом виде РД. Лишь тренировка в определенном виде РД может принести ожидаемый успех. Однако владение каким-то видом РД способствует более быстрому овладению другим видом РД при наличии тренировки в данном виде РД. Так, устные упражнения помогают овладеть устной речью настолько, насколько эти упражнения способствуют запоминанию единиц речи, тренируемых в упражнениях. Так как письмо включает в себя внутреннюю речь, оно облегчает усвоение языка, способствуя запоминанию языковых единиц. Именно поэтому письмо рассматривается как вспомогательное средство формирования других видов РД.

При обучении рецептивным видам РД, т. е. чтению (интенсивному) и аудированию, ошибки, характеризующиеся неправильным восприятием формы, обычно не имеют существенного значения, так как проверка правильности выполняемого действия осуществляется на уровне содержания. Поэтому самостоятельная работа по коррекции коммуникативно допустимых ошибок в основном сводится к коррекции ошибок в процессе говорения. Именно в этом виде РД со всей определенностью проявляются неувоенные или плохо усвоенные формы на всех уровнях: грамматическом, лексическом, фонетическом. Однако это вовсе не исключает возможной самостоятельной работы студентов по усвоению языковых единиц разных уровней изучаемого иностранного языка в разных видах РД, а именно: выполнения упражнений и заданий на аудирование, чтения, письменных заданий, что способствует более быстрому и устойчивому запоминанию и правильному использованию этих единиц в разных видах РД.

Литература:

1. Постановление Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах» № ПП-3775 от 5 июня 2018 г.

2. Постановление Кабинета Министров от 11.08.2017 г. № 610 «О мерах по дальнейшему совершенствованию качества обучения иностранным языкам в образовательных учреждениях».

3. Реформа системы подготовки преподавателей английского языка: <http://www.britishcouncil.uz/teach/reform-project>.

4. Вайнрайх У. Однозначие и многоязычие. Перевод с англ. А.К. Жолковского - с.7-42. // Новое в зарубежной лингвистике. М.: Прогресс. 1999. -361.



*Jurnalning ushbu sonini
tayyorlashda qatnashganlar:
L.Qaraxanova, S.Pirmatov.*

*O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligidan
03.01.2007 yilda № 0101 tartib raqami bilan
ro‘yxatdan o‘tgan.*

*«Uzluksiz ta’lim» jurnali O‘zbekiston Respublikasi OAK
rayosatining 2013 yil 30 dekabrda 201/3-sonli qarori bilan
pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha ilmiy jurnallar
ro‘yxatiga kiritilgan.*

*Jurnal talablariga to‘liq rioya qilingan holda 1,5 intervaldagi
6-7 bet hajmdagi ilmiy maqolalar elektron versiyasi
bilan birga qabul qilinadi.*

Bosishga ruxsat etildi: 20.04.2021 y. Qog‘oz bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$
Ofset bosma usulida bosildi. 8-bosma taboq.
Adadi 120 nusxa. Buyurtma

«ADAD PLYUS» MCHJ matbaa korxonasi.
Toshkent sh., Chilonzor t. Bunyodkor ko‘chasi, 28-uy.